**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**
**O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA’LIMI MARKAZI**

N.A. Mirashirova, I.G. Raximova,
D.K. Muxamedjanova

# KASB ETIKASI VA KOMMUNIKATSIYA

*Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

«Faylasuflar» nashriyoti
Toshkent – 2014

**UO‘K: 37:17(075)**
**KBK: 87.75**
**M-53**

**Mirashirova N.A.**

**M-53 Kasb etikasi va kommunikatsiyasi:** kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma / N.A. Mirashirova, I.G. Raximova, D.K. Muxamedjanova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi; O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi markazi. – Toshkent: «Faylasuflar» nashriyoti, 2014. – 128 b.

**UO‘K: 37:17(075)**
**KBK: 87.75**

Ushbu o‘quv qo‘llanma, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida tahsil olayotgan o‘quvchilar, amaliyotchi psixolog, o‘qituvchilar hamda boshqa yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatayotgan mutaxassislarga mo‘ljallangan. Bunda kasbiy faoliyatning ijtimoiy psixologik mexanizmlarini, muomala va muloqotchanlik malakalarini shakllantirish, shaxsning hissiy va irodaviy sohasi, kasbiy etika va kommunikatsiyaning shaxsning shakllanishiga ta’siri, kasbiy qiziqishlar psixodiagnostikasi, shaxs psixikasining rivojlanish bosqichlarida kasbiy rivojlanishi, shuningdek, kasbni to‘g‘ri tanlash va kasbga yo‘naltirish yuzasidan nazariy, amaliy ma’lumotlar bayon etilgan.

**Taqrizchilar:**

**N.S. Safayev** – Psixologiya fanlari doktori, professor,

**I.N. Aslanov** – TVPKQTMOI «Pedagogika, psixologiya va menejment» kaf.mudiri, psixol.f.n.

ISBN 978-9943-4136-4-1

© «Faylasuflar» nashriyoti, 2014.

# KIRISH

Xalqimizning milliy ongi, milliy g‘ururi, milliy iftixori o‘sib, ma’naviy dunyosi kundan-kunga boyib bormoqda. Bu esa mustaqil davlatimizning ma’naviy asosini yanada mustahkamlashga imkoniyat yaratib bermoqda. Lekin bundan ma’naviyat sohasida hech qanday muammo yo‘q, degan xulosani chiqarib bo‘lmaydi. Bugungi kunda erkin fuqaro ma’naviyatini ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir.

Prezidentimiz I.A. Karimov ta’kidlashicha, «Biz o‘z haq-huquqlarini taniydigan, o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan ayni zamonda shaxsiy manfaatlarni, mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg‘un holda quradigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak».

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim siyosatining muhim maqsadlaridan biri yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Albatta, barkamol inson deganda ma’naviy jihatdan yetuk, o‘z vatanining tarixi, buguni va kelajagi uchun qayg‘uradigan, shuningdek, jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shish ishtiyoqida yonib yashaydigan shaxsni tushunish bugungi kun talabiga mos keladi. Lekin ushbu tushunchaga tahliliy yondashilsa, uning naqadar serqirra, murakkab va har tomonlama umuminsoniy qadriyatlarga mos kelishini idrok etish mumkin.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uni amalga oshirishni ta’minlashga yo‘naltirilgan barcha me’yoriy hujjatlarda, o‘sib kelayotgan yosh avlodning intellektual imkoniyatlarini, individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganishga va shu asosda ta’lim va tarbiya ishlarini rejalashtirish va qayta qurishga katta e’tibor berilgan.

Barkamol insonning shakllanishi, uning munosib kasb-korni egallash, jamiyat taraqqiyoti uchun baholi qudrat o‘z hissasini qo‘shib yashashi va shu orqali jamiyatda o‘zligini namoyon etishi, ya’ni shaxs sifatida kamol topishi nazarga olinadi. Keng ma’noda kasbiy etikaning shakllanishi deganda insonning o‘z aqliy qobiliyatlari, jismoniy imkoniyatlari, u yoki bu sohaga bo‘lgan layoqat-

lari, qiziqish va intilishlari, shuningdek, qadriyat va dunyoqarashlariga koʻra biron-bir kasb sohasida ta'lim olishi, keyinchalik shu sohaga kirishib, moslasha borishi, shaxslararo munosabatlarda muloqotchanlik sifatlarining oshishi va nihoyat yillar davomida yetuk va malakali mutaxassis boʻlib yetishishi tushuniladi.

Yoshlarning kasbiy etikasi va kommunikatsiyasining rivojlanganlik darajasi faqatgina yosh xususiyatiga bogʻliq emas: u ma'lum yoshga kelib oʻz-oʻzidan shakllanib qolmaydi. Kasbiy tarbiya etika jarayonining samaralari va natijalarini obyektiv baholash hamda kasbiy shakllanishini toʻgʻri rejalashtirish koʻpgina kasbiy tashxis metodikalaridan ham foydalanishini taqozo etadi.

Shubhasiz, kasbiy tashxis metodikalarini ishlatish oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirish ishlarining birinchi bosqichlaridan hisoblanadi. Ushbu metodikalardan unumli va talab darajasidan ogʻishmay foydalanilsa, qay yoʻnalishda va qaysi koʻlamda kasb tanlash va kasbiy etika va kommunikatsiyalarini amalga oshirish kerakligi oydinlashadi, oʻquvchi oʻzining yoʻnalganligini aniqlashi uchun sharoit yaratib berish imkoniyatlari ochiladi. Ya'ni har bir oʻsmir yoki oʻspirinning aqliy imkoniyatlari, shaxs xususiyatlari, qiziqishlari, muloqotchanlik sifatlari, qadriyatlari hamda boʻlajak kasbiga boʻlgan munosabatlarini aniqlash katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu toʻplamda keltirilgan barcha koʻrsatmalar, yoʻl-yoʻriqlar respublikamizning umumiy oʻrta va oʻrta maxsus ta'lim muassasalarida amaliy faoliyat yuritayotgan psixolog va kasbga yoʻnaltiruvchi mutaxassislarning ish faoliyatlari uchun qoʻshimcha ravishda tashxis metodikalar safini toʻldiradi, degan umiddamiz.

# 1-mavzu: KASB ETIKASI VA KOMMUNIKATSIYA FANINING PREDMETI

**Reja:**

1. Kasb etikasi va kommunikatsiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Kasb etikasi va kommunikatsiya fanining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni.
3. Kasb etikasi va kommunikatsiya fanining tadqiqot metodlari.

**Darsning maqsadi:** talabalarga kasb etikasi va kommunikatsiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari, jamiyatdagi o‘rni, boshqa fanlar bilan aloqadorligini va tadqiqot metodlari to‘g‘risidagi bilimlarni berish.

*Mavzuning tayanch so‘zlari:*

kasb etikasi, kommunikatsiya, axloq, metod, test, anketa, sotsiometriya, kuzatish, pedagogik psixologiya, yuridik psixologiya va h.k.

## 1.1. Kasb etikasi va kommunikatsiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Yillar o‘tishi bilan ishlab chiqarish, fan va texnika rivojlanib, ijtimoiy mehnat taqsimoti yanada chuqurlashdi. Bu jarayonning uzluksiz davom etishi esa, o‘z navbatida, har bir muayyan ijtimoiy funksiyani bajaradigan yangidan yangi faoliyat sohalari paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Ularning sohiblari esa shunga ko‘ra muayyan ijtimoiy burchlarni bajara boshlaganlar. Mazkur burch va majburiyatlar muayyan axloqiy qoidalar va xulq-atvor normalarida o‘z aksini topdi.

Kasb etikasi to‘g‘risida har xil munosabatlar hosil bo‘lishining asosiy sabablaridan biri bu maktab, kollej va litsey o‘quvchilarida kasb tanlash jarayonida turli xil motivlarning namoyon bo‘lishidir. Motivlar o‘rtasidagi kurash ularning u yoki bu qarorga kelishlariga sabab bo‘ladi. Bizningcha, voqelikka ongli munosabatda bo‘lish obyektiv va qat’iy qarorni keltirib chiqaradi.

Kasbiy etika bu har bir kasb-hunarga xos axloqiy norma, prinsip va sifatlarni o‘rganadi va hayotga tatbiq etadi.

Kasb-kor (hunar) oldiga qo‘yiladigan talablarni asoslash va ularni bayon qilish o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, umumiy hamda xususiy ko‘rinishlarni o‘zida aks ettiradi:

1. Kasb va uni ixtisosliklarining psixologik tavsifi.

2. Kasb-korning (hunarning) mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyati.

3. Kasb va ixtisoslikning ijtimoiy tavsifi.

4. Kasbning ijtimoiy psixologik ahamiyati va tavsifi yoshlarda uning ijtimoiy mavqei (nufuzi), jamoaning o‘ziga xos xususiyatlari, vertikal va gorizontal bo‘yicha shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari.

5. Kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli egallash uchun zarur bilimlar va ko‘nikmalar ko‘lamining pedagogik tavsifi (maxsus mezonlar orqali kasbiy mahorat aniqlanadi).

6. Pedagogik jarayonni takomillashtirish yuzasidan takliflar, tayyorgarlik muddatlari, tadbir-choralari umumiy tavsifi.

Kasb etikasi va kommunikatsiya fanining predmeti – shaxs psixikasining rivojlanishida kasbiy faoliyatning ijtimoiy psixologik mexanizmlarining shakllanishi, shaxsning kasbiy va shaxsiy sifatlarining rivojlanishi, to‘g‘ri kasb tanlash, axloqiy tarbiyaning ko‘rinishlari, kasbiy etika va muomala malakalarini shakllantirishning nazariy asoslarini ochib beruvchi fandir.

Fanning maqsadi – o‘quvchilarga fan sohasidagi psixologik tushunchalar, kasblar haqida tushuncha, tasavvurlar zaxirasini shakllantirish, shuningdek, shaxsning hissiy va irodaviy sohasi, kasbiy etika va kommunikatsiyaning shaxsning shakllanishiga ta’siri, kasbga yo‘naltirish yuzasidan nazariy, amaliy ma’lumotlar manbaini berish.

*Fanning vazifalari:*

– o‘quvchilarni ilmiy ma’lumotlar bilan tanishtirish:

– kasb tanlash va shaxs xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslash;

– kasblar psixodiagnotsikasi haqida tushuncha berish;

– shaxs psixikasining rivojlanish bosqichlarida kasbiy rivojlanish masalalari.

Kasb etikasi va kommunikatsiya fani, amaliyotning turli sohalari bilan bog‘langan, g‘oyat tarmoqlanib ketgan fanlar tizimidan iborat.

Konkret faoliyatning psixologik tomoni bo‘yicha kasb etikasi va kommunikatsiya fanining bir qator fanlar bilan uzviy aloqador.

MEHNAT PSIXOLOGIYASI. Mehnat psixologiyasi inson mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilishning psixologik asoslarini o‘rganadi. Odamning kasb uchun muhim ahamiyatga ega xususiyatlarini, mehnat malakalarining shakllanishi va taraqqiyoti qonuniyatlarini o‘rganish, ishlab chiqarish vositalarining turli xususiyatlari (rangi, mosligi, joylashishi) ish joyi kabilarning kishiga (mehnatkashga) ta’sirini o‘rganish mehnat psixologiyasining vazifasiga kiradi.

Mehnat psixologiyasining taraqqiyoti jarayonida uning tarkibidan bir qancha mustaqil sohalar ajralib chiqdi. Shulardan biri INJENERLIK PSIXOLOGIYASI. Injenerlik psixologiyasi inson va mashina o‘rtasidagi vazifalarni taqsimlash, ularning vazifalarini muvofiqlashtirish kabi muammolarni o‘rganadi. Psixologiyaning bu sohasi asosan avtomatlashtirilgan tizimlarni boshqaruvchi operatorlarning faoliyatini o‘rganadi. Keyingi yillarda mehnat va injenerlik psixologiyasi tarkibidan avval aviatsiya, keyinchalik kosmik psixologiya ajralib chiqdi.

KASBIY PSIXOLOGIYA. Kasb psixologiyasi kasbiy faoliyatning psixologik mexanizmlarini, to‘g‘ri kasb tanlash malakalarini shakllantirishning nazariy asoslarini hamda bu boradagi muammolarini o‘z ichiga qamrab oladi. Kasb psixologiyasi shaxsda kasbga doir bilim, ko‘nikma, malakalarni, ulardagi mavjud tushuncha, tasavvurlarni boyitishga xizmat qiladi.

PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA. Ta’lim va tarbiya jarayonlarining qonuniyatlarini o‘rganishdan iborat. Bu soha o‘quvchilarda tafakkurning tarkib topishini, intellektual faoliyat malakalari va usullarini o‘zlashtirishni boshqarish muammolari, ta’lim samaradorligiga ta’sir qiluvchi psixologik omillarni, pedagoglar va o‘quvchilar orasidagi munosabatlarni, o‘quvchilardagi individual tafovutlar va ularni hisobga olishni, psixik taraqqiyotdan orqa-

da qolgan bolalarga ta'lim va tarbiya berish kabi muammolarni o'rganadi. Pedagogik psixologiyaning ta'lim psixologiyasi, tarbiya psixologiyasi, pedagogik faoliyat psixologiyasi, anomal rivojlangan bolalarga ta'lim va tarbiya berish psixologiyasi kabi ko'plab tarmoqlari mavjud.

TIBBIYOT PSIXOLOGIYASI. Psixologiyaning bu sohasi tibbiyot xodimlarining faoliyatini, bemorlarning xulq-atvorini o'rganadi. Tibbiyot psixologiyasi quyidagi qismlarga bo'linib ketgan: neyropsixologiya – psixik hodisalarning miyadagi fiziologik tuzilmalarini, asoslarini, mexanizmlarini o'rganadi; psixofarmakologiya – davolashda qo'llaniladigan turli xil dorilarning kishi psixikasiga ta'sirini o'rganadi; psixoterapiya – bemorlarni davolashda turli psixik ta'sirlardan foydalanishni; psixoprofilaktika va psixogigiyena – turli psixik kasalliklarning kelib chiqishi, ularni profilaktika qilish masalalarini o'rganadi.

YURIDIK PSIXOLOGIYA – huquq tizimida turli tadbirlarni amalga oshirish mobaynida yuzaga keladigan ko'plab masalalarni ko'rib chiqadi. Uning tarmoqlari: sud ishi psixologiyasi, kriminal psixologiya, penitensiar yoki axloq tuzatish mehnati psixologiyasi.

SPORT PSIXOLOGIYASI – sportchi va uning shaxsiy xususiyatlari, ularni psixologik jihatdan tayyorlash shart-sharoitlari va vositalari, sport musobaqalarini tashkil qilish va o'tkazish kabi masalalarni o'rganadi.

YOSH DAVRLARI PSIXOLOGIYASI – psixik xususiyatlarning yosh davomidagi dinamikasini, psixik taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganadi. Yosh davrlari psixologiyasi quyidagi tarmoqlarga ega: bolalar psixologiyasi, o'smirlar psixologiyasi, o'spirin yoshlar psixologiyasi, katta yoshli kishilar psixologiyasi, gerantopsixologiya (qariyalar psixologiyasi).

IJTIMOIY PSIXOLOGIYA – kishilar orasidagi munosabatlar jarayonida yuzaga keladigan psixik hodisalarni o'rganadi. Uning predmeti turli xildagi uyushgan va uyushmagan, rasmiy va norasmiy birlashmalardagi shaxslararo munosabatlarni o'rganish. Sotsial psixologiya ijtimoiy kayfiyatni, taqlid qilish hodisasini, «psixologik yukish»ni, guruhlarda tabaqalanish va liderlik hodisalarini o'rganadi.

Shu tartibda kasb etikasi va kommunikatsiya fani boshqa sohalar bilan ham bog‘liq, jumladan: differensial psixologiya, siyosiy psixologiya, iqtisod psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi, anomal taraqqiyot psixologiyasi va uning tarmoqlari, qiyosiy psixologiya (zoopsixologiya ham deb yuritiladi) va boshqalar.

## 1.2. Kasb etikasi va kommunikatsiya fanining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni

Hech bir inson jamiyatdan tashqarida, yakka holda yashamaydi. U odamlar orasida o‘sadi, ulg‘ayadi, hayot kechiradi, o‘zining butun hayoti va faoliyati davomida har xil toifadagi ko‘plab insonlar bilan, katta-yu kichik mehnat jamoalari bilan muloqotda bo‘ladi. Bu insonning o‘z kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruratidan kelib chiqadi.

Jamoa bo‘lib yashash jamiyatda qabul qilingan urf-odat, an’ana va qonun-qoidalarga amal qilishni talab etadi. Ana shu jarayonda inson va jamiyat o‘rtasida yuzaga keladigan obyektiv aloqadorlik, ya’ni ijtimoiy munosabat – xulq-atvor, odob, xatti-harakat prinsip va normalarining majmuasi axloqning mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Binobarin, axloqning manbai jamiyat ehtiyoji va manfaatlaridan iborat.

«Axloq» – arabcha so‘z bo‘lib, xulq-atvor, yurish-turish, tarbiya, odob degan ma’nolarni anglatadi. Ushbu tushuncha jamiyatning axloqiy hayotida yuz beradigan barcha jarayonlarni o‘zida mujassam etadi.

Jamiyatning axloqiy hayoti deb kishilarning ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda, ularning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy faoliyatida, oilasida va kundalik turmushida yuzaga keladigan munosabatlar; ularning xulq-atvori, yurish-turishi; adolat, sadoqat, burch, baxt kabi bir qator tushunchalarda ifodalanadigan munosabatlarining majmuiga aytiladi. Shundan kelib chiqqan holda, jamiyatning ko‘p qirrali va murakkab axloqiy hayotini aks ettiruvchi «axloq» tushunchasini kategoriya sifatida quyidagicha ta’riflash mumkin.

Axloq inson va jamiyat o‘rtasidagi obyektiv aloqadorlik tufayli kelib chiqadigan, shaxsiy va umumiy manfaatlarni muvofiqlashtirib turish asosida har bir shaxsning hayoti va faoliyati-

ni boshqaradigan, tartibga soladigan muayyan xulq-atvor, odob, xatti-harakat, prinsip va normalarining majmuidir.

Axloq ijtimoiy hodisa bo‘lib, insoniyat jamiyati vujudga kelishi bilan bir vaqtda jamoalar bilan shaxslar o‘rtasidagi ehtiyoj va manfaatlarga xizmat qiluvchi ijtimoiy munosabat tariqasida vujudga kelgan. U o‘zining tarixiy taraqqiyotida quyidagi vazifalarni bajargan:

– umuminsoniy madaniyatning inson tabiiy xislatlarini o‘zgartiruvchi faoliyat shaklidagi tarkibiy qismi;

– jamiyatda yashovchi har bir shaxsni har tomonlama kamol toptiruvchi ma’naviy-ijtimoiy omil asoslaridan biri;

– kishilarning ichki tuyg‘ularini, hissiyotlarini o‘stirib, umuminsoniy moddiy va ma’naviy qadriyatlarni anglab yetish, ularni asrash va kelgusi avlodlarga yetkazib berish yo‘llaridan eng afzali;

– oila va kundalik turmushda mavjud bo‘lgan oilaviy burch, o‘zaro hurmat, sadoqat, or-nomus kabi an’analarni avloddan-avlodga o‘tkazish asosida davom ettirish vositasi va h.k.

Yuqorida bayon etilgan masalalar, ya’ni axloq, uning jamiyat hayotida tutgan o‘rni kabi muammolarni o‘rganish bilan bevosita axloqshunoslik fani shug‘ullanadi.

Axloqshunoslik fani axloqning kelib chiqishi, mohiyati, xususiyatlari, jamiyat rivojidagi o‘rni, taraqqiyot qonuniyatlarini o‘rganuvchi va haqiqatligi amalda isbotlangan bilimlar majmuidan iborat fan. U boshqa ijtimoiy fanlar singari o‘z qonunlari va kategoriyalariga ega bo‘lib, ular orqali o‘z xulosalarini bayon qiladi.

Axloqshunoslik fani umumiy etika nazariyasi, tarixiy etika, normativ-qadriyatlar etikasi, kasb etikasi va axloqiy tarbiya nazariyasi kabi tarkibiy qismlardan tashkil topgan.

Umumiy etika nazariyasi axloqning tabiati, mohiyati, xususiyati, tarkibiy qismlari, uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rnini o‘rganadi.

Tarixiy etika axloqning kelib chiqishini, uning tarixiy taraqqiyot qonunlarini, har xil nazariyalarning tarixdagi o‘rni, rivojlanish bosqichlari va tamoyillarini (tendensiyalarini) tadqiq etadi.

Normativ qadriyatlar etikasi aniq axloq normalarini, axloqiy majburiylik talablarini, axloqiy meros sifatida shakllanib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan axloqiy qadriyatlar tizimini o‘rganadi.

Axloqiy tarbiya nazariyasi axloqning jamiyat talabi, ehtiyoji va manfaatlaridan kelib chiqqan holda uni hayotga tatbiq etishning vosita va uslublarini o‘rganadi va o‘rgatadi.

Jamiyatda mutlaq, abadiy va o‘zgarmas axloq yo‘q. Axloq tarixan o‘zgaruvchan va nisbiy mustaqillikka ega bo‘lgan ijtimoiy hodisadir. Uning bu xususiyatlari umumiy axloqning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan kasb axloqida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Jamiyat rivojining tarixida ijtimoiy mehnat taqsimotining (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdogarlik va boshqa kasblarning) paydo bo‘lishi mehnatning bir turi bilan band bo‘lgan kishilar guruhlarining kasb-hunar jihatidan ajralib chiqishiga va shunga muvofiq ravishda turli xil mutaxassisliklarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Bu esa har bir kishining qilayotgan mehnat turiga, mehnatni tashkil etish usullariga qarab, ulardan muayyan turdagi harakatlar va ruhiy quvvatlarni sarflashni talab etadigan takrorlanmas, o‘ziga xos ko‘nikmalarni vujudga keltirdi. Oqibatda, bu ko‘nikmalar har bir kasbda ichki va tashqi, asosiy va asosiy bo‘lmagan ziddiyatlarni keltirib chiqardi. Odamlar esa subyektiv tuyg‘ularini, axloqiy fikrlarini bartaraf etishga jalb etadilar.

Shu tariqa, kasbiy munosabatlardagi xilma-xil holatlar orasidan ixtisosning nisbatan mustaqilligini, xususiyatlarini ifodalovchi eng tipik holatlar ajralib chiqdi. Ular, o‘z navbatida, mehnat jarayonida ishtirok etayotganlarning o‘ziga xos xatti-harakati, xulq-atvor normalarini keltirib chiqaradiki, oqibatda kasbiy munosabatlar sifat jihatdan barqarorlikka erishishi bilanoq, har bir mehnat turining tabiatiga muvofiq keluvchi axloqiy dasturlarning yuzaga kelishiga, ya’ni kasb axloqining paydo bo‘lishiga olib keldi.

Shunday qilib, kasb axloqining paydo bo‘lishi uzluksiz mehnat taqsimotining mahsuli, uning axloqiy dasturi, axloqiy bahosi sifatida faoliyat ko‘rsata boshladi.

Jamiyatning har bir kasb-hunarga, ixtisosga beradigan axloqiy bahosi ikki asosiy omil bilan — birinchidan, mazkur kasb-

hunar vakillarining jamiyat rivojlanishi uchun obyektiv ravishda nimalar berishi bilan; ikkinchidan, jamiyatning ma'naviy ta'sir ko'rsatish ma'nosida ularga subyektiv ravishda nimalar berishi bilan belgilanadi.

Ana shu axloqiy baho omillariga ko'ra, kasb etikasini har bir kasb-hunarning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va vazifalariga qarab bir necha turga ajratish mumkin:

– o'qituvchilik ixtisosiga qarab – pedagog axloqi;

– tibbiyot ixtisosiga qarab – shifokor axloqi;

– huquqni muhofaza qilish ixtisosiga qarab – yurist axloqi va h.k.

Shifokorlik hozirgi zamonda eng ko'p tarqalgan, hayot uchun eng zarur kasblardan biri bo'lib, bu kasb axloqining xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

– bemorlarga nihoyatda e'tibor bilan, shirinso'zlik va odamshinavandalik bilan munosabatda bo'lish va g'amxo'rlik qilish;

– bemorlarning ruhiyatiga ijobiy ta'sir etish, ya'ni ruhiy davolash usullarini puxtalik bilan qo'llash, kishilarda tajriba o'tkazish chegaralarini aniq bilish va uni buzmaslik;

– bemorlardagi kasallikni, u keltirib chiqaradigan yomon oqibatlar va uni davolash sirlarini oshkor qilmaslik hamda uni bemorga va uning qarindoshlariga nihoyatda ehtiyotlik bilan ma'lum qilish va h.k.

Shifokorlik kasbi axloqining sir-asrorlarini tibbiyotda deontologiya fani o'rganadi. Bu fan ishlab chiqqan qoidalarga rioya qilmaslik, ya'ni bemorlarga qo'pol gapirish, hayqirish, ularning kasalini ko'rib, oshkora hayratga tushish, iztirob chekish, nojo'ya xatti-harakatlar, ayniqsa, tamagirlik qilish bemor ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa bemorni ham, shifokorni ham katta fojiaga duchor etishi mumkin.

Demak, shifokorlik kasbi axloqining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni shundaki, shifokor o'zining yuksak axloqiy xislatlarini namoyon qilib, bemorlarni o'z vaqtida va to'g'ri davolab, kishilarning jismonan sog'lom bo'lishini ta'minlab, jamiyatning yanada rivojlanishiga hissa qo'shishi yoki, aksincha, o'zining beburdligidan, odamlarni xasta, nogiron holga keltirishi, ba'zan esa ularning o'limini tezlashtirib, jamiyat rivojiga to'sqinlik qilishi mumkin.

O‘qituvchilik shifokorlik kabi jamiyat rivojiga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shuvchi kasblardan biri hisoblanadi. Bu kasb axloqining o‘ziga xos xususiyatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

– o‘quvchi-talabalarni eng zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, ularni hayotga tatbiq etishning yo‘llarini ko‘rsatib berish;

– ularga zamonaviy usullar asosida ta’lim-tarbiya berish, talabchan bo‘lish, o‘quvchi-talabalarni o‘z bolasidek sevib tarbiya qilish;

– o‘z fikrlarini aniq ifodalay olish, o‘z ustida tinmay ishlash, o‘quvchi-talabalarning qalbida bilimga chanqoqlik hissini uyg‘otish;

– turmushda o‘z xulq-atvorini qattiq nazorat qilib, shu asosda o‘quvchi-talabalarga har sohada doimo ibrat bo‘lish va h.k.

O‘qituvchilar kasb axloqining jamiyat hayotida tutgan o‘rni yosh avlodning xat-savodini chiqarish, ularga zamonaviy ilm sirlarini o‘rgatish, yoshlarga ta’lim-tarbiya berish va shu asosda ularda mehnatsevarlik, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlash, Vatanni muqaddas deb bilish kabi tuyg‘ularni shakllantirish bilan belgilanadi.

Vatanni himoya qilish ham eng sharafli kasblardan biridir. Ushbu kasb egalari bo‘lmish harbiy xizmatchilar – soldat va ofitserlarning kasb axloqi vatanparvarlik, mardlik, jasurlik, eng zamonaviy jang qurollari, usul va vositalarini bilish va qo‘llay olish; jangovar o‘rtoqlik qoidalariga sodiq qolish, jang maydonlarini tashlab ketmaslik, asirga tushishdan hazar qilish; harbiy qasamyodga sodiq qolib, harbiy burchni hayotining so‘nggi daqiqalariga qadar bajarish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Harbiy xizmatchilar kasb axloqining asosiy qoidalari ularning «harbiy qasamyodi» va nizomlarida o‘z ifodasini topgan. Harbiy xizmatchilar kasb axloqining jamiyat rivojida tutgan o‘rni mazkur mamlakat aholisining tinch-totuv yashashlari uchun har tomonlama sharoit yaratib berish, ya’ni ularni tashqi xavf-xatar – dushman tajovuzidan himoya qilish bilan belgilanadi.

Yuqorida bayon etilganlardan ko‘rinib turibdiki, kasb etikasi umumiy axloqning nisbatan mustaqil qismidir. U quyidagi xususiyatlarga ega:

– qadriyatlar olamida jamiyat tomonidan yaratilayotgan yangi qadriyatlar tizimining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beruvchi ko‘rsatkich ekanligi;

– jamiyat manfaati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda, muayyan ijtimoiy qatlamlarning ehtiyojlarini qondiruvchi ma’naviy ozuqa ekanligi;

– o‘ta xavfli va qiyin, ziddiyatli va zalvorli sharoitlarda axloqiy tanlovni amalga oshirish vositasi ekanligi;

– shunga ko‘ra, kasb etikasi, jamiyat tomonidan qabul qilingan umumiy axloq qoidalarining ma’lum kasb egasi tomonidan amalda qanday bajarilishini ko‘rsatmasi xatti-harakat, odob, xulq-atvorlarning majmui vazifasini o‘tasa; ikkinchidan, shaxsning xarakterini shakllantirishda bevosita ishtirok etib, kasbiy burchini muvaffaqiyatli bajarishiga ko‘maklashadi.

Shunday qilib, kasb etikasi – jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq qoidalarini kishilarning ixtisoslariga nisbatan amalda tatbiq qiluvchi aniq kasbiy burch, sha’n, or-nomus, qadr-qimmat kabi xatti-harakatlarning majmui, umumiy axloqning kishilar kasb-koridagi o‘ziga xos ko‘rinishi.

### 1.3. Kasb etikasi va kommunikatsiya fanining tadqiqot metodlari

Metod so‘zi yunoncha «methodos» bo‘lib – tadqiqot, tekshirish degan ma’noni beradi. Har bir fanda bo‘lgani singari kasbiy psixologiyaning o‘z metodlari va ularni qo‘llash vositalari mavjud. To‘g‘ri, ularning aksariyati psixologiya, yosh davrlari psixologiyasi va ijtimoiy psixologiya fanlarida qo‘llaniladigan usullarga yaqin, lekin fanning predmetidagi o‘ziga xosligini hisobga olgan holda ularni ishlatish yo‘llari va ma’lumotlarni ilmiy jihatdan tahlil qilishda farqlar mavjud.

Masalan, umumiy psixologiyada bo‘lgani kabi kasb etikasi va kommunikatsiya fanida ham kuzatish metodi qo‘llaniladi, lekin kuzatuv obyekti konkret shaxsdagi psixik faoliyat emas, balki shaxsning ijtimoiy munosabatlar tizimida bevosita kuzatish mumkin bo‘lgan ijtimoiy xulqidir. Ya’ni, kuzatuvchi aniq oldindan belgilangan reja asosida o‘zi o‘rganayotgan guruhning faoliyatini, verbal yoki noverbal xatti-harakatlarini ma’lum vaqt birligida mut-

tasil kuzatib, olingan ma'lumotlarni qayd etib boradi, bunda zamonaviy audio va videotexnikadan foydalanish, u yoki bu harakatlarni qayta-qayta qurish orqali kerakli xulosalarni chiqarish mumkin.

Kasbiy etika va kommunikatsiya fani bir qancha aniq, tekshirilib, sinovdan o'tkazilgan, samarali metodlarga ega. Ularning asosiylariga qisqa to'xtalib o'tamiz.

Kuzatish metodi – psixologiya fanida qadimdan keng qo'llanilib kelayotgan metodlardan biridir. Hayotiy psixologiyada aytarli barcha faktlar kuzatish yordamida to'planadi. Ular asosida dono xulosalar, maqollar, matallar to'plangan. Kuzatish metodi quyidagilarga bo'linadi:

a) «qo'shilib kuzatish – bunda tadqiqotchi kuzatiluvchilar faoliyatiga bevosita aralashib, zarur holatlarda birgalikda faoliyat yuritadi. Bu usulda eng muhim xususiyat uning tabiiyligi bo'lib, kuzatish obyektlari o'zlarining kuzatilayotganliklarini sezmaydilar va kuzatuvchi guruhning a'zosi sifatida qabul qiladilar. Ushbu shartning buzilishi eksperimentning samarasiz bo'lishiga olib kelishi mumkin;

b) tashqi kuzatish – kuzatiluvchilar faoliyatiga aralashmagan holda ular tashqi xulq-atvorini qayd qilishdir. Bu usul muayyan vaqt va sabr-toqat talab qilishi bilan boshqa metodlardan farq qiladi, ba'zida qisqa muddat ichida tadqiqotchi o'zini qiziqtirayotgan predmet xususida hech narsa qayd qila olmasligi yoki tasodifan qo'lga kiritilgan ma'lumot asosida xulosa chiqarishga majbur bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham bu usul boshqa usullarga qo'shimcha vosita sifatida ishlatiladi;

d) muhim voqealarni qayd etish usulida kuzatishning mohiyati shundaki, alohida shaxs yoki guruh kutilmagan, tasodifiy vaziyatga solinadi va ularning vaziyatga munosabati, o'zini tutishi, ziddiyatli va qiyin holatlardan chiqish yo'llari kuzatiladi. Masalan, guruhni ataylab oldindan tuzilgan ssenariy yordamida munozarali vaziyatga solish va unda har bir guruh a'zosini o'zini qanday tutishi va bayon etgan fikrlarini zikr etish bunga yorqin misoldir.

Anketa metodi – hammaga tanish bo'lgan usullardan biri. Lekin ko'pincha anketani o'tkazgan odam uning tuzilishi qanchalik qiyinligini yoki olingan ma'lumotlarni qayta ishlash, ular-

ni to‘g‘ri sharhlash naqadar qiyin ekanligini tasavvur qilmaydi. Anketaga kiritilgan savollar ma’lumotiga ko‘ra anketa ochiq va yopiq turlarga bo‘linadi. Ochiq anketa respondentdan o‘z fikrini erkin bayon etishni talab qiladi, yopiq shakldagi anketa savollari esa javoblari oldindan berilgan bo‘lib, tekshiriluvchi o‘ziga ma’qul bo‘lgan, o‘zining qarashlari, fikrlari bilan mos kelgan javobni belgilab beradi.

Ochiq anketa savollarning kamchiligi – respondentlarning har doim ham qo‘yilgan vazifaga yetarli darajada mas’uliyat bilan qaramasliklari hamda berilgan javoblarni statistik jihatdan ishlov berishdagi qiyinchiliklar bo‘lsa, yopiq anketada respondentga tekshiruvchi tomonidan o‘z fikriga ergashishga o‘xshash holatning mavjudligi yoki har doim ham hamma savolning barcha javob variantlarini topa bilmaslikdadir. Shunday holatlarda respondent yo umuman javob bermasligi yoki «tavakkal» qilib bir variantni belgilab berishi mumkin. Shuning uchun ham keyingi paytlarda yarim yopiq savollardan iborat anketalar tuzilmoqdaki, ularda javob variantlaridan tashqari qo‘shimcha tarzda fikr bildirish uchun qo‘shimcha qatorlar beriladi.

Faoliyat natijalarini psixologik tahlil qilish metodi – psixologik metodlarning bir ko‘rinishidir. Faoliyat natijalarini tahlil qilish jarayonida natijaning o‘zi emas, balki shu natijani hosil qilish bilan bog‘liq faoliyat psixologik jihatdan baholanadi. Bu metod, ayniqsa, bolalar psixologiyasida keng qo‘llaniladi. Bolalarning chizgan rasmlarini o‘rganish orqali ularning psixikasi va taraqqiyoti haqida ma’lumotlar olinadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan metodlar asosan tadqiqot maqsadida qo‘llaniladi. Bundan tashqari ba’zi psixologik metodlar sinash maqsadida ham qo‘llaniladi. Bunda maqsad psixologiya faniga, ilmiy bilimlarga biror yangilik kiritish, qonuniyat ochish emas. Bu metodlarning o‘rganilayotgan shaxsda biror xususiyatning mavjudligi, uning taraqqiyot darajasi, turli me’yorlarga mos kelishi darajasini aniqlashdir. Shunday metodlarning barchasi umumiy nom bilan test deb yuritiladi.

Test – qisqa muddat ichida bajariladigan, standart vazifalardan iborat. Ularning natijalarini sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish orqali kishida o‘rganilayotgan psixik funksiya

va xususiyatlarning nechog‘lik takomillashganligi va rivojlanganlik darajasi baholanadi. Testlar yordamida kishining biror kasbga layoqatliligi, aqliy rivojlanish darajasi, bilim darajasi o‘rganiladi. Testlarning samaradorligi ularni tuzish uchun asoslanilgan metodologiya, test tuzilishining ko‘plab talablarga javob berishi, o‘tkazish sharoiti va talablarning adekvatligi bilan aniqlanadi.

Testlar psixologiyaning maxsus usulidir. Ular qisqa sinov usuli bo‘lib, u yoki bu ijtimoiy psixologik hodisani ma’lum muddat ichida biror testni qo‘llash orqali tekshiriladi. Testlar asrimizning boshida kashf qilingan bo‘lib, ular 20—30-yillarda hayotga, amaliyotga shunchalik shiddat bilan kirib keldiki, natijada maxsus soha — psixometrika yuzaga keldi. Testlarni qo‘llashning qulaylik tomoni shundaki, bir test yordamida ma’lum bir obyektning u yoki bu xususiyatini bir necha marta, takror-takror sinab ko‘rish mumkin. Lekin ularni universal deb bo‘lmaydi, chunki u yoki bu testni faqat qanday turdagi obyektda sinalgan bo‘lsa, shunga o‘xshash obyektlardagina qo‘llash mumkin, qolaversa, bunda olingan ma’lumotlar nisbiy xarakterga ega bo‘ladi. Biroq shunday bo‘lishiga qaramay, testlar, ayniqsa hozirgi kunlarda hayotimizga keng kirib keldi.

Shaxs xususiyatlarini tekshiruvchi testlardan tashqari, shaxsning muloqot tizimidagi o‘rnini, undagi muloqot malakalarining bor-yo‘qligini sinovchi, shaxs aqliy sifatlarini tekshiruvchi testlar keng qo‘llanilmoqda. E’tirof etish kerakki, testni tuzish, uni obyektlarda sinovdan o‘tkazish, hattoki, tayyor testni moslashtirish yuksak bilimlarni, malakani, olimlik odobini talab qiladigan ishdir. Masalan, ingliz olimi Kettell shaxs sifatlarini sinovchi testini ishlab chiqish uchun odamdagi 4,5 mingga yaqin sifatlarni o‘rganishdan boshlagan edi. Ana shulardan ekspertlar yordamida 171 juft dixotomik sifatlarni ajratdi (masalan, kamtar—maqtanchoq, bosiq — tez va shunga o‘xshash). Nihoyat, ular ichidan eng ishonchlilari tanlab olindiki, oxir-oqibat 21 xil shaxs xususiyatlaridan iborat sifatlar kompleksi tanlandi va shular asosida mashhur Kettell testi paydo bo‘ldi. Uning yordamida asosan shaxsdagi introversiya, ekstroversiya, faollik, reallilik, ziyraklik darajasi va boshqalar sinaladigan bo‘ldi.

Testlar xususida yana shuni aytish mumkinki, har bir testning o‘z «kaliti» bo‘ladi va bu kalitning egasida maxsus litsenziyalar, ya’ni kelishuvga ko‘ra ishonchli shaxslargagina sotish, berish huquqi bo‘ladi. «Kalitsiz» esa maxsus testlarni hech kim ishlata olmaydi.

**Sotsiometriya metodi.** Bu tadqiqot metodiga AQSHlik Djon Moreno asos solgan bo‘lib, kichik (birlamchi) guruh a’zolari o‘rtasida emotsional, hissiy munosabatlarni bevosita o‘rnatish va darajasini o‘lchashda qo‘llaniladi. Mazkur metod yordamida muayyan guruhning har bir a’zosining o‘zaro munosabatlarini aniqlash uchun uning faoliyatida kim bilan ishtirok etishi so‘raladi. Olingan ma’lumotlar matritsa, grafik, sxema, jadval, diagramma shaklida ifodalanadi. Ulardagi miqdor ko‘rsatkichlari guruhdagi odamlarning shaxslararo munosabatlari mazmuni yuzasidan ma’lum bir xulosa qiladi. Biroq ma’lumotlar guruhiy munosabatlarning tashqi ko‘rinishini aks ettiradi, xolos.

Uni takomillashtirish maqsadida hozirgi vaqtda psixolog olimlar Y.L. Kolominskiy va I.P. Volkov tomonidan sotsiometriyaning kichik guruhlar psixologiyasiga moslab o‘zgartirilgan variantlari, ko‘rinishlari ishlab chiqilganki, ular orqali shaxslarning bir-birini tanlashi motivlarini aniqlash mumkin. Ayniqsa sotsiometriyaning Y.L.Kolominskiy ishlab chiqqan o‘zgartirilgan varianti bolalar jamoasidagi shaxslararo munosabatlar to‘g‘risida to‘la axborot berishga yordam beradi.

Odatda o‘quvchilardan quyidagi savollarga javob berish talab qilinadi: «Siz sayohatga kim bilan borishni xohlaysiz?», «Mashg‘ulotlarga kim bilan tayyorlanishni istaysan?», «Kim bilan qo‘shni bo‘lib yashashni yoqtirasan?», sinaluvchi har uchta javobdan bittasini «eng ma’qul» deb tanlashi zarur.

Guruhiy tabaqalashni ko‘rsatish uchun sotsiogramma to‘rtta «maydonga» ajratiladi. Qizlar doiracha bilan, o‘g‘il bolalar esa uchburchaklar bilan belgilanadi. Doiracha va uchburchaklar soni familiyalar soniga to‘g‘ri keladi. Guruh a’zolarining o‘zaro munosabatlari doiracha va uchburchaklar strelkalar bilan bog‘langanida o‘z ifodasini topadi. Eng ko‘p munosabatga ega bo‘lgan sinaluvchi doiraning markazidan o‘rin oladi. U guruh a’zolarining eng

yoqimtoyi hisoblanadi. Shaxslar bilan aloqa o‘rnatmagan sinaluvchi doiraning eng chetidan joy oladi. Oraliqdagi maydonlarga o‘rtacha va undan kamroq tanlangan tekshiriluvchilar joylashtiriladi.

Shu yo‘l bilan birinchidan, shaxslararo munosabatlarning darajasi va ko‘lami aniqlanadi, ikkinchidan, qizlar bilan o‘g‘il bolalar o‘rtasidagi ko‘rsatkichlar taqqoslanadi. Natijalariga qarab guruhdagi munosabatlar va ularning o‘ziga xosligi, psixologik mexanizmlari, barqarorligi, puxtaligi, o‘zaro bir-birini taqozo etuvchanligi haqida xulosalar chiqariladi. Shu bilan birga nazariy va metodologik ahamiyatga molik g‘oyalar, qonuniyatlar ilgari suriladi, amaliy ko‘rsatmalar, aniq tavsiyalar bildiriladi, mavzuning tadqiqot istiqboli to‘g‘risida mulohazalar yuritiladi.

Shunday qilib, kasbiy etika va kommunikatsiya hozirgi kunda juda ko‘p metodlarga ega, biz tanishib chiqqan metodlar ularning asosiylari, bir qismi, xolos. Har bir tadqiqotchi o‘z tadqiqot obyektining xususiyatlari, tadqiqot maqsadi va mavzuiga qarab kerakli uslubni tanlaydi. Bunda metodlar to‘plami bilan to‘laligicha tanishish uchun maxsus adabiyotlar bilan ham tanishib chiqish maqsadga muvofiqdir.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Kasbiy etika va kommunikatsiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalarini ko‘rsatib o‘ting.
2. Kasbiy etika va kommunikatsiya fanining shakllanish bosqichlari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
3. Kasbiy etika va kommunikatsiya fanining jamiyatda tutgan o‘rni.
4. Fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligini izohlang.

## 2-mavzu: KASB-HUNAR EGALLASHNING IJTIMOIY VA TARIXIY MUAMMOLARI

**Reja:**

1. Buyuk ajdodlarimiz kasb-hunar to‘g‘risida.
2. Xorij mutafakkirlarining kasb etikasiga doir qarashlari.
3. Yoshlarni kasb tanlashga yo‘naltirish ijtimoiy voqelik sifatida.

**Darsning maqsadi:** *s*harq va xorij mutafakkirlarining kasb-hunar, etika, odob axloq haqidagi fikrlari. Ijtimoiy voqelikda kasbning paydo bo‘lishi va yoshlarni kasb tanlashdagi ahamiyati to‘g‘risida bilimlarni shakllantirish.

*Mavzuning tayanch so‘zlari:*

Kasb, zardushtiylik dini, estetik, axloq, nafosat, pragmatizm, neopozitivizm, pozitivizm.

### 2.1. Buyuk ajdodlarimiz kasb-hunar to‘g‘risida

Kasb-hunar egalari qadimdan e’zozlanib kelingan. Bizning davlatimizda o‘zligimizni anglash tufayli bilimdon, mustaqil fikrlovchi, yuqori malakali, ma’naviyatli, mohir kasb egalari, tobora ko‘proq talab qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi hukumati qaror va Nizomlarida mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasiga katta e’tibor berilmoqda. Shu bilan birga tor sohadagi kasbdan asta-sekin keng qamrovli universal kasbga o‘tish muammosi, g‘oyasi ilgari surilmoqda. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ko‘rsatib o‘tilganidek, mehnat va kasbiy tayyorgarlik sifatini yanada yaxshilash, uzluksiz ta’limning faol metodlarini qo‘llash, yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq etish, ta’lim va tarbiya birligi tamoyilini sobitqadamlik bilan amalga oshirish lozim.

Sharq mutafakkirlari ta’limotida o‘g‘il va qizlarga ta’lim va tarbiya berish, ularga kasb-hunar o‘rgatish g‘oyasi muhim o‘rin egallaydi. Qadimiy an’analarimizga binoan hunarmand va kasb, me’mor va naqqosh, dehqon va chorvador, to‘quvchi va nonvoy ustoz-shogird munosabatlarini amalga oshirib kelmoqdalar. Dono xalqimiz «Hunarli kishi aslo xor bo‘lmas», «Ta’lim bergan us-

tozingdan ayrilma» singari maqolalarni ijod etganlar va farzandlarimizning barkamol bo‘lib ulg‘ayishini orzu qilganlar.

Axloqiy ta’limotlar nafaqat qadimgi Misr, Hindiston, Xitoy, Rim va Gretsiyada, balki bizning vatanimizda ham juda-juda qadim zamonlardayoq paydo bo‘lgan. Ildizi qadim zamonlarga borib taqaladigan axloqiy ta’limotlardan biri zardushtiylikdir.

Zardushtiylik dinining asoschisi eramizdan oldingi 589–512-yillarda yashagan Zardusht Spitama hisoblanadi. Bu dinning muqaddas kitobi «Avesto»dir. Zardushtiylikdagi estetik qarashlar Axura Mazdaga xizmat qiluvchi xudolar va ularning bajaradigan vazifalari orqali ifodalangan. Masalan, quyosh va yorug‘lik xudosi Mitra yer-u ko‘kda kezib, zulmat xudosi Axriman bilan kurashuvchi ulug‘vor va bahodir yigit sifatida tasvirlansa, obodonchilik va farovonlik xudosi bo‘lgan Anaxit nafis libos kiygan go‘zal ayol qiyofasida namoyon bo‘ladi. Xumo – baxt, tole va davlat xudosi. U boshi, tanasi va qanotlari oltin, kumush hamda boshqa qimmatbaho toshlardan bo‘lgan chiroyli qush bo‘lib, kimga soya solsa, o‘shanga baxt keltiradi. Shuning uchun ham bu afsonaviy qushning tasviri mamlakatimiz gerbida o‘z aksini topgan.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, qadimgi mutafakkirlar axloqni odamni baxtga erishtiruvchi vosita deb bilganlar, axloqning aniq dunyoviy asoslarini topishga uringanlar.

VIII–IX asr boshlarida arab xalifaligining madaniy markazlari bo‘lgan Bag‘dod va Damashq shaharlarida ilm-fan rivoji kuchayib ketdi. Buning sababi, bir tomondan, qadimgi Yunoniston mutafakkirlari (Aristotel, Galen, Gippokrat, Arximed va h.k.) ilmiy merosining kirib kelganligi bo‘lsa; ikkinchi tomondan, qadimgi Xitoy va Hindiston olimlarining asarlari orqali ushbu mamlakatlar fan va madaniyatining keng yoyilishi, ularning arab mamlakatlari, So‘g‘d, Xorazm, Xuroson kabi o‘lkalarda rivoj topgan fan va madaniyat bilan uzviy ravishda qo‘shilib ketishi bo‘ldi. Bu oxir-oqibatda Sharq Uyg‘onish davrining boshlanishi uchun zamin tayyorladi. Ana shu zamin asosida Markaziy Osiyoda Buxoriy, Termiziy, Nasafiy, Xorazmiy, Farg‘oniy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Roziy kabi bir qator mashhur allomalar yetishib chiqdilar.

**Forobiy.** Uyg‘onish davrining birinchi bosqichida ijod qilgan Sharq allomalaridan biri, atoqli faylasuf va axloqshunos olim Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn O‘zlug ibn Tarxon Forobiydir (873–950). Sharqda «Ikkinchi muallim» deb tan olingan bu alloma o‘zining «Fozil odamlar shahri», «Davlat arbobining hikmatlari», «Baxt-saodatga erishuv haqida» kabi bir qator asarlari bilan axloq ilmini rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shgan.

Forobiy kasb axloqining kelib chiqishi, xususiyatlari va uni hayotga tatbiq etish borasida quyidagi g‘oyalarni ilgari suradi: «Insonning kasb-hunar va san’atdagi fazilatlariga kelsak, bu fazilat tug‘ma emasdir. Agar kasb-hunar fazilati tug‘ma bo‘lganda, podshohlar ham o‘zlari istab va harakat qilib emas, balki podshohlik faqat tabiiy ravishda muyassar bo‘lgan, tabiat talab qilgan tabiiy majburiyat bo‘lib qolar edi. Nazariy va buyuk fikriy fazilat, ulug‘ tug‘ma fazilat va kasb-hunar fazilati odat-malaka bo‘lib qolgan odamlarda bu fazilatlar irodani hosil qilishning va odatga aylantirishning sababi bo‘ladi. Bunday odamlar cheksiz va juda kuchli tabiat va iroda egalaridir. Xalqlarda axloq, odob, rasm-rusum, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilish uchun insondan zo‘r kuch va qudrat talab qilinadi. Bu ikki yo‘l bilan, ya’ni ta’lim va tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi. Ta’lim so‘z va o‘rgatish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan bo‘ladi».

Masalan, **Burhoniddin Marg‘inoniy** yozadiki: qasam uch turlidir: birinchisi – hamus; ikkinchisi – mun’aqid; uchinchisi – laqv. Hamus qasam – bir ishni bir zamonda «qilganman» yoki «qilmaganman» deb, qasddan yolg‘on qasam ichishdir. Bunday qasam ichish bilan odam qattiq gunohkor bo‘ladi, shuning uchun ham payg‘ambarimiz: «Kim yolg‘ondakam qasam ichsa, uni Alloh do‘zaxga hukm qiladi», – deb yozgan edi. Bayon etganlarga xulosa yasab aytish mumkinki, Burhoniddin Marg‘inoniy musulmon huquqshunosligining asoschilaridan biri sifatida axloq va huquq ilmining rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi, ammo ularni bir-birlaridan ajratmadi.

Buyuk qomusiy olim sifatida barcha hodisalarning mohiyatini ilmiy jihatdan ochib berishga harakat qilgan sharq mutafakkirlaridan biri – **Abu Ali ibn Sino**ning pedagogik va psixologik qarash-

lari ilmiy asosda qurilgan bo‘lib, bolaning fe’l-atvori va tasavvurlarini shakllantirishda umuminsoniy g‘oyalar qo‘llanishini yaratgan hamda murabbiy, ota-onalarga uni qattiq tan jazosidan ko‘ra, shaxsiy ibrat orqali voyaga yetkazish ma’qulligini ko‘rsatgan. Mutafakkirning «Donishnoma», «Risolai ishq», «Uy xo‘jaligi», «Tib qonunlari» asarlari mamlakatimizning xalqlari odob-axloq psixologiyasi va tabobat olamida alohida o‘rin tutadi.

Axloq haqidagi juda ko‘p qimmatli fikrlarni Ahmad Yugnakiy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib kabi mutafakkirlarning asarlarida uchratishimiz mumkin.

### 2.2. Xorij mutafakkirlarining kasb etikasiga doir qarashlari

**Qadimgi davr mutafakkirlarining kasb axloqiga doir qarashlari.** Kishilik jamiyatining ilk davrlarida insonlarning turli kasb va hunar egalarining, tabaqalarning, sinflarning haq-huquqlarini asosan podsholar, vazirlar, lashkarboshilar, urug‘ va qabila oqsoqollari himoya qilganlar. Shuning uchun ham qadimgi davr mutafakkirlari ularning axloqiy fazilatlari to‘g‘risida nihoyatda qimmatli fikrlarni bildirganlar va yozib qoldirganlar.

Bular to‘g‘risidagi dastlabki axloqiy ta’limotlar qadimgi Sharq mamlakatlari – Misr, Bobil, Falastin, Xitoy, Hindistonda va Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan.

Qadimgi Misrda kasb axloqini yorituvchi pandnomalar yaratilib, ularda odob qoidalarini bilishning afzalliklari ko‘rsatib o‘tilgan. Ularda, masalan, mo‘tadillik va kamtarlik odobli odamning eng go‘zal fazilatlari deb qaralgan.

Bunday fikrlarni qadimgi Hindistonda vujudga kelgan braxmanizm, jaynizm, buddizm hamda qadimgi Xitoyda shakllangan konfutsiylik, daosizm ta’limotlarida ham ko‘plab uchratish mumkin.

Axloq va nafosat to‘g‘risidagi birmuncha aniq ifodalangan qarashlarni qadimgi Gretsiya va Rim (er. av. VII–VI asrlar)da ko‘rish mumkin.

**Suqrot.** Suqrot (Sokrat) eramizdan oldingi 469–399-yillarda yashab o‘tgan yunon faylasufi bo‘lib, kasb axloqi va estetik tafakkuri to‘g‘risida birmuncha oqilona fikrlarni bayon qilgan. Masalan, uning fikricha, jasurlik ayni vaqtda donolikdir, ya’ni

xavf-xatarni va xavfsizlikni o‘z vaqtida bilib, anglab olishdir. Mardlik qo‘rquvni daf qilishni, donolik qonunlariga rioya qilishni, mo‘tadillik – o‘z hissiyotlariga erk bermaslikni, adolat yaxshilik qilishni anglatadi.

Suqrot o‘zining estetik qarashlarida go‘zallik koinotdan inson turmushiga, uning ichki kechinmalariga ko‘chirilganligi, estetik tasavvurning nisbiyligi to‘g‘risidagi g‘oyalarni ilgari suradi.

**Aflotun.** Aflotun (Platon) eramizdan oldingi 427–347-yillarda yashagan yunon faylasuflaridan bo‘lib, o‘zining «Davlat», «Siyosatchi» va «Qonunlar» nomli asarlarida axloq va estetik tafakkur haqidagi qarashlarini bayon etgan. Aflotunning fikricha, olamning asosida «g‘oyalar dunyosi» yotadi. Eng oliy g‘oya yaxshilik, baxt g‘oyasi xudodir.

Aflotun o‘zining «ideal davlat» haqidagi g‘oyalarini ilgari surar ekan, undagi yaxshi fazilatli odamlarning kasb-hunar axloqi to‘g‘risida ham juda ko‘p qimmatli fikrlarni bildiradi. Masalan, uning fikricha, har bir odam o‘z ishini qilishi kerak, boshqalarning kasbi sohasidagi ishlariga aralashmasligi zarur; ideal davlatni boshqaruvchi shaxs to‘rt yaxshi xislatga: donolik, jasurlik, muvozanatni saqlab turish, odillik kabi axloqiy fazilatlarga ega bo‘lishi kerak.

Aflotun o‘zining falsafiy qarashlarida estetikani go‘zallik, san’at falsafasi tarzida talqin etadi, nafosatning manbaini «g‘oyalar» tashkil etadi, uning yoritib turuvchilik kuchi go‘zallikni kashf etadi, uni faqat his-tuyg‘u bilan emas, balki aql-idrok orqali anglash mumkin, deb hisoblaydi.

**Arastu.** Arastu (Aristotel) eramizdan oldingi 384–322-yillarda yashagan eng buyuk yunon mutafakkirlaridan biridir. U o‘zining «Nikoh etikasi», «Evdem etikasi», «Katta etika» va «Siyosat» nomli asarlarida axloqiy tushunchalarni tahlil qilib, ulardagi umumiylikni topishga harakat qiladi, etika tushunchalarining ilmiy tasnifini ishlab chiqadi.

Arastu o‘zining «Siyosatchi» nomli asarida axloqning jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlab: «Tabiat inson qo‘liga qurol – aqliy va axloqiy kuch bergan, ammo u shu qurolni teskari tomonga nisbatan ham ishlatishi mumkin; shu sababli axloqiy tayanchlari bo‘lmagan odam eng insofsiz va yov-

voyi, o‘zining jinsiy va did mayllarida eng tuban mavjudod bo‘lib qoladi», – deb yozgan edi.

Arastuning fikricha, insoniy fazilatlar hayotda to‘g‘ri yo‘l topish, yaxshilikning makonini aniqlab olishdir. Barcha axloqiy fazilatlar – adolat, do‘stlik, muhabbat, mardlik, saxiylik va boshqalar faqat inson faoliyatida namoyon bo‘ladi. Odam adolatli ishlarni bajarish bilan adolatli bo‘lib boradi, mardona harakatlarni amalga oshirish orqali mard bo‘lib boradi.

Arastu o‘zining estetik qarashlarini bayon qilishda, nafosat asosini moddiy dunyodagi narsalar tashkil qiladi, nafosat ana shu narsalarning tartiblilik, aniqlik, uyg‘unlik, yaxlitlik xossalarida namoyon bo‘ladi, degan bir qator ijobiy fikrlarni olg‘a suradi.

**Yangi davrda vujudga kelgan va hozirgi zamonda mavjud bo‘lgan axloqiy ta’limotlar va ularning asosiy yo‘nalishlari.** Yangi davrda vujudga kelgan axloqiy va estetik ta’limotlar orasida I. Kant, V. Gegel, L. Feyerbax, K. Marks va F. Engelslarning axloqiy va estetik qarashlari, g‘oya va nazariyalari alohida ajralib turadi.

**Kant.** Immanuil Kant (1724–1804) nemis klassik falsafasining asoschilaridan biri bo‘lib, o‘zining «Amaliy aqlni tanqid», «Odoblar metafizikasi», «Antropologiya» kabi asarlarida etika nazariyasi masalalari haqida fikr yuritib, uni falsafaning maxsus qismi deb hisoblaydi.

Kantning fikricha, etika ikki qismdan – burch haqidagi ta’limotdan va burchning amaliyotga tatbiq qilinishidan iboratdir. Etikani bunday bo‘lish uningcha insonni ikki xil tushunishidan kelib chiqadi. Uningcha, inson ikki qismga bo‘linadi: bir tomondan, inson tabiatning bir qismi bo‘lib, tabiat qonunlariga bo‘ysunadi, uning xulq-atvori ham tabiat qonunlari bilan belgilanadi; ikkinchi tomondan, inson – axloqiy vujud, shuning uchun u faqat axloqiy burchga bo‘ysunadi.

**Gegel.** Nemis klassik falsafasining eng mashhur namoyandalaridan bo‘lgan Georg Vilgelm Fridrix Gegel (1770–1831) o‘zining axloqiy masalalarga doir qarashlarini «Ruh fenomenologiyasi» va «Huquq filosofiyasi» asarlarida bayon etgan.

Gegel axloq shaxsning xususiy ishi emas, balki hamma uchun umumiy qonundir, degan fikrga tayangan holda, odam-

ning ma'naviy dunyosi uning xatti-harakatlarini belgilaydi, degan g'oyani ilgari suradi.

Gegelning axloqshunoslik fanlari sohasidagi xizmati shundaki, u etika kategoriyalarining mazmunini va mohiyatini ochib bergan. Masalan, u etikaning asosiy kategoriyalari bo'lmish «vijdon», «yaxshilik», «yomonlik» haqida fikr yuritib: «Yaxshilik – kishi shaxsiy individual axloqining umumiy **iroda** bilan garmonik uzviy birligi, yomonlik – shaxs irodasining umumiy irodaga mos kelmasligidir. Yomonlik – yaxshilik singari irodada o'z manbaini topadi, iroda esa o'z ma'nosida yaxshilikni ifodalasa, yomonlikni ham shu qadar ifodalaydi», – deydi. Bundan tashqari, Gegel etika faniga insonlarning vijdon erkinligi haqidagi ta'limotini ham kiritadi. Bu xususda u «vijdon erkinligi axloqiylikning zaruriy sharti va asosidir», degan fikrni ilgari surgan edi.

Hozirgi zamon axloqiy va estetik tafakkurining asosiy yo'nalishlarini o'zida ifodalovchi oqimlar pozitivizm, neopozitizm, pragmatizm, ekzistensializm, neotomizm, strukturalizm va boshqalar hisoblanadi.

**Pozitivizm.** Pozitivizm lotincha «rozitivizium» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «ijobiy» degan ma'noni bildiradi. Bu oqimning asoschisi fransuz faylasufi O.Kant hisoblanadi. Pozitivizm vakillarining fikricha, voqelik haqidagi haqiqiy, ijobiy («pozitiv») bilimlar alohida maxsus fanlar yoki ularning sintetik birlashtirilishi natijasida olinadi; shunga ko'ra, falsafaning voqelikni tahlil qiluvchi, o'rganuvchi maxsus fan sifatida mavjud bo'lishga haqqi yo'q.

Etika masalasida **neopozitivizm** axloqning manbai ijtimoiy borliqda emas, balki insonning o'zida, uning his-tuyg'ularida, aniqrog'i so'zidadir, deb tushuntiradi. Ularni mantiqan muhokama qilish va tekshirish, pozitivistlar fikricha, etikaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu esa kishilar o'rtasidagi har xil janjallarni tugatib, osoyishtalikni qaror toptiradi. Aslida yomonlik haqidagi so'zlarni iste'moldan chiqarib tashlash bilan yomonlik yo'q bo'lib ketmaydi.

**Pragmatizm.** «Pragmatizm» tushunchasi yunoncha «pragmatizium» (ish, harakat) so'zidan kelib chiqqan bo'lib AQSHda yuzaga kelgan falsafiy va axloqiy ta'limot nomidir. Pragmatizm vakillari o'z axloqiy qarashlarini insonni faol shakllanayotgan reallik

deb bilgan holda bayon qiladilar. Xo‘sh, pragmatizm etikasining asosiy qoidalari nimalardan iborat. Uning bosh postulati takrorlanmas, noyob va shu sababli har gal kishidan mutlaqo yangicha yechim, xulqni talab etadigan axloqiy vaziyat haqidagi qoidadir. Shunga ko‘ra, xulqni tanlash muayyan vaziyatda muvaffaqiyatni ta’minlaydigan vositalarni tanlashdir.

Pragmatiklar etika kategoriyalari haqida fikr yuritib, muayyan vaziyatda foyda keltiradigan hamma narsa yaxshilikdir, degan qoidani ilgari suradi. Bu oqimning vakillari Ch.Pirs, U. Jeyms va boshqalar hisoblanadilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pragmatizm ta’limotiga ko‘ra, foyda keltiradigan hamma narsalar axloqiydir, foydasi tegmaganlari esa axloqsizlikdir.

Pragmatizmning estetikasini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu oqimning vakili bo‘lgan Jon Dyui (1859–1952) fikricha, nafosatning o‘zagi tajribalardan tashkil topadi; inson va dunyodagi mukammallik estetikaning boshlang‘ichi bo‘lsa, estetik qadriyatlar tajribani garmonik shaklda tashkil etishdir; san’atning asosiy vazifasi odamga huzur bag‘ishlashdan iboratdir.

## 2.3. Yoshlarni kasb tanlashga yo‘naltirish ijtimoiy voqelik sifatida

Respublikamiz aholisining aksariyati agar xo‘jalik sohasi bilan shug‘ullanayotganligi tufayli uning tarmoqlariga oid mutaxassislarni tayyorlash uchun kasbning psixologik xususiyatlari, mehnat ko‘nikmalari va malakalari bilan bo‘lg‘usi ixtisos egalarini qurollantirish muhim ijtimoiy vazifalardan biridir. Bo‘lg‘usi agronomni kasbiy tayyorlash, kasb-hunar oldiga qo‘yiladigan talablarga mutanosib insonlar qilib shakllantirish davlat ahamiyatiga molik muammo bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekistonning issiq iqlim sharoitining biologik-tibbiy jihatlari birmuncha o‘rganilganligiga qaramay, ularning mexanizmlari, akseleratsiya hodisasi, qishloq aholisining jismoniy rivojlanishi, mehnatkashlarning issiq sharoitga moslashishlari, mehnatni tashkil qilishning oqilona yo‘llari, mehnat unumdorligini oshirishning samarali usullari, ekologiyaning o‘zgarishiga o‘xshash muammolar qariyb o‘rganilmagan.

Ijtimoiy taraqqiyotni ro‘yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni jahon

standartlari darajasiga ko‘tarmoq lozim, fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o‘z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan raqobatbardosh mahsulotlar yaratuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz. Toki ular davr talablariga og‘ishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta izlanuvchan, mehnatsevar, vatanparvar, iymon-e’tiqodli insonlar bo‘lib voyaga yetishishsin.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, o‘rta maktab o‘quvchilarining hammasi kasb tanlashga kelganda oqilona va to‘g‘ri yo‘l tutadi, deb bo‘lmaydi, albatta. Ulardan ba’zilari tavakkalliga ish tutsalar, ayrimlari ota-ona kasbini tanlaydilar yoki ko‘zga tashlanib turgan, yaqqol namunalarga taqlid qiladilar, goho sevimli kishilari izidan borishni mo‘ljallaydilar.

Ko‘pchilik o‘quvchilar ta’lim jarayonida fan asoslarini egallab, muayyan tasavvur hosil qiladilar, o‘zlari yoqtirgan kasb-hunarlar haqida o‘ylaydilar.

Maktab o‘quvchilarining mayllari, havaslari, intilishlari, xohishlari, motivlari, ezgu niyatlari xususan kasbkorga bo‘lgan qiziqishlari, motivlari, intilishlari tug‘ilishi psixologiya fanining shaxs muammosi bilan uzviy bog‘liqdir. Shaxs II. ixologiyasini o‘rganish o‘quvchilarni kasb tanlashi demakdir. O‘quvchilarning individual tipologik xususiyatlari, yoshi va jinsini hisobga olgan holda ularning har birini oqilona kasbga yo‘llash shaxs psixologiyasining muhim vazifalaridan biridir. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish to‘g‘risidagi hujjatlarda o‘quvchilarni mustaqil kasb tanlashga (o‘z imkoniyatlarini o‘zi baholash orqali) o‘rgatish juda muhim va zarur vazifa ekanligi ta’kidlanadi.

Shunga ko‘ra psixolog olimlar, metodistlar, tashxis markazi xodimlari keng jamoatchilik bilan birgalikda kasbga doir bilimlarni keng tashviqot qilishlari, kasb-kor tanlashga oid yo‘l-yo‘riqlar va metodlar ishlab chiqishlari, kasb tanlash maslahatlari rasmiy shoxobchalari kengaytirilishi, professiogramma, professiografiya, psixogrammalar ko‘lami orttirilishi lozim. Bu borada Respublika tashxis markazining 2003-yil ma’lumotlari juda qiziqarli va ba’zan munozaralidir. Bularni quyidagi raqamlarda ham ko‘rish mumkin:

Respublika bo‘yicha 9-sinflarni bitirgan o‘quvchilarning 8,0%ga sanoat yo‘nalishlariga yo‘llanma berilgan bo‘lsa, ularning atigi 3% o‘qishga joylashgan. Sog‘liqni saqlash sohalariga esa 12,6% yo‘llanma berilgan bo‘lsa, amalda ularning 4,8% o‘qishga kirgan. Maorif sohalariga esa 9,6% yo‘llanma berilgan bo‘lib, ularning 4,0%gina o‘qishga joylashgan («Maktab va hayot» jurnaliga ilova 2003-yil, 24–39 betlar).

Keyingi yillarda o‘tkazilgan kuzatishlar Respublikamizda yoshlarni kasbga yo‘llash sohasida talay kamchiliklar borligini ko‘rsatdi. Buni biz viloyatlar kesimida hamda Respublika bo‘yicha 9-sinf bitiruvchilariga sohalar bo‘yicha tavsiyanomalar berishda ko‘rdik.

Darhaqiqat, maktabda o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis ishlarini amalga oshirishdagi dastlabki qadamlar boshlandi. O‘ylaymizki, ana shu dastlabki qadam maktablarda kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini olib boruvchi mutaxassis hamda o‘quvchilarning kasb-hunarga qiziqishi, moyilligi va layoqatini aniqlash bilan shug‘ullanadigan maktab amaliyotchi psixologi shtatlarini tashkil etishdan iborat bo‘lishi lozim. Chunki, bu mutaxassislarsiz maktabda mazkur ishlar haqida gapirish ham mumkin emas. Maktabda olib borilayotgan kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis ishlarining samarasi bevosita shu ikki mutaxassisning olib borayotgan ishlari ko‘lami, ularning saviyasi va malaka ko‘rsatkichi hamda faoliyatining aniqligiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘lishi barchamizga ayondir.

Ommaviy kasblarga bag‘ishlangan o‘quv-uslubiy adabiyotlar va kasb-hunar to‘g‘risidagi kinofilmlar, spravochniklar kamligi, psixologik-diagnostik tadqiqotlar o‘tkazishga yordam beradigan zamonaviy apparat va asboblar bilan ta’minlash yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi, shaxsning muayyan kasbga yaroqliligini aniqlash borasida ilmiy-tadqiqot ishlari yetarlicha olib borilmayotganligi shunday kamchiliklar jumlasiga kiradi.

O‘quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasb-hunarini o‘z qobiliyatlariga yarasha to‘g‘ri tanlashlariga erishish uchun maktab o‘qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, didaktik (shuningdek, akademik, tashkilotchilik, perseitiv va h.k.) qobiliyatlari yuksak bo‘lishi, fan asoslarini tur-

mush bilan bog‘lab o‘rganilishi, to‘garak va qo‘shimcha, yordamchi kurslar oqilona uyushtirilishi, maktablarda kasb-hunar to‘g‘risida ma’ruzalar o‘qilishi, suhbatlar, munozaralar o‘tkazilishi zarur.

Shuni ham aytib o‘tish o‘rinliki, maktab o‘quvchilari kasb tanlash borasidagi o‘z qarorlarini, ko‘pincha, har tomonlama dalillab bera olmaydilar, biroq ularning ko‘pchiligi bu masalaga ongli ravishda yondashishga intiladilar. Maktabdagi kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining samarali bo‘lishini maktabning kasb-hunarga yo‘naltirish xonasisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Maktabning kasb-hunarga yo‘naltirish xonasi «Uquvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish xonasi to‘g‘risidagi Nizom» asosida tashkil etiladi va jihozlanadi. Mazkur nizomda maktab kasb-hunarga yo‘naltirish xonasining vazifalari, unda o‘tkaziladigan tadbirlar, stend va unda qanday ma’lumotlar bo‘lishligi haqida aytib o‘tilgan. Maktabning kasb-hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassisi mazkur xonaning mudiri hisoblanadi. Maktab kasb-hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassisining asosiy vazifasi o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishni ta’minlovchi ma’lumotlar bankini yaratishdan iborat. Shu maqsadni ko‘zlab hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassis tuman (shahar) tashxis Markazidan olgan kasbiy axborotlar, kasblarga bo‘lgan ehtiyoj va boshqa kasbiy tashxis metodikalari, tavsiya va yo‘riqnomalardan foydalaniladi. Maktab kasb-hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassisi tomonidan o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish, kasblar haqidagi ma’lumotlarni to‘liqroq anglab yetish, shuningdek, ularning kasb tanlashdagi reallikni vujudga keltirish maqsadida maktabda ilg‘or kasb vakillari, kasb fahriylari, kasb sulolalari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, kechalar va ma’ruzalar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu tadbirlar o‘quvchining shu kasbga bo‘lgan qiziqishini yanada qat’iylashishini vujudga keltiradi.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Kasb etikasining shakllanishi to‘g‘risida buyuk allomalarimizning qarashlari.
2. Xorijiy mutafakkirlarning kasb etikasi borasidagi fikrlari.
3. Yoshlarni kasb tanlashga yo‘naltirish nimalardan iborat?

## 3-mavzu: SHAXS PSIXOLOGIYASI VA KASB ETIKASINING SHAKLLANISHI

**Reja:**

1. Shaxs ijtimoiylashuvi muammosi.
2. Shaxsning «Men» obrazi va o‘z-o‘ziga baho berishi muammosi.
3. Shaxs dunyoqarashini va e’tiqodini o‘zgartiruvchi omillar.

**Darsning maqsadi** shaxs, individ, individuallik, shaxs borasidagi psixologik nazariyalar, shaxs faolligining manbalari, shaxsning malaka va odatlari haqidagi bilimlarni shakllantirish.

***Mavzuning tayanch so‘zlari:***

shaxs, ijtimoiylashuv, attraksiya, motiv, konformizm empatiya, ustanovka, altruizm, etnotsentrizm, «Men» obrazi, dunyoqarash, e’tiqod.

### 3.1. Shaxs ijtimoiylashuvi muammosi

Muloqot jarayonining ham, guruhiy jarayonlarning ham egasi—subyekti hamda obyekti aslida alohida shaxs, konkret odamdir. Shuning uchun ham kasb etikasi va kommunikatsiya fani alohida shaxs muammosini ham o‘rgandiki, uni o‘sha turli ijtimoiy jarayonlarning ishtirokchisi va faol amalga oshiruvchisi degan nuqtayi nazardan tekshiradi. Ma’lumki, shaxs muammosi umumiy psixologiyada ham, yosh psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, kasbiy psixologiya va pedagogik psixologiyada ham, differensial, huquqiy psixologiya va psixologiyaning qator maxsus bo‘limlarida ham o‘rganiladi. Har bir bo‘lim yoki tarmoq uni o‘z mavzui va vazifalari nuqtayi nazaridan shaxsga taalluqli bo‘lgan muammolarni yoritadi. Masalan, umumiy psixologiya shaxsni psixologik faoliyatning mahsuli, alohida psixik jarayonlarning egasi deb hisoblasa, sotsiologiya uni ijtimoiy munosabatlarning obyekti deb qaraydi.

Shaxs muammosiga ijtimoiy-psixologik yondashishning o‘ziga xosligi shundaki, u turli guruhlar bilan bo‘ladigan turli shakldagi o‘zaro munosabatlarning oqibati sifatida qarala-

di. Ya'ni, kasb etikasi va kommunikatsiya fani avvalo biror guruhning a'zosi hisoblangan shaxs xulq-atvori qanday qonuniyatlarga bo'ysunishini, shaxsning muloqotlar sistemasida olgan ta'sirlari uning ongida qanday aks topishini o'rganadi. Guruhning shaxs psixologiyasiga ta'siri qay yo'sinda sodir bo'lishi ijtimoiy psixologiyada sotsializatsiya muammosi bilan uzviy bog'liq bo'lsa, bu ta'sirlarning shaxs xatti-harakatlari, xulqida bevosita qanday namoyon bo'lishi ijtimoiy yo'l-yo'riqlar muammosi bilan bog'liqdir. Ana shular asosida shaxsda shakllanadigan fazilatlar va ularning turli tipdagi shaxslarda namoyon bo'lishini aniqlagan holda, shaxs xulq-atvorini boshqarish, mexanizmlarini ishlab chiqish ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifalaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, shaxsga sotsial-psixologik yondashish uni ma'lum guruhlarning a'zosi, konkret sharoitida o'ziga o'xshash shaxslar bilan muloqotga kirishuvchi konkret odam deb tushunishdir.

Shaxs sotsializatsiyasi to'g'risida gap ketarkan, uning fanda ko'pincha «shaxs taraqqiyoti» yoki «tarbiyasi» tushunchalari bilan sinonimdek ishlatilishiga alohida e'tibor berish kerak. Lekin sotsializatsiya sof ijtimoiy-psixologik tushuncha bo'lib, aytib o'tilgan tushunchalardan farq qiladi. **Sotsializatsiya** – bu individning ijtimoiy muhitga qo'shilishi, ijtimoiy ta'sirlarni o'ziga singdirishi va aktiv ravishda muloqot sistemasiga kirib borishi jarayonidir. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib, bir tomondan, shaxs aktiv ravishda ijtimoiy ta'sirlarni qabul qiladi, ikkinchi tomondan esa, ularni hayotda o'z xulq-atvorlari, munosabatlarida namoyon etadi. Bu jarayon normal individda tabiiy tarzda ro'y beradi, chunki individda shaxs bo'lishga ehtiyoj hamda shaxs bo'lishiga imkoniyat va zaruriyat bordir. Shuning uchun ham bola tug'ilib, ijtimoiy muhitga qo'shilgan ondan boshlab, undagi shaxs bo'lishga intilishni, undagi shakllanish jarayonini kuzatish mumkin (masalan, chaqaloqlardagi bevosita emotsional muloqotga ehtiyojning borligi).

Shaxs sotsializatsiyasi yoki shakllanishining o'z sohasi, bosqichlari va muassasalari mavjud.

Shaxsning shakllanishi asosan uch sohada amalga oshiriladi:

1) faoliyat sohasi, ya'ni umri mobaynida shaxs turli faoliyatlarga bevosita yoki bilvosita jalb etilgan bo'lib, bu jarayonda faoliyatlar katalogi kengayib, boyib boraveradi. Har bir faoliyat turi individdan maxsus fazilatlarni, malaka va ko'nikmalarni, bilimlarni talab etadiki, ularni ko'niktirish yo'lidagi aktivligi unda o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlar kompleksini shakllantiradi;

2) muloqot sohasi, ayniqsa maktabgacha yosh davrdagi va o'smirlik davrlaridagi muloqot sistemalari bolada bir qancha ijtimoiy-psixologik xislatlarni paydo qiladiki, buning natijasida u faol hayotiy mavqega ega bo'ladi, jamiyatda o'z o'rnini tasavvur qilishga erishadi;

3) o'z-o'zini anglash sohasi, ya'ni «Men» obrazining yil sayin o'zgarib borishi jarayoni bo'lib, avval o'zini boshqalardan farqliligini, o'zicha mustaqil harakat qilish, mustaqil fikr yurita olish qobiliyatini anglash, so'ngra esa o'z-o'zini baholash, anglash, nazorat qilish xususiyatlari rivojlanadiki, ular ham faol shaxs psixologiyasining tarkibiy qismidir.

Shaxs sotsializatsiyasi, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bola tug'ilishi bilan boshlansa-da, sezilarli samaradorlik nuqtayi nazaridan uning bosqichlari farqlanadi. Masalan, birinchi bosqich mehnat faoliyatigacha bo'lgan bosqich bo'lib, unga bolaning maktabgacha davri hamda o'qish yillari kiradi. Bu davrdagi sotsializatsiyaning ahamiyati va o'ziga xosligi shundaki, bu davrda asosan tashqi ijtimoiy muhit, ijtimoiy ta'sirlar faol ravishda ongga singdiriladi, mustaqil hayotga tayyorgarlik borasida muhim bosqich o'tiladi.

Ikkinchi bosqich – mehnat faoliyati davri – bu davr odamning yetuklik yillari bilan bog'liq bo'lib, avvalgi davrlarda singdirgan ijtimoiy ta'sirlarni bevosita faol faoliyatda, shaxslararo munosabatlar sistemasida namoyon etadi. Kasbga ega bo'lib, aniq hayot yo'lini tanlagan, turmush qurib, kelgusi avlodni tarbiyalayotgan shaxsda namoyon bo'ladigan barcha ijtimoiy fazilatlar shu davrning mahsulidir. Nihoyat, uchinchi davr – mehnat faoliyatidan keyingi davr bo'lib, bunga asosan aktiv mehnat faoliyatidan so'ng qarilik gashtini surayotganlar kiradi. Bu davrda ham shaxs sotsializatsiyasi davom etaveradi, chunki endi ilgarigi davrlarda

orttirilgan tajriba boshqalarga uzatiladi, shunga ko‘ra shaxs strukturasida ham xususiy o‘zgarishlar ro‘y beradi.

Sotsializatsiya jarayoni ro‘y beradigan sharoitlar – muassasalar xususida gapiriladigan bo‘lsa, turli davrlarda oila, bolalar muassasalari, maktab, boshqa o‘quv dargohlari, mehnat jamoalarining roli nazarda tutiladi.

**Ijtimoiylashuv jarayonidagi muomala va muloqotning psixologik vositalari.** Odamlar bir-birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko‘zlagan maqsadlaridan biri – o‘zaro bir-birlariga ta’sir ko‘rsatish, ya’ni fikr-g‘oyalariga ko‘ndirish, harakatga chorlash, ustanovkalarni o‘zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir. Psixologik ta’sir bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsata olishdir.

Ijtimoiy psixologiyada psixologik ta’sirning asosan uch vositasi farqlanadi.

*Verbal ta’sir* bu so‘z va nutqimiz orqali ko‘rsatadigan ta’sirimizdir. Bundagi asosiy vositalar so‘zlardir. Ma’lumki, nutq bu so‘zlashuv, o‘zaro muomala jarayoni bo‘lib, uning vositasi so‘zlar hisoblanadi. Monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham odam o‘zidagi barcha so‘zlar zaxirasidan foydalanib, eng ta’sirchan so‘zlarni topib, sherigiga ta’sir ko‘rsatishni xohlaydi.

*Paralingvistik ta’sir* bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyatsiya, tovushlar, to‘xtashlar, duduqlanish, yo‘tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi. Shunga qarab, masalan, do‘stimiz bizga biror narsani va’da berayotgan bo‘lsa, biz uning qay darajada samimiyligini bilib olamiz. Kuyib-pishib, ochiq yuz va dadil ovoz bilan «Albatta bajaraman!» desa ishonamiz, albatta.

*Noverbal ta’sir*ning ma’nosi «nutqsiz» dir. Bunga suhbatdoshlarning fazoda bir-birlariga nisbatan tutgan o‘rinlari, holatlari (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi. Masalan, agar

uchrashuvning dastlabki daqiqalarida o‘rtog‘ingiz sizga qaramay, atrofga alanglab, «Ko‘rganimdan biram xursandman», desa, ishonasizmi?

Muloqot jarayonidagi xarakterli narsa shundaki, suhbatdoshlar bir-birlariga ta’sir ko‘rsatmoqchi bo‘lishganda, dastavval nima deyish, qanday so‘zlar vositasida ta’sir etishni o‘ylar ekan. Aslida esa, o‘sha so‘zlar va ular atrofidagi harakatlar muhim rol o‘ynarkan. Masalan, mashhur amerikalik olim Megrabyan formulasiga ko‘ra, birinchi marta ko‘rishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy bo‘lishiga gapirgan gaplari 7%, paralingvistik omillar 38% va noverbal harakatlar 58% gacha ta’sir qilarkan. Keyinchalik bu munosabat albatta o‘zgarishi mumkin, lekin xalq ichida yurgan bir maqol to‘g‘ri: «Ust-boshga qarab kutib olishadi, aqlga qarab kuzatishadi».

Muloqotning qanday kechishi va kimning ko‘proq ta’sirga ega bo‘lishi sheriklarning rollariga ham bog‘liq. Ta’sirning tashabbuskori bu shunday sherikki, unda ataylab ta’sir ko‘rsatish maqsadi bo‘ladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha yuqorida ta’kidlangan vositalardan foydaniladi. Agar boshliq ishi tushib, biror xodimni xonasiga taklif etsa, u o‘rnidan turib kutib oladi, iltifot ko‘rsatadi, hol-ahvolni ham quyuqroq so‘raydi va so‘ngra gapning asosiy qismiga o‘tadi.

Ta’sirning adresati – ta’sir yo‘naltirilgan shaxs. Lekin tashabbuskorning suhbatga tayyorgarligi yaxshi bo‘lmasa, yoki adresat tajribaliroq sherik bo‘lsa, u tashabbusni o‘z qo‘liga olishi va ta’sir kuchini qayta egasiga qaytarishi mumkin bo‘ladi.

### 3.2. Shaxsning «Men» obrazi va o‘z-o‘ziga baho berishi muammosi

Ijtimoiy normalar, sanksiyalar, rollar ijtimoiy mexanizmlar sifatida shaxs xulq-atvorini ma’lum ma’noda boshqarib, muvofiqlashtirib turishga yordam beradi. Lekin insonning komilligi, uning axloq – ijtimoiy normalar doirasidagi maqbul harakati uning o‘ziga ham bog‘liqdir. Odamning o‘z-o‘zini anglashi, bilishi va o‘z ustida ishlashi avvalo uning diqqati, ongi bevosita o‘ziga, o‘z ichki imkoniyatlari, qobiliyatlari, hissiy kechinmalariga qaratilishini taqozo etadi. Ya’ni, ijtimoiy xulq shaxs tomonidan uni

o‘rab turgan odamlar, ularning xulq-atvorlariga e’tibor berishdan tashqari, o‘zining shaxsiy harakatlari ularning oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borish orqali rollarni muvofiqlashtirishni ham taqozo etadi.

Shaxsning o‘zi, o‘z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilishidan hosil bo‘lgan obraz – «Men» obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi shaxs barkamolligining mezonlaridan hisoblanadi.

«Men» obrazining psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, tarbiya shaxsning o‘zi va o‘z sifatlari to‘g‘risidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta’rif berish mumkin. Demak, har bir inson o‘zini, o‘zligini qanchalik aniq va to‘g‘ri bilsa, tasavvur qilolsa, uning jamiyat normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kam bo‘ladi, ya’ni u tarbiyalangan bo‘ladi.

O‘z-o‘zini anglash o‘zidagi mavjud sifatlarni baholash jarayoni ko‘pincha konkret shaxs tomonidan og‘ir kechadi, ya’ni inson tabiati shundayki, u o‘zidagi o‘sha jamiyat normalariga to‘g‘ri kelmaydigan, noma’qul sifatlarni anglamaslikka, ularni «yashirishga» harakat qiladi, hattoki, bunday tasavvur va bilimlar ongsizlik sohasiga siqib chiqariladi (avstriyalik olim Z. Freyd nazariyasiga ko‘ra). Bu ataylab qilinadigan ish bo‘lmay, u har bir shaxsdagi o‘z shaxsiyatini o‘ziga xos himoya qilish mexanizmidir. Bunday himoya mexanizmi shaxsni ko‘pincha turli xil yomon asoratlardan, hissiy kechinmalardan asraydi. Lekin shuni alohida ta’kidlash lozimki, «Men» obrazining ijobiy yoki salbiyligida yana o‘sha shaxsni o‘rab turgan tashqi muhit, o‘zgalar va ularning munosabati katta rol o‘ynaydi.

Odam o‘zgalarga qarab, go‘yoki oynada o‘zini ko‘rganday tasavvur qiladi. Bu jarayon psixologiyada refleksiya deb ataladi. Uning mohiyati aynan o‘ziga o‘xshash odamlar obrazi orqali o‘zi to‘g‘risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirishdir. Refleksiya «Men» obrazi egasining ongiga taalluqli jarayondir. Masalan, ko‘chada bir tanishingizni uchratib qoldingiz. Siz tinmay unga o‘z yutuqlaringiz va mashg‘ulotlaringiz haqida gapirmoqdasiz. Lekin gap bilan bo‘lib, uning qayergadir shoshayotganligiga e’tibor

bermadingiz. Shu narsani siz uning betoqatlik bilan sizni tinglayotganligidan, xayoli boshqa yerda turganligidan bilib qolasiz va shu orqali ayni shu paytda «mahmadona, laqmaroq» bo‘lib qolganingizni sezasiz. Keyingi safar shu o‘rtog‘ingiz bilan uchrashganda, oldingi xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun «O‘rtoq, shoshmayapsanmi?» deb so‘rab ham qo‘yasiz. Ana shu ilgarigi refleksiyaning natijasidir. Ya’ni, suhbatdosh o‘rniga turib, o‘zingizga tashlangan nazar («men unga qanday ko‘rinyapman?») refleksiyadir.

Shaxsning o‘zi haqidagi obrazi va o‘z-o‘zini anglashi yosh va jinsiy o‘ziga xoslikka ega. Masalan, o‘ziga nisbatan o‘ta qiziquvchanlik, kim ekanligini bilish va anglashga intilish ayniqsa, o‘smirlik davrida rivojlanadi. Bu davrda paydo bo‘ladigan «kattalik» hissi qizlarda ham, o‘smir yigitchalarda ham nafaqat o‘ziga, balki o‘zgalar bilan bo‘ladigan munosabatlarini ham belgilaydi. Qizlardagi «Men» obrazining yaxshi va ijobiy bo‘lishi ko‘proq bu obrazning ayollik sifatlarini o‘zida mujassam eta olishi, ayollik xislatlarining o‘zida ayni paytda mavjudligiga bog‘liq bo‘lsa, yigitlardagi obraz ko‘proq jismonan barkamollik mezonlari bilan nechog‘liq uyg‘un ekanligiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘smirlikda o‘g‘il bolalardagi bo‘yning pastligi, muskullarning zaifligi va shu asosda qurilgan «Men» obrazi qator salbiy taassurotlarni keltirib chiqaradi.

Qizlarda esa tashqi tarafdan go‘zallikka, kelishganlik, odob va ayollarga xos qator boshqa sifatlarning bor-yo‘qligiga bog‘liq holda «Men» obrazi mazmunan idrok qilinadi. Qizlarda ham ortiqcha vazn yoki terisida paydo bo‘lgan ayrim toshmalar yoki shunga o‘xshash fiziologik nuqsonlar kuchli salbiy emotsiyalarga sabab bo‘lsa-da, baribir, chiroyli kiyimlar, taqinchoqlar yoki sochlarning o‘ziga xos turmagi bu nuqsonlarni bosib ketadigan omillar sifatida qaraladi.

«Men» obrazi asosida ham bir shaxsda o‘z-o‘ziga nisbatan baholar tizimi shakllanadiki, bu tizim ham obrazga mos tarzda har xil bo‘lishi mumkin. O‘z-o‘ziga nisbatan baho turli sifatlar va shaxsning orttirilgan tajribasi, shu tajriba asosida yotgan yutuqlariga bog‘liq holda turlicha bo‘lishi mumkin. Ya’ni, ayni biror ish, yutuq yuzasidan ortib ketsa, boshqasi ta’sirida, aksincha, pastlab ketishi mumkin. Bu baho aslida shaxsga boshqalarning

real munosabatlariga bog‘liq bo‘lsa-da, aslida u shaxs ongi tizimidagi mezonlarga, ya’ni uning o‘zi subyektiv tarzda shu munosabatlarni qanchalik qadrlashiga bog‘liq tarzda shakllanadi. Masalan, maktabda bir fan o‘qituvchisining bolaga nisbatan ijobiy munosabati, doimiy maqtovlari uning o‘z-o‘ziga bahosini oshirsa, boshqa bir o‘qituvchining salbiy munosabati ham bu bahoni pastlatmasligi mumkin. Ya’ni, bu baho ko‘proq shaxsning o‘ziga bog‘liq bo‘lib, u subyektiv xarakterga egadir.

O‘z-o‘ziga baho nafaqat haqiqatga yaqin (adekvat), to‘g‘ri bo‘lishi, balki u o‘ta past yoki yuqori ham bo‘lishi mumkin.

O‘z-o‘ziga bahoning past bo‘lishi ko‘pincha atrofdagilarning shaxsga nisbatan qo‘yayotgan talablarining o‘ta ortiqligi, ularni uddalay olmaslik, turli xil e’tirozlarning doimiy tarzda bildirilishi, ishda, o‘qishda va muomala jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar oqibatida hosil bo‘lishi mumkin. Bunday o‘smir yoki katta odam ham, doimo tushkunlik holatiga tushib qolishi, atrofdagilardan chetroqda yurishga harakat qilishi, o‘zining kuchi va qobiliyatlariga ishonchsizlik kayfiyatida bo‘lishi bilan ajralib turadi va bora-bora shaxsda qator salbiy sifatlar va xatti-harakatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Hattoki, bunday holat suitsidal harakatlar, ya’ni o‘z joniga qasd qilish, real borligidan «qochishga» intilish psixologiyasini ham keltirib chiqarishi mumkin.

O‘z-o‘ziga baho o‘ta yuqori hamda shaxs xulq-atvoriga yaxshi ta’sir ko‘rsatmaydi. Chunki, u ham shaxs yutuqlari yoki undagi sifatlarning boshqalar tomonidan sun’iy tarzda bo‘rttirilishi, noo‘rin maqtovlar, turli qiyinchiliklarni chetlab o‘tishga intilish tufayli shakllanadi. Ana shunday sharoitda paydo bo‘ladigan psixologik holat «noadekvatlilik effekti» deb atalib, uning oqibatida shaxs hattoki, mag‘lubiyatga uchraganda yoki o‘zida nochorlik, o‘quvsizliklarni sezganda ham buning sababini o‘zgalarda deb biladi va shunga o‘zini ishontiradi ham (masalan, «xalaqit berdida», «falonchi bo‘lmaganida» kabi bahonalar ko‘payadi). Ya’ni, nimaiki bo‘lmasin, aybdor o‘zi emas, atrofdagilar, sharoit, taqdir aybdor. Bundaylar haqida bora-bora odamlar «oyog‘i yerdan uzilgan», «manmansiragan», «dimog‘dor» kabi sifatlar bilan gapira boshlaydilar. Demak, o‘z-o‘ziga baho realistik, adekvat, to‘g‘ri bo‘lishi kerak.

Realistik baho shaxsni o‘rab turganlar – ota-ona, yaqin qarindoshlar, pedagog va murabbiylar, qo‘ni-qo‘shni va yaqinlarning o‘rinli va asosli baholari, real samimiy munosabatlari mahsuli bo‘lib, shaxs ushbu munosabatlarni ilk yoshidanoq xolis qabul qilishga, o‘z vaqtida kerak bo‘lsa to‘g‘rilashga o‘rgatilgan bo‘ladi. Bunda shaxs uchun etalon, ibratli hisoblangan insonlar guruhi – referent guruhning roli katta bo‘ladi. Chunki biz kundalik hayotda hammaning fikri va bahosiga quloq solavermaymiz, biz uchun shunday insonlar mavjudki, ularning oddiygina tanbehlari, maslahatlari, hattoki, maktabda turib bergan tanbehlari ham katta ahamiyatga ega. Bunday referent guruh real mavjud bo‘lishi (masalan, ota-ona, o‘qituvchi, ustoz, yaqin do‘stlar), yoki noreal, xayoliy (kitob qahramonlari, sevimli aktyorlar, ideal) bo‘lishi mumkin. Shuning uchun yoshlar tarbiyasida yoki real jamoadagi odamlarga maqsadga muvofiq ta’sir yoki taz’yiq ko‘rsatish kerak bo‘lsa, ularning etalon, referent guruhini aniqlash katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Shunday qilib, o‘z-o‘ziga baho sof ijtimoiy hodisa bo‘lib, uning mazmuni va mohiyati shaxsni o‘rab turgan jamiyat normalariga, shu jamiyatda qabul qilingan va e’zozlanadigan qadriyatlarga bog‘liq bo‘ladi. Keng ma’nodagi yirik ijtimoiy jamoalar etalon rolini o‘ynashi oqibatida shakllanadigan o‘z-o‘ziga baho – o‘z-o‘zini baholashning yuksak darajasi hisoblanadi. Masalan, mustaqillik sharoitida mamlakatimiz yoshlari ongiga milliy qadriyatlarimiz, vatanparvarlik, adolat va mustaqillik mafkurasiga sadoqat hislarining tarbiyalanishi, tabiiy, har bir yosh avlodda o‘zligini anglash, o‘zi mansub bo‘lgan xalq va millat ma’naviyatini qadrlash hislarini tarbiyalamoqda. Bu esa, o‘sha yuksak o‘z-o‘zini anglashning poydevori va muhim shakllantiruvchi mexanizmidir.

Demak, o‘z-o‘zini baholash – o‘z-o‘zini tarbiyalashning muhim mezonidir. O‘z-o‘zini tarbiyalash omillari va mexanizmlariga esa quyidagilar kiradi:

– o‘z-o‘zi bilan muloqot (o‘zini konkret tarbiya obyekti sifatida idrok etish va o‘zi bilan muloqotni tashkil etish sifatida);

– o‘z-o‘zini ishontirish (o‘z imkoniyatlari, kuchi va irodasiga ishonish orqali, ijobiy xulq normalariga bo‘ysundirish);

– o‘z-o‘ziga buyruq berish (tig‘iz va ekstremal holatlarda o‘zini qo‘lga olish va maqbul yo‘lga o‘zini chorlay olish sifati);

– o‘z-o‘ziga ta’sir yoki autosuggestiya (ijtimoiy normalardan kelib chiqqan holda o‘zida ma’qul ustanovkalarni shakllantirish);

– ichki intizom – o‘z-o‘zini boshqarishning muhim mezoni, har doim har yerda o‘zining barcha harakatlarini muntazam ravishda korreksiya qilish va boshqarish uchun zarur sifat.

Demak, shaxsning qanday sifatlarga ega ekanligi, undagi baholarning obyektivligiga bog‘liq tarzda o‘z-o‘zi bilan muloqotga kirishib, jadvaldagiga muvofiq shaxs o‘zini nazorat qila oladi. Shuning uchun ham hayotda shunday kishilar uchraydiki, katta majlisda ishi tanqidga uchrasa ham, o‘ziga xolis baho berib, kerakli to‘g‘ri xulosalar chiqara oladi, shunday odamlar ham borki, arzimagan xatolik uchun o‘z «ich-etini yeb tashlaydi». Bu o‘sha ichki dialogning har kimda har xil ekanligidan darak beruvchi faktlardir.

### 3.3. Shaxs dunyoqarashini va e’tiqodini o‘zgartiruvchi omillar

Dunyoqarash shaxsning shaxsligini (individ emas), uning ma’naviyatini, ijtimoiylashuvi darajasini ko‘rsatuvchi kuchli motivlardandir. Shuning uchun ham uning shakllanishi va o‘zgarishi masalasi muhim masalalardan bo‘lib, hamma vaqt va davrlarda ham o‘ta dolzarb bo‘lib kelgan. O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishgach, jamiyatda tub islohotlar boshlandi. Ana shu islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri – ma’naviy-ma’rifiy islohotlar bo‘lib, uning asosiy maqsadi jamiyat a’zolari dunyoqarashini istiqlol ruhida shakllantirishni maqsad qilib qo‘ydi. Davlatimizning yoshlar borasidagi siyosatining asosini ham ularda yangicha hurfikrlilik bilan yangicha dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu o‘rinda psixologiya o‘zgarishlar sharoitida e’tiqod, dunyoqarash va ideallar o‘zgarishiga sabab bo‘luvchi quyidagi omillarni ajratadi:

1. Ma’naviyat va ma’rifat. Avvalo ma’rifat xususida. Bu – odamning tabiat, jamiyat va insonlar to‘g‘risidagi turli bilimlari, tushunchalari, ma’lumotlari majmui bo‘lib, uning mazmuni bevosita shaxs dunyoqarashining mazmun-mohiyatini belgilaydi. Demak, yoshlarga qaratilgan va ular o‘qib, o‘rganishi uchun yo‘naltirilgan barcha turdagi ma’lumotlar (kitoblar, ommaviy

axborot vositalari orqali, muloqot jarayonida), ular asosida shakllanadigan yangicha tasavvurlar yangicha dunyoqarash uchun zamindir. Mustaqillik yillarida eski, o‘zini tarix oldida oqlamagan mafkuradan voz kechildi, yangi mustaqillik g‘oyasi, uning asosiy tamoyillar, yoshlarni ma’rifatli qilish borasidagi vazifalar davlatimiz rahbari I.A. Karimov asarlarida muxtasar, aniq bayon etilgan. Ular asosida mamlakatimizda yangi «Ta’lim to‘g‘risidagi qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. Ular yoshlarning eng ilg‘or ilm-fan yutuqlaridan boxabar qilish, buyuk allomalar merosini chuqur va teran o‘rganish, zamonaviy texnologiyalar asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, yoshlarni ma’rifatli qilishning barcha shart-sharoitlarini yaratishni nazarda tutadi. Bu sa’y-harakatlar ma’naviyat borasidagi islohotlar, o‘zbek madaniyati, san’ati, adabiyotini rivojlantirish ishlari, tariximizni tiklash borasida amalga oshirilayotgan olamshumul ishlar tabiiy, yoshlarimizda yangicha dunyoqarashning shakllanishiga asos bo‘ladi.

2. Oila. Yurtimizda oila hamisha davlat himoyasida va oliy qadriyat sifatida e’zozlanadi. Oila ijtimoiylashuvning asosiy va muhim o‘chog‘i bo‘lgani uchun ham uning shu muhitda tarbiyalanayotgan yoshlar e’tiqodi va dunyoqarashidagi roli sezilarlidir. Respublikamizda 2012-yilning «Mustahkam oila yili» deb e’lon qilinishi, «Oila» ilmiy-amaliy Markazi o‘z faoliyatini boshlashi jamiyatda, yoshlar tarbiyasi borasida oilaning roli va mas’uliyatini oshirishga qaratilgan muhim tadbir bo‘ldi va ularda yurtga, Vatanga, yaqinlarga sadoqat, muhabbat hislarini tarbiyalash orqali dunyoqarashlari mazmuniga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

3. Mafkura. Har bir davrning o‘z mafkurasi bo‘ladi va u shaxs ijtimoiylashuvi jarayonida uning ongiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan hisoblanadi. Kommunistik mafkuradan batamom voz kechgan jamiyatimizda yangi mustaqillik mafkurasi shakllanmoqda. Zero, mafkura jamiyat a’zolarining tabiat, jamiyat va ijtimoiy jarayonlar xususidagi g‘oyalari, bilimlari majmui bo‘lib, har bir ijtimoiy guruh o‘z e’tiqodiga mos mafkurani tanlaydi. Mustaqillikdan ruhlangan, uning moddiy va ma’naviy ne’matlaridan bahramand bo‘layotgan o‘zbekistonliklar o‘tgan qisqa vaqt mobaynida uning qadriyatlari, har bir shaxsga yaratilayotgan cheksiz

imkoniyatlari, ilm va bilim borasidagi shart-sharoitlarni anglab, o‘zlari ongli ravishda ana shu tuzumga sadoqat va uni sevish, ardoqlash va himoya qilishga tayyorlik falsafasini shakllantirmoqdalar. Yangi mafkura mustaqillik va milliy qadriyatlar g‘oyasi ta’sirida shakllanmoqda va bu tabiiy, birinchi navbatda yoshlar dunyoqarashini o‘zgartiruvchi muhim shartdir.

4. Ijtimoiy ustanovkalar. Sof psixologik ma’noda yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi va o‘zgartiruvchi ijtimoiy psixologik mexanizm bu ijtimoiy ustanovkalardir. Bu shaxsning atrof-muhitida sodir bo‘layotgan ijtimoiy hodisalarni, obyektlarni, ijtimoiy guruhlarni ma’lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o‘rnatishga ruhiy ichki hozirlik sifatida odamdagi dunyoqarashni ham o‘zgartirishga aloqador kategoriyadir.

Rus olimi V.A.Yadov o‘zining dispozitsion konsepsiyasini yaratib, unda ustanovkalarni to‘rt bosqich va to‘rt tizimli sifatida tasavvur qilgan:

a) elementar ustanovkalar (set) – oddiy, elementar ehtiyojlar asosida ko‘pincha ongsiz tarzda hosil bo‘ladigan ustanovkalar. Ularni o‘zgartirish uchun moddiy shart-sharoitlarni va odamdagi ehtiyojlar tizimini o‘zgartirish kifoya;

b) ijtimoiy ustanovkalar (attitud) – ijtimoiy vaziyatlar ta’sirida ijtimoiy obyektlarga nisbatan shakllanadigan ustanovkalar. Ularni o‘zgartirish uchun ijtimoiy shart-sharoitlar va shaxsning ularga nisbatan baho va munosabatlari tizimini o‘zgartirish kerak;

d) bazaviy ijtimoiy ustanovkalar – ular shaxsning umumiy yo‘nalishini belgilaydi va ularni o‘zgartirish e’tiqodlar va dunyoqarashlarni o‘zgartirish demakdir;

e) qadriyatlar tizimi – ular avlodlararo muloqot jarayonining mahsuli sifatida jamiyatda qadr-qimmat topgan narsalarga nisbatan ustanovka. Masalan, sahih hadislar shunday qadriyatlardir, biz ularni tanqidsiz, muhokamalarsiz qabul qilamiz, chunki ular ham ilohiy, ham eng buyuk insonlar tomonidan yaratilgan va avloddan avlodga o‘z qadrini yo‘qotmay kelayotgan qadriyatlardir.

Ijtimoiy ustanovkalarni o‘zgartirishning eng sodda va qulay yo‘li bu ayni vaziyatlar va ulardagi ta’sirlarni qaytarishdir. Bu qaytarish qayd qilingan obraz sifatida inson ongida uzoq muddat-

li xotirada saqlanadi va vaziyat paydo bo‘lganda obyektivlashadi, ya’ni o‘z kuchini va mavjudligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham agar chet el tajribasiga murojaat qiladigan bo‘lsak, u yerda biror g‘oyani ongga singdirish uchun bir odam yoki biror guruh o‘z siyosiy, mafkuraviy yoki boshqa qarashlarini bir xil so‘zlar va iboralar, harakatlar bilan qaytaraveradi va shu yo‘l bilan ko‘pchilikning ma’qullashiga erishadi. Ayniqsa, saylov oldi tadbirlarida ana shu usul keng qo‘llaniladi. Shulardan kelib chiqib, ijtimoiy ustanovkalarni o‘zgartirishning usullari va psixologik vositalari orqali ham dunyoqarashni o‘zgartirishga erishish mumkin.

Respublikamizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, jamiyatning ruhiy va ma’naviy takomili ko‘p jihatdan oilada ota-onaning farzand tarbiyasiga qanchalik mas’uliyat bilan yondashganiga ham bog‘liq bo‘ladi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risidagi» qonunida davlat, jamiyat va oila oldiga o‘z burchi va mas’uliyatini anglab yetadigan har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirish masalasi qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» 1997-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qarori bilan tasdiqlangan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo‘lib, milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan holda yuksak umumiy va kasb-kor madaniyatiga, ijodiy hamda ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarni yangi avlodni shakllantirishga yo‘naltirilgandir.

Sharq madaniyati va ma’naviyati shu qadar noyob, betakror va jozibali bo‘lib, buning asosiy sabablaridan biri o‘zbek oilasining betakror muhiti, undagi an’analar, rasm-rusumlar va qadriyatlarning barhayotligidadir. Zero, har qanday oila inson taqdiri va kamolotini, kelajagini belgilab beruvchi omil ekanligi bilan xarakterli hisoblanadi. Ayniqsa, undagi an’analar, milliy qadriyatlar ma’naviy boy, axloqan yetuk, intellektual rivojlangan yuqori

bilimli, jismonan baquvvat, har tomonlama kamol topgan shaxsni, ya'ni sog'lom avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazishda ularning o'rni va ahamiyati kattadir.

Demak, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasl qanday inson bo'lib yetishishiga ta'sir ko'rsatadigan katta tarbiya o'chog'idir.

Oila farovonligi milliy farovonlikning asosidir. Oilada eng avvalo, halollik, rostgo'ylik, mehr-oqibat, or-nomus, sharm-hayo, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlar shakllanadi. Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va osoyishtalik hukm suradi.

Oila va bola tarbiyasi muammosi hamma vaqt dolzarb masala bo'lib kelgan. Oila muhiti qanchalik axloq-odobning madaniyat qoidalari va milliy qadriyatlari asosida tashkil topgan bo'lsa, bola shaxsining to'g'ri shakllanishi uchun shart-sharoit yaratilsa, shaxs shunchalik barkamol, komil inson bo'lib yetishadi.

O'zbek oilasidagi an'anaviy ta'lim-tarbiya namunalarini farzandlarimizga amaliy tarzda o'rgatib, oilaviy munosabatlar madaniyatini yuksaltirishga da'vat etib, shu orqali ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabalarni oqilona tashkil etishga yordamlashish hammamizning vazifamizdir. Yosh avlodga ma'naviy, axloqiy tarbiya berishning yo'llari va vositalari xilma-xil bo'lib, bular ichida yoshlarni xalqimizning milliy an'analari ruhida tarbiyalash alohida o'rin tutadi.

O'zbek xalqi, mamlakatimizdagi boshqa qardosh xalqlar kabi yoshlarga axloq tarbiyasini berishda o'zining azaliy an'analariga ega bo'lgan. Bizning hozirgi kundagi vazifamiz esa, o'tmishda avlodlar tomonidan yaratilgan eng yaxshi an'analarni o'rganish va hayotimiz talablariga mos holda rivojlantirishdir.

Qadimiy, tarixiy manbalar, xalq og'zaki ijodi materiallari, sharq klassiklarining ta'lim-tarbiyaga oid asarlarini sinchiklab o'rganish shuni ko'rsatadiki, o'zbek xalqi qadim zamonlardan boshlab farzandni tarbiyalash sohasida o'ziga xos an'analarga ega bo'lgan. Ota-onalarning bolalarni sevishi, o'z navbatida farzandlarning ota-onani astoydil hurmat qilishi oila tarbiyasining ko'rki bo'lib hisoblangan.

Sharq mamlakatlarida ayniqsa, ota-onalarning shaxsiy namunasi farzand tarbiyasining eng muhim usullaridan biri hisoblangan. Shunga ko‘ra, o‘g‘il bolalar yurish-turishi, o‘zaro muomalasi, kasb egallashda otasiga o‘xshashlikka harakat qilgan. Ota kasbini egallash yaxshi tarbiyaning natijasi hisoblangan. Qizlar esa uyni saranjom-sarishta tutish, turli taomlar tayyorlash, to‘qish va tikish, mehmon kutish kabi ishlarda onasiga o‘xshashga harakat qilganlar.

An’anaga ko‘ra, farzandlarning yurish-turishi va o‘zaro munosabat qoidalari, yoshlarning ota-ona va kattalar oldidagi burchi, mehnati, kasb-kori va ularning inson hayotidagi roli haqidagi dastlabki tushuncha va tasavvurlarni oilada olganlar.

Hayot tajribasining ko‘rsatishicha, jamiyatning ravnaqi, gullab-yashnashi, farovon hayotning asosiy mezoni axloq-odob bo‘lib hisoblangan. Shuning uchun ota-bobolarimiz oilaga, oilada bola tarbiyasiga, ularning ma’naviy kamoliga, axloqiga katta e’tibor berib kelganlar.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Kasbiy etika va kommunikatsiya fanida shaxs muammosi.
2. Shaxsning tuzilishi.
3. Shaxs tiplari va ularning ijtimoiy psixologik xarakteristikasi.
4. Shaxsning «Men» obrazi.
5. Shaxsning o‘z-o‘ziga baho berishi muammosi.
6. Shaxs dunyoqarashini va e’tiqodini o‘zgartiruvchi omillar.

# 4-mavzu: KOMMUNIKATSIYA VA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI

**Reja:**

1. Kommunikatsiya tushunchasining ijtimoiy-psixologik mazmuni.
2. Muloqotning kommunikativ darajasi.
3. Muloqotning interaktiv darajasi.
4. Muloqotning perseptiv darajasi.

**Darsning maqsadi:** muloqot, muomala, muloqotning vazifalari, funksiyalari, muloqotning kommunikativ, interaktiv, perseptiv tomonlari haqidagi bilim, ko‘nikma, malakalarini shakllantirish.

*Mavzuning tayanch so‘zlari:*

muloqot, kommunikatsiya, faoliyat, verbal, interaksiya, ijtimoiy persepsiya, noverbal, stereotipizatsiya, oreol effekti, atributsiya.

## 4.1. Kommunikatsiya tushunchasining ijtimoiy-psixologik mazmuni

Muloqot kategoriyasi psixologiya fanidagi markaziy kategoriyalardan biri bo‘lib hisoblanadi (ong, xulq-atvor, shaxs kategoriyalari singari). So‘nggi 20–25 yil ichida muloqot muammolari psixologiyaning, ayniqsa, ijtimoiy psixologiyaning eng yirik tadqiqot predmetiga aylanib qoldi.

Muloqot o‘ta murakkab jarayon bo‘lgani sababli unga yagona to‘g‘ri ta’rifni berish juda mushkul. Shuning uchun, odatda, muloqot tushunchasi uning ayrim tomonlariga urg‘u berish orqali ta’riflanadi.

Psixologiya lug‘atida muloqot tushunchasiga ikki xil ta’rif beriladi:

1) muloqot – hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o‘rnatish va uni rivojlantirish jarayoni;

2) muloqot – belgilar tizimi orqali subyektlarning o‘zaro ta’sirlashuvi. Albatta, hech bir ta’rif universallik maqomiga da’vo

qilmaydi. Chunki unda, odatda, muloqotning ayrim tomonlari e'tibordan chetda qoladi, ikkinchi darajaga surib qo'yiladi. Shunday bo'lsa-da, shartli ravishda muloqotga nisbatan umumiy bo'lgan quyidagi ta'rifni berish mumkin: Muloqot – kamida ikki kishining o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, bu ta'sir davomida axborot almashiniladi, munosabat o'rnatiladi va rivojlantiriladi, tugatiladi yoki korreksiyalanadi.

Muloqot tushunchasini kommunikatsiyadan farqlash kerak.

Kommunikatsiya – tirik va o'lik tabiatdagi tizimlar o'rtasida axborot almashinuvini anglatadi. Hayvonlar o'rtasidagi signallar almashinuvi, insonning texnik vositalar bilan aloqa qilishi – bularning barchasi kommunikatsiya. Muloqot faqat insonlar o'rtasida amalga oshirilishi mumkin.

Muloqotning inson hayotidagi ahamiyati beqiyosdir. Inson bolasi aynan boshqalar bilan muloqotda va munosabatda bo'lish jarayonida shaxsga aylanib boradi. Muloqot orqali inson ijtimoiy tajriba va madaniyatni egallab boradi. Yangi tug'ilgan inson boshqalar bilan muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lsa, u hech qachon shaxsga aylana olmaydi, ya'ni u o'z psixik taraqqiyoti bo'yicha biologik mavjudod darajasida qolib ketadi. Zero, inson psixik taraqqiyoti muloqotdan boshlanadi. Muloqot ijtimoiy faollikning ontogenezda paydo bo'ladigan birinchi turidir.

Muloqotda ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar ro'yobga chiqariladi. Muloqotsiz insoniyat jamiyati bo'lishi mumkin emas. Aynan muloqot hamkorlikda faoliyat yurituvchi individlar jamoasini shakllantiradi. Hamkorlikdagi faoliyat rejasini tuzish uchun, uni ro'yobga chiqarish uchun individlar o'rtasida muloqot amalga oshirilishi shart. Muloqot vositasida hamkorlikdagi faoliyat tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Ayni vaqtda faoliyat davomida insonlar o'rtasida yangi-yangi munosabatlar va aloqalar shakllanadi. Demak, muloqot va faoliyat o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Muloqot inson hayotida qanchalik yuksak ahamiyatga ega ekanligini quyidagi misollar yaqqol ko'rsatadi.

1938-yil Richard Bard o'z xohishi bilan Antarktida muzliklarida 6 oy tanho qoladi. Bir tomondan u tajriba natijalariga qiziqsa, ikkinchi tomondan, kundalik hayotning g'ala-g'ovuridan biroz dam olishni istagan edi. Keyinchalik u mazkur davrni quyida-

gi so‘zlar bilan eslaydi: «Bu yerdagi hayotim davomida bora-bora har bir harakatim, har bir ishim tobora mazmunsiz, mantiqsiz, maqsadsiz bo‘lib borayotganday edi. Xavf-xatarlardan qo‘rqmaydigan odam bo‘lsam-da, negadir bu yerda tomning bosib qolishidan, o‘choqdan o‘t ketib qolishidan xavfsiray boshladim. Ovqatlanishimda muntazamlik yo‘qoldi, yuvinmay qo‘ydim».

2-misol. Tarixda yaponlarda «Moritao» nomli insonning o‘z-o‘zini takomillashtirish tizimi mavjud bo‘lgan. U shunday tizimlarning eng oxiri va murakkabi bo‘lib hisoblanadi. Vaholanki, inson hech qanday jismoniy azoblarga duchor bo‘lmaydi. Faqatgina bir haftaga g‘orga kirib ketib, u yerda tanho qoladi. Bu yerda u, hatto, o‘zi bilan ham gaplashishi mumkin bo‘lmagan. Sinovdan o‘tganlar keyinchalik har qanday uchrashuv va suhbatni xursandchilik bilan qarshi oladilar. Qizig‘i shundaki, ularda ko‘proq gapirish ehtiyoji emas, balki tinglash ehtiyoji kuchayar ekan.

## 4.2. Muloqotning kommunikativ darajasi

Muloqotning kommunikativ darajasi deganda ma’lumotlar almashinuvi, shaxslararo axborotlar, bilimlar, g‘oyalar, fikrlar almashinuvi nazarda tutiladi.

Birgalikdagi faoliyat davomida odamlar turli fikrlar, o‘y-xayollar, his-kechinmalar bilan o‘rtoqlashadilar. Bunda o‘y-fikrlar, his-kechinmalarni axborot sifatida, kommunikatsiyani esa axborot almashinuvi sifatida talqin etish mumkin. Kommunikatordan chiqayotgan axborot ikki xil bo‘lishi mumkin:

1. Undovchi axborot buyruq, maslahat, iltimos va h.k. larda namoyon bo‘ladi. Undan ko‘zlangan maqsad retsipientni biror harakatga stimullashtirish. Stimullashtirish uch xil bo‘lishi mumkin: a) aktivlashtirish (biror harakatni qilishga undash); b) interdiksiyalash (biror harakatni qilishdan to‘xtatish); d) destabillashtirish (biror harakatdagi muvozanatni buzish).

2. Ta’kidlovchi axborot ma’lumot tarzida ifodalanadi. Bu turdagi axborot turli ta’limiy tizimlardan o‘rin olgan bo‘lib, xulq-atvorni o‘zgartirish uchun bevosita ta’sir ko‘rsatmaydi (lekin bilvosita ta’sir ko‘rsatish maqsadi ham bo‘ladi).

Har qanday axborot almashinuvi faqat ma’lum belgilar tizimi orqaligina amalga oshirilishi mumkin. Kommunikativ jara-

yonda ishlatiladigan bir necha xil belgilar tizimlari mavjud. Ularga asoslanib turib odatda verbal va noverbal kommunikatsiya ajratiladi.

Verbal kommunikatsiyada belgilar tizimi sifatida nutq ishlatiladi. Nutq kommunikatsiyaning eng universal vositasi hisoblanadi. Chunki uning yordamida axborot uzatilganda, undagi mazmun eng kam darajada yo‘qotiladi.

Amerikalik jurnalist G.Lassuel besh unsurdan iborat bo‘lgan kommunikativ jarayonning quyidagi modelini taklif etadi:

a) kim (axborot kim tomonidan uzatilmoqda);
b) nima (qanday axborot uzatilmoqda);
d) qanday (axborot qanday yo‘l bilan uzatilmoqda);
e) kimga (axborot kimga yo‘naltirilmoqda);
f) qanchalik samarali (axborot qanchalik samarador uzatildi).

Kommunikativ jarayon aksial (bunda axborot ayrim konkret odamlargagina yo‘naltiriladi) yoki retial (bunda axborot bir qancha ehtimol qilinayotgan retsipientlarga yo‘naltiriladi) xarakterda bo‘lishi mumkin.

Kommunikator retsipient uni qanchalik tushunayotganini «kommunikativ rollar» o‘zgargach biladi. Chunki bunda retsipient kommunikatorga aylanib avvalgi kommunikatorga qabul qilgan axborotning mazmunini qanday tushunganligini bildiradi.

Noverbal kommunikatsiyada belgilar tizimi sifatida quyidagi tizimlardan foydalaniladi:

A. Optik-kinetik tizimga imo-ishoralar (qo‘l motorikasi), mimika (yuz motorikasi), pantomimika (butun gavda motorikasi) kiradi. Ushbu belgilarning muloqotdagi ahamiyati shunchalik kattaki, ularni o‘rganish uchun alohida soha – kinesika shakllangan.

B. Paralingvistik tizim ovoz vokalizatsiyasidan iborat bo‘lib, unga ovoz sifatlari, diapazoni kiradi. Ekstralingvistik tizimga to‘xtalishlar, yo‘talib qo‘yishlar, yig‘i, kulgi, nutq tempi kiradi.

D. Proksemik tizimga kommunikativ jarayon ishtirokchilarining fazodagi joylashuvi va kommunikatsiya vaqti kiradi.

E. Vizual kontaktga ko‘zlar orqali muloqot qilish kiradi. Dastlab muloqotning bunday turi faqat intim muloqot doirasidagina bo‘lishi mumkin, deb hisoblangan. Biroq so‘nggi tadqiqotlar vi-

zual kontakt boshqa sohalarda (tibbiyot, pedagogika, boshqaruv va h.k.) ham kuzatilishini isbotlamoqda.

Noverbal kommunikatsiya tizimlari kommunikatsiya jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Ular nutqni to‘ldiradi, uning o‘rnini bosadi, kommunikativ jarayon ishtirokchilarining emotsional holatini aks ettiradi.

Muloqot jarayonida kommunikatsiya ishtirokchilari axborot almashish davomida bir-biriga ta’sir etib boradi. O‘zaro ta’sir xususiyatlarini aniqlash uchun muloqotning interaktiv tomonini o‘rganish zarur bo‘ladi.

### 4.3. Muloqotning interaktiv darajasi

Muloqotning interaktiv darajasi deganda, birgalikdagi faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishda muloqot ishtirokchilarining bir-biriga ta’sir o‘tkazishi tushuniladi.

Kommunikatsiya orqali odamlar birgalikdagi faoliyatni tashkil etadilar. Umumiy faoliyatda ishtirok etar ekan odamlar, albatta, bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun o‘zaro ta’sir birgalikdagi faoliyatning tashkil etilishi sifatida tushuniladi.

Birgalikdagi faoliyatning uch xil modeli mavjud:

1) har bir ishtirokchi boshqalardan mustaqil ravishda ishning o‘ziga tegishli qismini bajarishi (masalan, shanbalikdagi ish);

2) umumiy vazifaning bosqichma-bosqich har bir ishtirokchi tomonidan bajarilishi (masalan, konveyerdagi ish);

3) har bir ishtirokchi boshqalar bilan birgalikda bir vaqtning o‘zida umumiy faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishi (masalan, futbol jamoasidagi ish).

Odatda muloqot jarayonidagi o‘zaro ta’sirning ikki xil turi ajratiladi:

1. Kooperatsiyaga asoslangan o‘zaro ta’sir – kommunikativ jarayon ishtirokchilarining umumiy maqsad yo‘lida o‘z kuchlarini birlashtirishidan iborat. Kooperatsiyaning bir necha turi farqlanadi:

a) avtomatik (instinktiv-biologik darajada mavjud bo‘ladi);

b) an’anaviy (tarkib topgan ijtimoiy me’yorlar bilan, an’ana va urf-odatlar bilan taqozolangan bo‘ladi);

d) spontan (do‘stlik, muhabbat va shu kabi munosabatlar bilan taqozolangan bo‘ladi);

e) direktiv (majburiy hamkorlik hukm suruvchi joylarda mavjud bo‘ladi);

f) shartnomaviy (rasmiy kelishuvlar bilan taqozolangan bo‘ladi). Kooperatsiya birgalikdagi faoliyat zaruriy elementidir.

2. Raqobatga asoslangan o‘zaro ta’sir – kommunikativ jarayon ishtirokchilarining shaxsiy yoki guruhiy maqsadlarga erishish uchun o‘zaro kurash sharoitida bir-biriga ta’sir ko‘rsatishidan iborat. Bunday o‘zaro ta’sirda tomonlarning shaxsiy faolligi odatda yuqori bo‘ladi. Shunday bo‘lsa-da, u kooperatsiya bilan ma’lum darajada bog‘liqdir. Chunki raqobat davomida ham muayyan qoidalar o‘rnatilishi talab etiladi. Aks holda, o‘zaro kurash urushga aylanib ketishi mumkin.

Birgalikdagi faoliyatning muvaffaqiyatli ro‘y berishi ko‘p jihatdan kommunikativ jarayon ishtirokchilari bir-birini qanday idrok etayotgani, har bir ishtirokchida boshqa ishtirokchi haqida qanday tasavvurlar shakllanayotganligiga bog‘liq. Bu esa muloqotning perseptiv tomonini o‘rganish zaruratini vujudga keltiradi.

## 4.4. Muloqotning perseptiv darajasi

Kishilarning bir-birini idrok etish jarayoni muloqotning ajralmas qismi bo‘lib, u muloqotning perseptiv darajasini tashkil etadi. Insonning inson tomonidan idrok etilishi «ijtimoiy persepsiya» deyiladi. Dastlab, bu atama J. Bruner tomonidan 1947-yil ishlatilgan bo‘lib, u perseptiv jarayonlarning ijtimoiy determinatsiyasini anglatgan. Keyinchalik bu atama boshqacharoq ma’noga ega bo‘lib, u ijtimoiy obyektlarni, ya’ni odamlar, ijtimoiy guruhlar, katta ijtimoiy tuzilmalarni idrok etish jarayonini anglata boshlagan.

Ijtimoiy perseptiv jarayonlarda individ quyidagilarni idrok etishi mumkin:

1) o‘z guruhiga mansub individni;
2) boshqa guruhga mansub individni;
3) o‘zining guruhini;
4) o‘zga guruhni.

Ijtimoiy perseptiv jarayonlarda guruh quyidagilarni idrok etishi mumkin:

1) o‘z individini;
2) o‘zga guruh individini;
3) o‘zini;
4) o‘zga guruhni.

Muloqot jarayonida bir-birini idrok etayotgan odamlar bir-birini tushunishga harakat qiladilar. Buning uchun quyidagi mexanizmlar ishga solinadi:

1. Identifikatsiya – insonning o‘zini xayolan suhbatdoshi o‘rniga qo‘yishi orqali uning fikrlari va tasavvurlarini tushunishga intilishi.

2. Empatiya – insonning o‘zini xayolan suhbatdoshi o‘rniga qo‘yishi orqali uning kechinmalari va hissiyotlarini tushunishga intilishi.

3. Refleksiya – insonning suhbatdoshi tomonidan qanday idrok etilayotgani va tushunilayotganini anglashga intilishi.

4. Stereotipizatsiya – insonning suhbatdoshini tushunishga intilishi yo‘lida muayyan shablonlardan foydalanishi.

Muloqot jarayonida insonlar bir-birini idrok etar ekan, bunda attraksiya (ingl. attract – jalb etmoq) jarayoni yuz berishi, ya’ni idrok etilayotgan odamga nisbatan «yoqtirish hissi» (привлекательность) paydo bo‘lishi mumkin. Attraksiya subyektning persepsiya obyektiga nisbatan bo‘lgan emotsional munosabati sifatida shakllanadi.

Kishilar bir-birini idrok etish jarayonida, turli effektlar yuzaga kelishi mumkin. Ular orasida quyidagi uch effekt ancha chuqur o‘rganilgan:

Ijtimoiy persepsiya davomida kauzal attributsiya hodisasi kuzatiladi. Kauzal atributsiya – ijtimoiy persepsiya subyektining boshqa insonlar xulq-atvori va motivlarini talqin etishidir. Odam kuzatish orqali idrok etilayotgan kishi haqida batafsil ma’lumotga ega bo‘lmasligi tufayli uning xulq-atvorini determinatsiyalayotgan taxminiy sabablarni qidiradi va ularni asliga noto‘g‘ri bo‘lsa ham, persepsiya obyektining xulq-atvoriga «tirkab qo‘yadi». Boshqacha qilib aytganda, kauzal atributsiya hodisalar va insonlar xulq-atvoriga muayyan sabablarni tirkab qo‘yish, sababchi deb bilish. G.Kelli shaxsiy atributsiya (bunday sabablar harakat subyektiga tirkab qo‘yiladi), obyekt atributsiyasi (bunda sabablar harakat

yo‘naltirilgan obyektga tirkab qo‘yiladi), vaziyat atributsiyasi (bunda sabablar harakat sodir bo‘layotgan vaziyatga tirkab qo‘yiladi) kabilarni ajratadi.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Muloqot va muloqotning asosiy tomonlari qaysilar?
2. Insonlararo kommunikatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari qanday?
3. Kommunikativ rollar almashinuvi deganda nima tushuniladi?
4. Noverbal kommunikatsiyada qo‘llanadigan belgilar tizimlari qaysilar?
5. Muloqot jarayonida interaksiyaning qanday turlari amalga oshishi mumkin?
6. Ijtimoiy persepsiya jarayonida attraksiya va kauzal atributsiya nimalarda namoyon bo‘ladi?
7. Dastlabkilik va yangilik effektlari qanday namoyon bo‘ladi?

# 5-mavzu: KASB ETIKASI VA O‘SMIRLIK PSIXOLOGIYASI

**Reja:**

1. O‘smirlik davrida shaxs xususiyatlarining shakllanishi.
2. O‘smirlik davrida kasb tanlash.
3. O‘smirlik davri va kasb etikasi kategoriyalarining ahamiyati.

**Darsning maqsadi:** o‘smirlik davri haqida tushuncha, biologik, jismoniy va bilish jarayonlarining rivojlanishi, akseleratsiya nazariyasi, shaxs sifatlarining shakllanishi.

*Mavzuning tayanch so‘zlari:*
o‘smirlik davri, biologik, bilish jarayonlarining akseleratsiya nazariyasi, shaxs, inqiroz, biogenetik nazariya.

## 5.1. O‘smirlik davrida shaxs xususiyatlarining shakllanishi

O‘smirlik davri o‘zining betakrorligi, mustaqilligi, ijodiyligi, tanqidiyligi va boshqa xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shuning uchun bu davr o‘zining murakkabligi o‘smir shaxsida o‘ziga, o‘zgalarga nisbatan tanqidiylikning shakllanishi bilan bog‘liqdir. Aynan o‘smir shaxsining shaxs sifatida shakllanishida bilish jarayonlari psixologik xususiyatlarini o‘rganish hozirgi kun uchun dolzarb muammo bo‘lib kelmoqda.

O‘smirlik davrini o‘tish, burilish, qiyin davr sifatida adabiyotlarda keng qo‘llaniladi. O‘smirlik davrining o‘tish davri deyilishiga asosiy sabab bu vaqt oralig‘ida bolalikdan kattalik holatiga o‘tish davri yuzaga keladi, ya’ni psixik jarayonlar o‘quvchi faoliyatlarining jiddiy ravishda qayta qurish bilan bog‘liqdir. Shuning uchun o‘smirlik yoshi o‘zaro munosabat shakllaridan faoliyatni tashkil qilishda kattalar tomonidan rahbarlik qilishda qat’iy o‘zgarishlarni talab qiladi. Aynan mazkur davrni ilmiy jihatdan o‘rganish muhim bo‘lib, unga asos bo‘lgan omillar quyidagilardan iborat:

– fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat san’at va adabiyot ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o‘zgarayotganligi;

– ommaviy axborot koʻlamining kengayishi tufayli oʻsmirlar ongli darajasining koʻtarilganligi;

– oʻgʻil va qizlarning dunyo voqealaridan, tabiat va jamiyat qonunlaridan, tarixdan yetarli darajada xabardorligi;

– ularning jismoniy va aqliy kamolotining jadallashgani;

– oʻsmirlar bilan ishlashda gʻoyaviy, siyosiy, vatanparvarlik va baynalminal tarbiyaga alohida yondashish zarurligi;

– oshkoralik ijtimoiy adolat demokratiya muammolarining ijtimoiy hayotga chuqur kirib borayotganligi;

– oʻquvchilar uchun mustaqil bilim, ongli ijodiy fikr yuritish, oʻz-oʻzini boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilganligi.

Kichik maktab va katta maktab yoshiga qaraganda oʻsmirlik yoshi ta'lim va tarbiya uchun ancha qiyin hisoblanadi. Buni quyidagilar bilan izohlash mumkin, ya'ni ta'lim jarayonida yangi materialni tushuntirishning eski shakli va metodlari sekinasta yaroqsiz boʻlib qoladi. Agar oʻquvchi yaqin-yaqinlarda batafsil tushuntirishlarini bajonidil eshitgan boʻlsa, endilikda yangi material bilan batafsil tanishtirish shakli koʻpincha oʻquvchilarni zeriktirib qoʻyadi, ularda befarqlikni yuzaga keltiradi, ularga ochiqdan ochiq ogʻirlik qiladi. Ilgarilari oʻquv materialini soʻzma-soʻz qayta tiklashga moyil boʻlgan oʻquvchi endilikda materialni oʻz soʻzlari bilan ifodalab berishga intiladi. Oʻqituvchi biror formula qonun-qoidani aniq esga tushirib aytib berishlarini talab qilganda oʻquvchi qarshilik bildiradi. Kechagina itoatkor, odobli boʻlgan oʻsmir toʻsatdan qoʻrslik, qoʻpollik, qaysarlik va intizomsizlik koʻrsata boshlaydi.

Oʻsmirlarda oʻzini anglashning muhim xususiyatlaridan biri oʻzini bilishga boʻlgan ehtiyoj bilan shaxsning namoyon boʻlishini yetarli darajada toʻgʻri tahlil qila olmasligi, oʻzi haqida yetarli darajada obyektiv bilimlarga ega emasligi oʻrtasidagi qarama-qarshilikdir, mana shu asosda ba'zan oʻsmirdagi tirishqoqlik darajasi bilan uning jamoadagi haqiqiy mavqei oʻrtasida, uning oʻz-oʻziga nisbatan, oʻz shaxslariga nisbatan boʻlgan munosabati bilan unga hamda uning shaxsining sifatlariga nisbatan kattalarning va tengdoshlarining munosabatlari oʻrasidagi ixtilof yuzaga keladi. A.G. Kovalyov adolatli ravishda ta'kidlaydi, oʻsmirlarda ikkita

bir-biriga qarama-qarshi, ammo har ikkisi ham ayni bir vaqtda salbiy bo‘lgan kechinmalarni, ya’ni boshqalardan ustunlik va kamlik hissini tug‘dirmaslik uchun o‘smir shaxsiga to‘g‘ri baho berishi muhimdir.

O‘smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim hisoblangan yangi xislatlarning tarkib topishi unda, ya’ni o‘smirda o‘ziga xos kattalik hissining yuzaga kelishidir. O‘smir bu hissiyotni o‘z-o‘ziga katta yoshli odam sifatida bo‘lgan shaxsiy munosabatlarni kattalar jamoasida ular hayotining to‘laqonli va to‘la huquqli a’zosi sifatida yashashga tayyor ekanligini subyektiv tarzda ichidan kechiradi.

Psixologlarning tadqiqotlari kattalik hissini xarakterli xislatlarini, uning mazmun va shakl tomonidan namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Kattalikning obyektiv tarzda namoyon bo‘lishi ijtimoiy-axloqiy doirada, intellektual faoliyatida, qiziqishlarda romantik munosabat elementlarida kuzatiladi. Kattalik hissi o‘smirning katta kishi sifatida o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatida va o‘zining kattaligini obyektiv e’tirof etish xohishida ifodalanadi. U ya’ni o‘smir tevarak-atrofdagilardan o‘ziga kattalardek munosabatda bo‘lishlarini talab qiladi, o‘z hayotining ayrim tomonlariga kattalarning aralashishidan himoya qilish xohishini namoyon qiladi va kattalarning qarshilik qilishlariga qaramay, o‘z qarashlari hamda o‘z mulohazalari ustida turishga harakat qiladi. Qisqacha qilib aytganda, A.G.Kovalyovning qayd qilishicha, birmuncha aktivroq ijtimoiy holatni egallash uchun yetilgan o‘smir uning bolalik chog‘larida tarkib topgan ilgarigi munosabatlarni parchalab, o‘zining hozirgi holati uchun kurasha boshlaydi.

Psixologik kuzatishlardan ma’lum bo‘lishicha, o‘smirlik yoshida o‘rtoqlari bilan bo‘lgan munosabatlarga intilish, o‘z tengdoshlari jamoasidagi hayotga intilish juda yorqin namoyon bo‘ladi. Qator tadqiqotlarda D.B. Elkonin, T.V. Dragunova o‘zgalar bilan bo‘lgan munosabatlarda kattalik hissi amalga oshiriladi va munosabatlarning ijtimoiy-axloqiy normalari o‘zlashtiriladi deb hisoblab, o‘smirlarning o‘rtoqlari bilan bo‘lgan munosabatlarini, hatto ular hayotining alohida doirasi sifatida ajratishga moyildir.

O‘smirlar yoshi uchun shaxsiy do‘st bo‘lish hissi, do‘stlarcha munosabatga bo‘lgan haqiqiy ehtiyojning sezilarli darajada rivojlanishi xarakterlidir. O‘smirlar: «Do‘stsiz hayotni tasavvur qila olmayman», «Do‘stlik – bu insonda bo‘lishi mumkin bo‘lgan eng yaxshi fazilatdir», deb hisoblaydilar. Do‘stlik motivlari ancha chuqur bo‘ladi. Agar ilgarilari do‘st o‘z-o‘zidan topilib qolgan bo‘lsa, endilikda o‘smir do‘stlik qachon kelar ekan, deb passiv poylab o‘tirishga moyil emas.

O‘smir yaqin o‘rtog‘ini, do‘stni topishga aktiv ravishda intiladi, ana shu nuqtayi nazarda o‘z sinfdoshlarining tegishli sifatlarini sinab ko‘radi. D.B. Elkonin, T.V. Dragunovlar do‘st qidirish yuzasidan maxsus faoliyat borligi haqida gapiradilar. Ularning termonologiyalariga ko‘ra, bu faoliyat «taxminan sinab ko‘rish» xarakteriga ega bo‘ladi.

## 5.2. O‘smirlik davrida kasb tanlash

O‘smirlik davrida kasb tanlash ijtimoiy foydali mehnatga o‘z hissasini qo‘shish zarurligini anglash natijasida kasbga yo‘naltirish.

Proforientatsiya – yoshlarni xohish-istaklari, qiziqishlari, qobiliyatlariga qarab xalq xo‘jaligining mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda psixologik-pedagogik va tibbiy kasbga yo‘naltirish. Kasb tanlashga ta’sir etuvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

– o‘quvchilarni kasb tanlashga o‘rgatishda o‘qituvchilar jamoasi faoliyati hamkorligi va samaradorligi;

– kasb tanlashda yoshlar tashkilotining ishtiroki;

– sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlar mazmunida kasb tanlashning alohida ajratib ko‘rsatilishi;

– maktablarda ishlab chiqarish kombinatlarida ommaviy va keng ko‘lamda yo‘lga qo‘yilishi;

– maxsus muassasalar faoliyati;

– kasbga oid ko‘rgazmalar, sayohatlar uyushtirilishi;

– ijodkor, nufuzli, mahoratli kishilar bilan uchrashuvlar o‘tkazilishi;

– kasb tanlashda mahalliy matbuot, radio va televideniyaning ishtiroki.

Psixolog K.K.Platonov «Kasb tanlashga yo‘naltirish uchburchagi» sxemasini ishlab chiqqan, u o‘zining ixchamligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Xuddi shu bois kasb tanlashga yo‘llashda undan unumli foydalanish mumkin.

Kasb tanlashga yo‘naltirish uchburchagining muhim tomoni bu har xil kasb-hunar egasiga nisbatan qo‘yiladigan talablar yuzasidan muayyan bilimning mavjudligidir. Uning ikkinchi bir xususiyatli tomoni shuki, u yoki bu mutaxassislikka nisbatan jamiyatning mehnat imkoniyatiga ehtiyoji bo‘yicha bilimlar mujassasmlashganligidir. Yana bir o‘ziga xos tomoni shundan iboratki, kasbga yo‘naltiruvchining qunti, qobiliyati, shaxsiy xususiyatlari bo‘yicha bilimlar umumlashtirilgan bo‘lib, kasb tanlashga oid barcha jihatlar majmua holiga keltirilgandir.

Kasb tanlashga yo‘naltirilgan uchburchagi shaxsning qiziqishi, mayli, xohishi, o‘zini o‘zi baholashi, nufuzi kabilarga oid materiallarni o‘zida mujassamlashtiradi.

V.A.Krutetskiy o‘spirinlarda uchrash mumkin bo‘lgan motivlardan quyidagilarni alohida ta’kidlab o‘tadi:

– biror o‘quv faniga nisbatan o‘spirinning qiziqishi;
– vatanga foyda keltirish istagi;
– shaxsiy qobiliyatini ro‘kach qilib ko‘rsatish;
– oilaviy an’analariga rioya qilishi;
– do‘stlari va o‘rtoqlaridan o‘rnak olganligi;
– ish joyining va o‘quv yurtining uyga yaqinligi;
– moddiy ta’minlanganlik;
– o‘quv yurti ko‘rinishining chiroyliligi yoki unga joylashishining osonligi singari motivlardir.

Psixolog E.A.Klimov tomonidan o‘spirinlarda kasb tanlash jarayonida uchraydigan xatoliklarni quyidagilar deb ajratib ko‘rsatadi:

– biror-bir kasbning nufuzli ekanligiga baho berishdagi fikrlarga asoslanish;
– kasbga uzoq va noaniq tasavvurga binoan baho berish;
– biror kasb egasi bo‘lmish kishiga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatda bo‘lishni tegishli kasbga ko‘chirish;
– kasbning oddiy kundalik tomonini nazar-pisand qilmasdan uning tashqi tomoniga sirtiga mahliyo bo‘lish;

– o‘rtoqlarining ta’siri ostida kompaniya uchun kasb tanlash va boshqalar.

G. Kulagin ham maktabni bitirib chiqayotganlar orasida turli kasblarning qanday mavqega ega ekanligi haqida yorqin ma’lumotlar keltiradi. Ana shu yoshlar 80 ta kasbni muhimligiga qarab qo‘yib chiqqanligini ko‘rishimiz mumkin, unga ko‘ra tokar va usta kasblarini 39–40 o‘ringa qo‘ygan bo‘lsalar ayrimlari 75–76 o‘ringa qo‘yishgan.

Kasbiy niyatlarning barqarorligini o‘rganish maqsadida N.I. Krilov o‘tkazgan tekshirish shuni ko‘rsatadiki, hatto o‘z niyatlarini amalga oshirib oliy o‘quv yurtiga kirgan talabalar orasida ham ko‘plari o‘zlarining kim bo‘lishlarini oxirigacha hal qilmaganlar. Bunga sabab maktabni bitirgan yoshlarni mazkur oliy o‘quv yurtiga olib kelgan kasb haqidagi tasavvur bilan, bu kasbning haqiqiy amaliy mazmuni o‘rtasidagi nomuvofiqlikdir. Ko‘plari mazkur oliy o‘quv yurtiga tasodifan kirgan bo‘ladilar «otam ham vrach bo‘lgani sababli kirdim», «o‘rtog‘im kirayotgani sababli kirdim, chunki bu yerga kirish osonroq bo‘ldi» va hokazo.

A.V. Darinskiy yoshlar oliy ma’lumot olishining ijobiy tomonlari bilan birga salbiy tomonlari ham mavjudligini ko‘rsatib o‘tadi:

– ilk o‘spirinlar o‘zlari tanlagan oliy o‘quv yurtga kirish uchun imtihon topshiradigan 3–4 ta fanni chuqur o‘rganishni mo‘ljallaydilar, xolos. Boshqa fanlarni o‘rganishga vaqt sarflash oqilona va samarali ish deb hisoblanmaydi, uch baho olsa bo‘lgani;

– tanlagan fanlarini o‘rganish ham to‘g‘ri ko‘rsatib o‘tilganidek oliy o‘quv yurtiga kirish imtihonlari topshirish talablariga mos keladigan pragmatik xarakterga ega bo‘ladi.

## 5.3. O‘smirlik davri va kasb etikasi kategoriyalarining ahamiyati

*Kasb etikasining kategoriyalari.* Har bir fanning o‘z kategoriyalari bo‘lgani kabi o‘smirlik davri yoshlarning ham kasb etikasi va estetik madaniyati kategoriyalari mavjud. «Kategoriya» so‘zi yunoncha bo‘lib, lug‘aviy ma’nosi «hukm», «guvoh», «ifodalash», «ta’rif berish», «fikr aytish» demakdir.

Kasb etikasi fanining kategoriyalari boshqa fanlarning kategoriyalaridan o‘zining bir qator xususiyatlari bilan farq qiladi:

Birinchidan, etika kategoriyalari faqat axloqshunoslik sohasida emas, balki boshqa fan sohalarida ham qo‘llaniladi. Har qanday nazariya, kashfiyot va ilmiy qarashning zaminida ma’lum qadriyat bor, ya’ni u mazkur ish nima maqsadda qilingan, u yaxshimi yoki yomon narsami, degan savoldan tashqarida bo‘lolmaydi. Shunday qilib, amaliyotda axloqiy faoliyatdan tashqarida bo‘lgan narsaning o‘zi yo‘q.

Ikkinchidan, etika kategoriyalari (masalan, vatanparvarlik, adolat, javobgarlik va h.k.) bir vaqtning o‘zida boshqa fanlar – siyosiy, iqtisodiy va huquqiy fanlarning ham kategoriyalari hisoblanadi. Bu axloqiylikning, uning in’ikosi bo‘lgan axloq kategoriyalarining sintez qilish xususiyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Sintez, bir tomondan, axloqiy tarbiya uchun boshqa fan jabhalarini o‘zida mujassamlashtirgan holda ish ko‘rishini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, boshqa fan kategoriyalariga axloqiy mazmun bag‘ishlashini, ularning axloqiylikdan tashqarida emasliklarini ham ko‘rsatib beradi.

Uchinchidan, etika kategoriyalari o‘zining keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Bu kategoriyalar inson hayotining barcha jabhalarini, ya’ni tug‘ilishidan hayotining so‘nggi kunlarigacha bo‘lgan mehnat, sevgi, kundalik odob-axloq, xulq, muomala – hammasini o‘zida umumiy tarzda aks ettirishi bilan ajralib turadi.

To‘rtinchidan, etika kategoriyalari kishilar xatti-harakatlari, xulq-avtorlarini jamiyat talablari nuqtayi nazaridan ma’qullash yoki qoralash, ya’ni axloqiy baholash xususiyatiga egadir.

O‘smir shaxsining etika kategoriyalariga quyidagilar kiradi:

**Yaxshilik va yomonlik.** «*Yaxshilik» tushunchasi va uning mohiyati.* Yaxshi deganda, odatda, kishining biror talabiga to‘la javob beradigan, unga yoqadigan, ma’lum bo‘lgan xatti-harakatlar, narsalarning ijobiy sifatlari tushunilsa, yaxshilik deganda esa ixtiyoriy ravishda biror kishining manfaatini ko‘zlab ish tutish, unga manfaat yetkazish, xayrli, ezgu ishlarni amalga oshirish tushuniladi.

Yaxshilik o‘zining kundalik oddiy tushunchasidan tashqari, etika fanining kategoriyasi sifatidagi ta’rifiga ham egadir.

Yaxshilik deb, tevarak-atrofda sodir bo‘layotgan hamma voqea, hodisa va vujudga kelayotgan narsalarning insonni e’zozlaydigan, uning manfaat va ehtiyojlarini qondiradigan, axloqiy ideallariga mos keladigan, odamgarchiligining o‘sishini har tomonlama ta’minlaydigan, pirovardida baxtli hayot kechirishiga xizmat qiladigan barcha ijobiy tomonlarining yig‘indisiga aytiladi.

*«Yomonlik» tushunchasi va uning mohiyati.* Yomon odam deganda, odatda, fe’l-atvori buzuq, yaramas, razil odam; yomonlik deganda esa, o‘zining fe’l-atvori, qilgan ishlari bilan atrofdagilarga zarar yetkazuvchi axloqan buzuq, yaramas odamlarning xatti-harakatlari tushuniladi.

Umuman olganda, yaxshi xulq egasi bo‘lish – yaxshilik, yomon xulqlilik yomonlik hisoblanadi. Chunonchi, jamiyatning moddiy va ma’naviy farovonligini oshirishga qarshi qaratilgan barcha xatti-harakatlar yomonlikdir.

Yomonlikni oddiy tushunish va falsafiy, ya’ni kategoriya sifatida tushunish mavjud.

Yomonlik deb, jamiyatning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi, kishilarning axloqiy ideallariga, ular e’zozlaydigan qadriyatlarga zid keladigan, baxtga erishishga, odamlar orasidagi munosabatlarda axloqiy taraqqiyotning qaror topishiga va insoniylikning o‘sishiga zid keladigan xatti-harakatlarni o‘zida mujassamlashtirgan tushunchalar yig‘indisiga aytiladi.

Yaxshilik va yomonlik to‘g‘risida hadislarda shunday deyilgan: «Yaxshilaringiz xushxulq bo‘lib, kishilarga yon beruvchi, ya’ni atrofida yaxshi hayot kechirishga imkon beruvchi kishilardir. Yomonlaringiz mahmadona, dilozor, kishilar rohatini buzuvchi kishilardur».

«Yaxshilaringiz farzni yaxshi ado etuvchi kishilardir».

«Yaxshilaringiz o‘z aqliga, oila va a’zolariga yaxshi bo‘lganlaringizdir».

«Kimga yaxshilik qilay», – deb so‘ragan sahobaga uch marta «onangga» deb, to‘rtinchisida «otangga» deb aytdilar. «Ya’ni yaxshilikni onangga, onangga, onangga, so‘ngra otangga qil, dedilar».

**Vijdon va vijdonsizlik**

*«Vijdon» kategoriyasi*. Vijdon deganda, odatda, kishining o‘z xatti-harakati, qilmishi, yurish-turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi mas’uliyat tuyg‘usi tushuniladi. Vijdon deb o‘smir shaxsining o‘z axloqiy xatti-harakatlarini va bu xatti-harakatlarga bog‘liq bo‘lgan his-tuyg‘ulari, kechinmalarini davlat, jamiyat tomonidan joriy qilingan axloqiy normalar nuqtayi nazaridan baholovchi va nazorat qiluvchi ichki tuyg‘ularining majmuasiga aytiladi.

Vijdonning tarkibiy tuzilishi, birinchidan, o‘ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lish, erishgan muvaffaqiyatlardan o‘zini yo‘qotmaslik, ichki jihatdan qoniqish hosil qilish, ikkinchidan, o‘z shaxsiy manfaatlaridan kechib, o‘zini jamiyat manfaatlari yo‘lida baxshida etish kabi ichki tuyg‘ularni qamrab olganligini ko‘ramiz.

Vijdon insonning faqat o‘ziga, o‘z xatti-harakatlarigagina emas, balki boshqa kishilarga, ijtimoiy manfaatlarga munosabatini ham ifoda etadi. «Vijdonning buyuk qudrati bor, – deb yozgan edi qadimgi yunon mutafakkiri Sitseron, – gunohsizni har qanday qo‘rquvdan forig‘ etgani holda va gunohkorning tasavvurida u o‘zi loyiq bo‘lgan hamma jazolarni muttasil tiklagani holda, ikkovini ham baravar hayajonga solib turadi».

**Burch, or-nomus va qadr-qimmat**

«Kasb burchi» tushunchasi va uning ahamiyati. Inson ijtimoiy mavjudoddir. U jamiyat hayotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko‘p qirrali faoliyat yuritadi, ana shu jarayon davomida turli xil kishilar, guruhlar bilan aloqada bo‘ladi. Har qanday aloqadorlik esa odamga qandaydir majburiyat yuklaydi, ana shu majburiyatni bajarish burchni keltirib chiqaradi. Shunday qilib, burch, oddiy qilib aytganda, ado etilishi, bajarilishi shart bo‘lgan vazifa, majburiyatdir.

Burchning manbaini, asosini ijtimoiy manfaatlar tashkil etadi. Burchda manfaat buyruq shaklida maydonga chiqadi.

*«Or-nomus («sha’n») va «qadr-qimmat» kategoriyalari*. Or deganda, odatda, o‘ziga nomunosib yoki ep ko‘rmagan ishdan, narsadan xijolat tortish, uyalish, nomus qilish tushunilsa, nomus deganda kishining o‘z obro‘sini ulug‘lashi va ardoqlashi, ori-

yat, diyonat, uyat-andisha qilish, sharm, hayo tushuniladi. Shunga ko‘ra, oriyatli odam deb or-nomusini biladigan, o‘z obro‘yini qadrlaydigan kishilarga aytilsa; nomusli odam deb uyat-andishani biladigan, sharm-hayoli kishilarga aytiladi.

«Or-nomus» kategoriyasi bilan bir qatorda inson faoliyatining axloqiy tomonlarini ifodalovchi «qadr-qimmat» kategoriyasi ham mavjud.

Qadr-qimmat deb o‘smir shaxsining jamiyatda, kishilar orasida tutgan o‘rni, topgan obro‘si, hurmati va nufuziga aytiladi. «Or-nomus» kategoriyasi shaxs axloqining tashqi tomonlarini ifodalasa, qadr-qimmat kategoriyasi esa insonning o‘z-o‘zini anglashi va nazorat qilishini ifodalaydi. Qadr-qimmat o‘z qadrini anglash shakli bo‘lib, insonni kamsitadigan, xo‘rlaydigan va shu bilan uning boshqa kishilar ko‘z o‘ngida o‘z qimmatini yo‘qotishiga sabab bo‘ladigan qiliqlarga yo‘l qo‘ymaydigan to‘siq hisoblanadi.

Yuqorida zikr qilingan axloq kategoriyalaridan tashqari, «baxt», «hayotning ma’nosi», «imon», «adolat» kabi kategoriyalar ham mavjuddir.

Bu kategoriyalar, garchand umumiy kategoriyalar bo‘lsa-da, o‘smirlik shaxsining amaliy faoliyatida qo‘llanishida aniqlik, ya’ni o‘ziga xoslik kasb etadi.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. O‘smirlik davri psixologik xususiyatlari.
2. O‘smirlik davrida inqiroz.
3. O‘smir psixik o‘sishini harakatga keltiruvchi kuchlar.
4. O‘smirlik davri va do‘st munosabatlari.
5. O‘smirlik davri va kasb tanlash muammolari.
6. Kasbiy etika kategoriyalari.
7. O‘smirlik davrida qanday etika kategoriyalarini bilasiz?

# 6-mavzu: SHAXSNING KASBIY ETIKA VA KOMMUNIKATSIYANING RIVOJLANISHIDA INDIVIDUAL XUSUSIYATLARNING O‘RNI

**Reja:**

1. Shaxs irodaviy xususiyatlarining ahamiyati.
2. Kasb tanlashda hissiyotning o‘rni.
3. Shaxs va temperament tiplari.

**Darsning maqsadi:** shaxsning irodaviy xususiyatlari to‘g‘risida tushuncha, ixtiyoriy harakatlar, irodaviy akt va uning tuzilishi, irodaviy sifatlar haqidagi bilimlar, hissiyot, emotsiya, hissiy holatlarning ifodalanishi, yuksak hislar haqidagi bilimni shakllantirish, temperament haqida tushuncha, uning fiziologik asoslari, temperament tiplarining tavsifnomasi haqidagi bilim, ko‘nikma, malakalarini shakllantirish.

*Mavzuning tayanch so‘zlari:*

iroda, irodaviy akt, irodaviy sifatlar, hissiyot, emotsiya, yuksak hislar, temperament, o‘z irodasini tarbiyalash, affekt, stress praksik hislar, estetik his, xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik.

## 6.1. Shaxs irodaviy xususiyatlarining ahamiyati

*Shaxsning irodaviy sifatlari.* Kishining irodaviy sifatlari, ya’ni iroda kuchi, mustaqilligi jihatidan ayrim hollarda turlicha namoyon bo‘ladi. Har bir kishida irodaning ayrim sifatlari umr bo‘yi mustahkamlanib, shu odamning xususiy sifatlari (ya’ni doimiy xislatlari) bo‘lib qolishi mumkin. Shaxsning bu o‘ziga xos xususiyatlari xarakter xislatlari deb ataladi. Har bir kishidagi biron-bir irodaviy sifatlarning har qanday namoyon bo‘lishi shu kishi xarakterining xislati bo‘lavermaydi. Ayrim hollarda hatto tasodifiy ravishda kishi kuchli iroda ko‘rsatishi mumkin, ayrim hollarda mazkur kishining irodasi, umuman kuchli iroda kuchi shu kishi xarakterining xislati ekanligidan dalolat beravermaydi. Bu kishining irodasi kuchli deb aytish uchun uning iroda kuchini bir marta emas, bir necha marotaba namoyon qilganini bilmoq

kerak. Kishining xarakterini ta'riflaganimizda falon kishi dadillik qildi, rost gapirdi demasdan, balki bu odam dadil, rostgo'y, to'g'riso'z deb ataymiz.

Buning ma'nosi shuki, dadillik va rostgo'ylik, to'g'riso'zlik shu odamning xususiyatlaridir, xarakter xislatlaridir, tegishli sharoitda bu kishi dadillik, rostgo'ylik, to'g'riso'zlik xislatlariga ega ekanligini namoyon qildi, deb aytamiz. Kishi xarakterini, xislatlarini bilib olgach, uning biron ish-harakatda qanday yo'l tutishini ancha aniq bilib olamiz, oldindan aytib bera olamiz. Iroda kuchi irodaning muhim sifatidir. Iroda kuchining turli darajasi irodaviy jarayonning hamma bosqichlarida ko'rinadi. Iroda kuchi avvalo ehtiyojlarni his qilishda va intilishda ko'rinadi, biz kuchli hamda kuchsiz intilishlarni, kuchli hamda kuchsiz xohishlarni farq qilamiz. Xarakter xislati bo'lgan sabot-matonat ba'zi kishilar faoliyatining hamma sohalarida namoyon bo'ladi, boshqa kishilarda esa bu xislat ularning manfaatlari bilan bog'langan va ayrim faoliyat sohalarida ko'rinadi. Tashabbuskor kishi shaxsiy hayotida ham, ijtimoiy faoliyatida ham vaziyat va turmush talablarini hisobga ola biladi, shu bilan bir vaqtda vazifalarni ilgari suradi, qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun yo'l va vositalarni tanlaydi va bu vazifalarni hal etishda faol ishtirok etadi.

Mustaqillik qilinmagan va qilingan ish-harakatlar uchun javobgarlik sezishda ko'rinadi. Javobgarlikni sezish ayni harakatlarning to'g'riligiga, maqsadga muvofiq ekanligiga va zarurligiga ishonch hosil qilish demakdir. Irodaning axloqiyligi hayot va faoliyatda iroda kuchi, uning mustaqilligiga ijobiy yoki salbiy baho berganda qanday to'sqinlik va qiyinchiliklar bartaraf qilinganligini nazarda tutish bilangina cheklanib qolmay, asosan kishining axloqiy qiyofasi irodaviy harakatlarda qanchalik ifodalanishi, biron odamning irodasi naqadar axloqiy ekanligi ham nazarda tutiladi.

Nerv-fiziologik asosi: irodaviy, ya'ni ixtiyoriy harakatlarning nerv-fiziologik asosida bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'ining shartli reflekslar hosil qilishdan iborat bo'lgan murakkab faoliyati yotadi. Irodaviy harakatlar har doim to'la ongli harakatlar bo'lgani uchun bosh miya po'stlog'ida yuza-

ga keladigan optimal qo‘zg‘alish manbalari bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Bu haqda akademik I.P. Pavlov shunday deb yozgan edi: «Mening tasavvurimcha, ong ayni shu chog‘da xuddi shu sharoitning o‘zida ma’lum darajada optimal (har holda o‘rtacha bo‘lsa kerak) qo‘zg‘alishga ega bo‘lgan bosh miya katta yarim sharlarining ayrim joylaridagi nerv faoliyatidan iborat». Bundan tashqari irodaviy harakatlar ongli harakatlar sifatida ikkinchi signallar tizimining faoliyati bilan bog‘liqdir.

Ma’lumki, odam ayrim nojo‘ya harakatlardan o‘zini so‘zlari orqali (ya’ni o‘ziga-o‘zi pand-nasihatlar qilish yoki tarbiya berish orqali) ushlab qoladi. Shuning uchun irodaviy, ixtiyoriy harakatlarni amalga oshirishda ikkinchi signallar tizimining roli juda kattadir. Ana shu sababdan bo‘lsa kerak akademik I.P. Pavlov ikkinchi signallar tizimiga baho berib, bu signallar tizimi insonlar xulq-atvori va ixtiyoriy harakatlarining yuksak boshqaruvchisidir», – degan edi. Shuni ham aytish kerakki, iroda ikkinchi signallar tizimi birinchi signallar tizimiga asoslangan holda ishlaydi. Agar ikkinchi signallar tizimi o‘z faoliyatida birinchi signallar tizimiga asoslanmasa, odamning aks ettirish jarayoni ma’lum bir tizimli, ma’noli bo‘lmaydi. Ikkinchi signallar tizimi birinchi signallar tizimiga asoslanishi bilan birga uning faoliyatini boshqarib, nazorat qilib turadi. Demak, irodaviy, ixtiyoriy harakatlarda ikkinchi signallar tizimi bilan birga birinchi signallar tizimi ham ishtirok etadi.

Irodaviy ixtiyoriy harakatlarni amalga oshirishda nerv tizimining umumiy normal holati ham juda katta ahamiyatga egadir. Masalan, uzoq davom etadigan qattiq kasallikdan so‘ng nerv tizimi nihoyatda madorsizlanib, odamning irodasi bo‘shashib ketadi. Odam biror ishdan qattiq charchagan paytda ham nerv tizimi zaiflashib, irodasi bo‘shashib ketadi. Ana shuning uchun irodaning mustahkamligini ta’minlash maqsadida odam vaqti-vaqti bilan dam olib turishi kerak.

**Iroda akt va uning tuzilishi.** Ixtiyoriy harakatning dastlabki boshlang‘ich nuqtasi harakat maqsadining vujudga kelishi va shu maqsadning o‘rtaga qo‘yilishidir va uning tuzilishini quyidagicha izohlash mumkin. Maqsad – kishining shu paytda ma’qul yoki zarur deb topgan ish-harakatini tasavvur etish demakdir.

Masalan, inson pedagogika universitetiga kirib o‘qishni zarur deb topdi yoki viloyatga ish bilan borib kelish zarurligini tushundi, deylik. Bularning hammasida kishining maqsadi o‘z-o‘zidan zarur bo‘layotganga o‘xshaydi, ba’zan esa bu maqsad bir qadar fikr yuritish natijasida yuzaga keladi. Ehtiyoj ko‘ngildan o‘tgan, mudom kuchaygan shu ehtiyojni qondirishga intilish maqsadi ham anglanila boshlaydi. Bunday anglanilgan ehtiyojlar tilakhavaslar deb ataladi.

**Harakat motivlari va motivlar kurashi.** Kishi biron maqsadni, ayniqsa, shu maqsadga yetish uchun biron yo‘l va usulni tanlar ekan, nega boshqa maqsadni emas, xuddi shu maqsadni tanlashi kerak, bu maqsad nima uchun boshqa yo‘llar bilan emas, balki mana shu yo‘llar bilan hal etishi kerak, degan savolni ko‘ngildan o‘tkazadi. Maqsadni va unga yetish yo‘lini tanlash jarayonida unga ma’qul yoki noma’qulligi nuqtayi nazaridan baho beriladi. Maqsadni va unga yetishish yo‘llarining ma’qulligi yoki noma’qulligini belgilab beradigan hamma narsa ish-harakat motivlari deb ataladi. Kishi nega boshqa bir maqsadni emas, balki xuddi shu vositalar bilan ish ko‘rishni, yoki ish ko‘rmoqchi bo‘layotganining sababi nima degan savolga javob motiv mazmunini tashkil etadi.

**Qarorga kelish.** Maqsadga yetishish yo‘llarini va vositalarini tanlash jarayonida rejalashtirish, motivlar kurashi bilan bog‘langan bo‘lib, qarorga kelish bilan tugaydi. Qarorga kelish muayyan bir maqsadni va shu maqsadga erishish yo‘lida harakat usullaridan birini tanlab olish demakdir. Motivlar kurashida buning ma’nosi shuki, motivlardan biri hal qiluvchi rol o‘ynagan bo‘ladi. Masalan, kechqurun qayoqqa borish kerak — teatrgami yoki o‘rtog‘ining yonigami, degan motivlar kurashi natijasida kishi bormoqchi bo‘lgan joyi haqida qarorga keladi.

**Qarorni ijro etish.** Qaror unga muvofiq keladigan choralar ko‘rish va harakat qilish uchun qabul qilinadi. Qarordan harakatga o‘tishni ijro qilish (yoki bajarish) deyiladi. Irodaviy jarayonda eng muhim narsa qabul qilingan qarorni ijro etishdir. Irodaviy harakatlar ikki xil bo‘ladi: jismoniy va aqliy harakatlar. Jismoniy harakatlarga har xil mehnat operatsiyalari, o‘yin, sport mashg‘ulotlari va boshqalar kiradi. Aqliy harakatlarga esa masala yechish, yozma ishlar, dars tayyorlash, ilmiy tadqiqot ishlarini

olib borish va shu kabilar kiradi. Ko‘p vaqt takrorlanib, o‘zlashib ketgan ko‘nikma va odat bo‘lib ketgan harakatlar ham murakkab irodaviy harakatlardandir.

Irodaviy zo‘r berish, qabul qilingan qaror to‘g‘ridan to‘g‘ri, avtomatik ravishda amalga oshirilavermaydi. Qabul qilingan qarorni amalga oshirish uchun ongli ravishda irodaviy zo‘r berish ham kerak. Irodaviy zo‘r berish ongning avvalo nerv-muskul apparatining zo‘riqishida ifodalanadi va organizmning tashqi ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi. Irodaviy zo‘r berishning ana shu ifodali tomoni odamning iroda holatini tasvirlovchi badiiy asarlarda gavdalantirilganini ko‘p uchratish mumkin.

## 6.2. Kasb tanlashda hissiyotning o‘rni

Hissiyot tushunchasiga adabiyotlarda turlicha ta’riflar uchraydi, jumladan, A.V. Petrovskiy tahriri ostida chiqqan «Umumiy psixologiya» darsligida hissiyot – kishining o‘z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg‘ul bo‘layotganiga nisbatan o‘zicha turli xil shaklda bildiradigan kichik munosabatdir. M. Vohidovning «Bolalar psixologiyasi» o‘quv qo‘llanmasida hissiyot deb – tashqi olamdagi narsa va hodisalarga bo‘lgan ichki kechinmalarimizning ongimizda aks ettirilishiga aytiladi.

G.Turg‘unov muallifligidagi lug‘atda hissiyot shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlarida kelib chiqadigan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalardan iborat. Professor E.G‘oziyev muallifligidagi «Umumiy psixologiya» darsligida hissiyot odamda, tirik mavjudodlar miyasida, ya’ni shaxslarning ehtiyojlarini qondiruvchi va unga monelik qiluvchi obyektlarga nisbatan uning munosabatlarini aks ettirish ma’nosida qo‘llaniladi.

Yuqoridagi ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, hissiyot bizning tuyg‘ularimizning o‘ziga xos aks ettirish jarayoni bo‘lib, bunda narsa va hodisalarni aks ettirish jarayonida bizda tug‘iladigan ichki kechinmalar va munosabatlar aks ettiriladi. Demak, hissiyotlar o‘z-o‘zidan yuzaga kelmasdan, tashqi olamdagi narsa va hodisalarning ta’siri bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladi. Adabiyotlarda hissiyot bilan birga emotsiya tushunchasi ham

keng doirada qo‘llaniladi. Aynan emotsiya tushunchasining mazmuni nimadan iborat va hissiyot tushunchasi bilan o‘zaro bog‘liqligi qanday degan savol tug‘iladi. Shunga muvofiq emotsiya tushunchasining mazmun-mohiyatini yoritadigan bo‘lsak, jumladan, professor E.G‘oziyevning «Umumiy psixologiya» darsligida emotsiya odatda tashqi alomatlari yaqqol namoyon bo‘ladigan his-tuyg‘ularni, ichki kechinmalarni ifodalanishidan iborat psixik jarayon yuzaga kelishining aniq shaklidir, deb ta’riflanadi.

Emotsiya – shaxsning voqelikka o‘z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog‘liq bo‘lgan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalaridir. Keltirilgan ta’riflardan ko‘rinadiki, hissiyot tushunchasi emotsiyaga nisbatan kengroq tushuncha bo‘lib, shaxsning kundalik hayoti, turmush tarzidagi barcha jabhalarni qamrab oladi. Hissiyot boshqa hamma psixik jarayonlar kabi bosh miya po‘sti qismining faoliyati bilan bog‘liqdir. Bosh miya hissiyotlarning kuchini va barqarorligini idora qilib turadi.

Hissiyotlar boshqa bilish jarayonlaridan farqli bosh miya po‘stining faoliyatidan tashqari organizmning ichki a’zolari faoliyati bilan ham bog‘liqdir, boshqacha qilib aytganda hissiyotlar vegetativ nerv tizimining faoliyati bilan ham bog‘liqdir. Chunonchi, odam qattiq uyalgan paytida qizarib ketadi, qattiq qo‘rqqan paytida esa rangi o‘chib, qaltirab ketadi, hattoki odamning ovozida ham o‘zgarish paydo bo‘ladi. Ana shunday hissiy holat yuz bergan paytda odamning yuragi tez ura boshlaydi, nafas olishi ham tezlashadi.

**Hislarni kechirish shakllari.** Hissiyot kechinmalari turli holatlarda turlicha tezlik bilan paydo bo‘ladi. Ba’zan hissiyot to‘satdan, darhol paydo bo‘ladi. Hissiyotning qo‘zg‘alish xususiyatlari paydo bo‘lish yo‘lini kuchi va barqarorligi bir qancha sabablarga bog‘liqdir. Atrof-muhitning holati shu paytdagi ehtiyojlarning kuchi shu xislat tuzilishiga sabab bo‘lgan hodisalarning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini anglashi, odamning dunyoqarashi, bu xislat qanday vaziyatda paydo bo‘lishi va o‘tmishi hamda shaxsning individual xususiyatlariga bog‘liqdir. Hislarning ayni vaqtda naqadar tez kuchli va barqaror bo‘lishiga ko‘ra his-tuyg‘ularning

quyidagi turlari farqlanadi: hissiy ton, emotsiyalar, affekt, stress, kayfiyat va boshqalar.

**Hissiy ton.** Hissiyot ko‘pincha faqat hissiy tus sifatidagi ruhiy jarayonlarning o‘ziga xos tomoni tariqasida namoyon bo‘ladi. Yoqimli suhbatdosh, kulgili voqea, yoqimsiz hid, zerikarli kitob, ko‘ngildagi mashg‘ulot, xushchaqchaq sayohat, og‘ir ish kabilar. Ko‘pincha emotsiyalar o‘zining ta’sirchanligi bilan bir-biridan ajralib turishiga qaramay, bunday sifatni hissiy holatlar stenik (yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, kuch degan ma’noni anglatadi) xususiyatli deyiladi. Bunda emotsiyalar dadil xatti-harakatlarga, mantiqiy mulohazalarga, nisbiy izlanishlarga kuch-quvvat, qanoat bag‘ishlaydi. Ba’zi hollarda emotsiyalar o‘zining sustligi, motorli, kuchsizligi bilan tavsiflanadi. Bunday hissiy holat astenik (yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, kuchsizlik, zaiflik ma’nosini bildiradi) deb ataladi. Bunday hissiyot insonni bo‘shashtiradi, uni xayolga cho‘mdiradi, xayolparast qilib qo‘yadi. Shu sababdan favqulodda shaxsdagi befoyda emotsional kechinmaga, uyalish, vijdon azobi, andisha esa qo‘rqoqlikka aylanib qolishi xavfi kuchli.

Kayfiyat tushunchasiga psixologik manbalarda turli nuqtayi nazardan yondashilgan taqdirda ham mazmunan ular bir xillikni anglatadi.

Affekt tushunchasiga berilgan ta’riflarga asosiy e’tiborni qaratadigan bo‘lsak, bu ham shaxsning kuchli emotsional holatlari bilan bog‘liqdir. Affekt lotincha so‘z bo‘lib, ruhiy hayajon, ehtiros degan ma’noni anglatadi. Affektlar ko‘pincha to‘satdan paydo bo‘ladi va ba’zan bir necha minut davom etadi. Affekt holatida kishi ongini tasavvur qilish, fikr qilish qobiliyati torayadi, susayib qoladi.

Stress tushunchasining mazmun-mohiyati borasida qator ta’riflar uchraydi. Stress inson organizmining haddan tashqari zo‘riqishi natijasida paydo bo‘ladigan tanglik jarayonidir.

**Yuksak hislar.** Hissiy jarayonlarning har xil shakllari normal odamda alohida, yakka holda mavjud bo‘lmaydi. Yuzlab va minglab kechirilayotgan emotsiyalar, affektlar, kayfiyatlarda aniq yashaydigan umumlashtirilgan hislar yuksak hislar deyiladi. Yuksak hislar o‘z tarkibiga birinchi soddaroq ko‘rinishdagi turli his-

larni oladi. Inson faoliyatining qaysi bir turi, yoki qaysi bir sohasi, hislarni qaysi birining asosiy ekanligiga qarab, yuksak hislarning muhim turlari: praksik, axloqiy, intellektual, estetik turlari ajratiladi.

*Praksik hislar* – inson amaliy hayotining istalgan sohasi maqsadga muvofiq aqliy faoliyatiga, shaxsning ularga nisbatan muayyan munosabatda bo‘lish sohasiga aylanib qoladi.

*Axloqiy hislar* – odamning boshqa kishilarga, jamoa va o‘zining ijtimoiy burchlariga bo‘lgan munosabatlarida ifodalanadi. Inson bu hislarni kechirar ekan, ma’lum axloqqa, ya’ni ijtimoiy axloq qoidalari va normalari majmuiga asoslanib, boshqa kishilarning xatti-harakatlariga yoki ruhiy xususiyatlariga hamda o‘zining xatti-harakatlariga baho beradi. Estetik hislar ham yuksak axloqiy hislardan hisoblanadi.

*Estetik his* deganda biz go‘zallikni idrok qilish, go‘zallikdan zavqlanish va go‘zallik yaratishga intilishni tushunamiz. Estetik hissiyot hamma odamlarga xos bo‘lgan hissiyotdir. Atrofdagi tabiat manzaralari estetik hissiyotlarimizning birinchi manbai hisoblanadi. Masalan, bahor faslidagi tog‘ manzaralari, yaylovlarda qo‘y va qo‘zichoqlarning o‘tlab yurishlari, baland qorli qoyalarni uzoqlardan mag‘rur turishlari odamda estetik lazzatlanish hissini tug‘diradi yoki xuddi dengizdek ko‘z ilg‘amaydigan ko‘m-ko‘k paxtazorlar, uzoqlarda chiroyli bo‘lib ko‘rinib turgan dala tepaliklari odamda qandaydir ko‘tarinki ruh tug‘diradi.

*Intellektual hissiyot*lar ham o‘z mohiyati jihatidan axloqiy hissiyotlarga yaqin bo‘lgan hissiyotlardir. Intellektual hissiyotlar odamning bilish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan hissiyotlar bo‘lib, biror narsadan hayron qolish, hayratda qolish, shubhalanish kabi holatlarda ifodalanadi. Intellektual hissiyotlarga dastavval ajablanishni kiritish mumkin. Ajablanish inson bilish faoliyatining ajralmas tomonidir. Ajablangan va qandaydir tushunib bo‘lmaydigan, hayratda qoldiradigan emotsiyalarga berilib qolgan odam o‘zining bilish ehtiyojlarini qondirishga intiladi. Haqiqatni izlash shubhalanish hissi bilan bir vaqtda amalga oshirish mumkin. Bu his odam faol bilish faoliyati orqali hosil qilgan g‘oya hamda e’tiqodlarni hayotga tatbiq qilish uchun bo‘lgan kurashning qiyin daqiqalarida unga madad bo‘ladi.

## 6.3. Shaxs va temperament tiplari

**Temperament haqida tushuncha.** Insonning ruhiy olami beto‘xtov harakatlar majmuasidan iborat bo‘lib, biri ikkinchisini bevosita taqozo etadi va ular uzluksiz zanjir tizimiga o‘xshash tarzda hukm suradi. Xuddi shu bois shaxs ruhiyatida tashqi atrof-muhit to‘g‘risidagi taassurotlar, o‘tmish xotiralari, kelajak yuzasidan ijodiy xayollar, ezgu niyatlar, xohish-istaklar, maqsad va tilaklar, mulohaza, fikr va muammo, hissiy kechinmalar, irodaviy sifatlar uzluksiz tarzda o‘zaro o‘rin almashtirib turish evaziga ontogenetik dunyoga mustahkam negiz hozirlanadi. Ruhiy olam kechishi, uning sur’ati, mazmuni, shakli, ko‘lami, xususiyati, xislati, sifati, mexanizmi alohida, yakkahol insonda rang-barang tarzda namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, insonlar tabiat hodisalariga, ijtimoiy turmush voqeliklariga, omillariga, ta’sir kuchlariga tez yoki sekin, yengil yoki mushkulot bilan javob qaytarishga moyillik ko‘rsatadilar.

Psixologiyada temperamentga taalluqli individual dinamik xususiyatlar o‘rtasida muayyan darajada tafovut mavjudligi alohida ta’kidlanadi, ular orasidagi farqlarni ajratib ko‘rsatish maqsadida quyidagicha belgilar kiritiladi va o‘ziga xos tarzda tavsiflab beriladi, ularning ayrimlarini ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq.

Favqulodda temperamentning bir xil xususiyatlari motiv, psixik holat va hodisalardan farqli o‘laroq, aynan shu shaxsning o‘zida, uning turli faoliyatlarida, muomalasida ifodalanadi.

Temperament xususiyatlari tabiiy shartlanganlik omiliga taalluqli bo‘lganligi tufayli inson hayoti va faoliyati (umri) davomida yoki uning muayyan bir bo‘lagida (ta’sirga beriluvchanligi sababligidan qat’i nazar) barqaror, o‘zgarmas va mustahkamdir.

Yakkahol shaxsga dahldor temperamentning turli xususiyatlari o‘zaro bir-biri bilan g‘ayriqonuniy ravishda birlashgan bo‘lmasdan, balki ular o‘zaro bir-biri muayyan qonuniyat asosida mujassamlashib, xuddi shu xususiyatlar uning tiplarini tavsiflovchi o‘ziga xos tuzilmani vujudga keltiradi.

Temperamentning fiziologik asoslari: qadimgi yunon olimi Gippokrat ta’limotiga binoan, insonlarning temperament xususiyatlari jihatidan o‘zaro bir-biridan tafovutlanishi, ularning tana

a’zolaridagi suyuqliklarning (xiltlarning) turlicha nisbatda joylashuviga bog‘liq ekanligi tasavvur qilinadi. Gippokrat ta’biricha, inson tanasida to‘rt xil suyuqlik (xilt) mavjud bo‘lib, ular o‘t yoki safro (yunoncha «chole»), qon (lotincha sanguis yoki sanguinis), qora o‘t (yunoncha melas «qora», chole «o‘t»), balg‘am (yunoncha «phlegma») kabilardan iboratdir. Uning mulohazasicha:

– o‘tning xususiyati – quruqlikdir, uning vazifasi tana a’zolarida quruqlikni saqlab turish yoki badanni quruq tutishdir;

– qonning xususiyati issiqlikdir, uning vazifasi tanani isitib turishdir;

– qora o‘tning xususiyati namlikdir, uning vazifasi badan namligini saqlab turishdir;

– balg‘amning (shilimshiq moddaning) xususiyati sovuqlikdir, uning vazifasi badanni sovitib turishdan iboratdir.

Gippokrat ta’limotiga muvofiq har bir insonda shu to‘rt xil suyuqlik mavjud bo‘lib, uning bittasi ustuvorlik kasb etadi. Mazkur aralashma (lotincha temperamentum)lardan qaysi biri salmoqliroq bo‘lsa, shunga qarab insonlar temperament jihatdan farqlanadilar, chunonchi xolerikda sariq o‘t, sangvinikda qon, flegmatikda balg‘am, melanxolikda qora o‘t ustun bo‘lishi ta’kidlanadi.

Yirik rus psixologlaridan biri B.M. Teplov (1896–1965) va uning shogirdlari, maslakdoshlari I.P. Pavlovning tadqiqotlarini davom ettirib, inson nerv jarayonlari xususiyatlarining o‘ziga xos tomonlarini ochishga muvaffaq bo‘ldilar. Ular nerv-fiziologik jarayonlarning nozik qirralarini o‘rganishga maxsus moslamalar yordami bilan o‘zgarishlarni qayd qilish hamda olingan natijalarni (omillarni) matematik statistika metodlari orqali hisoblashni tatbiq etdilar.

Shuningdek, B.M. Teplov ilmiy maktabining namoyandalari tomonidan ijobiy va tormozlovchi shartli reflekslarning hosil bo‘lish tezligini tavsiflovchi individual xususiyatlar turkumi ham ta’riflab berilgandir. Ushbu individual xususiyatlar mohiyatida ifodalanuvchi nerv sistemasining notanish xususiyati dinamiklik deb nomlangan ham tavsiflangan. Bundan tashqari, ular shartli reflektor faoliyatining bir guruh individual xususiyatlari qo‘zg‘alish jarayoni to‘xtalishining tezligi mahsuli sifati-

da taxmin qilingan xususiyatni (yangi xislatni) labillik deb atay boshlaganlar. Shuning bilan birga nerv sistemasining boshqa xususiyatlari mavjudligi to‘g‘risida ilmiy taxminlar ilgari surilgan, chunonchi, senzitivlik, reaktivlik va hokazo.

**Temperament tiplarining tavsifnomasi.** Turli temperament tipiga mansub insonlarda har xil xarakter xususiyatlari, shaxs sifatlari, holatlari ro‘y beradi.

Sangvinik yuksak reaktivlik. Bo‘lar-bo‘lmas narsalarga qattiq xoxolab kulaveradi. Muhim bo‘lmagan fakt qattiq jahlini chiqaradi. Diqqatini jalb qilgan hamma narsalarga tetik va zo‘r qo‘zg‘alish bilan javob beradi. Imo-ishoralari va harakatlari yaqqol ko‘rinib turadi. Uning aft-basharasiga qarab kayfiyatining qandayligini, narsalarga yoki odamga bo‘lgan munosabatlarini bilish oson. Diqqatini tez bir joyga to‘playdi.

Sust senzitivlikka ega. Sezgirlik chegarasi yuksak. Juda kuchsiz tovushlarni va yoruqlik qo‘zg‘ovchilarni payqamaydi. Aktivligi yuksak, juda g‘ayratli va ishchan, darslarda tez-tez qo‘l ko‘tarib turadi, toliqmasdan uzoq vaqt ishlashi mumkin, yangi ishlarga g‘ayrat bilan kirishadi. Faolligi va reaktivligi muvozanatli. Uni intizomga chaqirish oson. U o‘z hissiyotlarining namoyon bo‘lishini va o‘zining ixtiyorsiz harakatlarini tez ushlab qola oladi. Harakatlari shiddatli, nutqi tez, yangi ishga tezlik bilan kirishadi, diqqatini tez to‘playdi. Aqli tez ishlaydi, topqir. Harakatlari nihoyat darajada silliqlik xususiyatiga ega. Hissiyotlari, kayfiyatlari, qiziqishlari va intilishlari juda o‘zgaruvchan. U yangi kishilar bilan tez kirishib ketadi. Yangi talablar, yangi sharoitga osonlik bilan o‘rganadi. Bir ishdan ikkinchi ishga tez ko‘cha oladi. Malakalarni tez o‘zlashtiradi va tez qayta o‘zgartiradi. Aqli ixcham. Ekstrovertlik xususiyatiga ega. O‘tgan va kelajak hayot haqida tasavvurlariga qaraganda quyiroq tashqi taassurotlarga javob beradi.

Xolerik xuddi sangvinik kabi sust senzitivlik, yuksak reaktivlik hamda faollik bilan ajralib turadi, lekin faollikdan reaktivlik ustunlik qiladi. Shuning uchun u tinimsiz o‘zini ushlay olmaydigan, betoqat, serzarda. Sangvinikka qaraganda ozroq silliq va ko‘proq qotib qolgan. Shuning uchun intilishlari va qiziqishlarida katta barqarorlik, zo‘r qat’iylik bor, diqqatini ko‘chirishda qi-

yinchilikka uchraydi. Psixik tempi tez. Bir ishni boshlasa oxiriga yetkazadi, ammo unga qiziqsa.

Flegmatik – senzitivligi sust, hissiy qo‘zg‘aluvchanligi oz, kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin. Ammo bir narsa yuzasidan qattiq kulganda u vazminligicha qolaveradi. Katta ko‘ngilsiz hodisa yuz berganda ham osoyishtaligini buzmaydi. Imo-ishoralari oz, harakatlari ifodasiz. G‘ayrati ishchanligi bilan ajralib turadi. Yuksak faolligi oz, reaktivligidan ancha ustunlik qiladi. Chidamliligi, matonati, o‘zini tuta bilish bilan ajralib turadi. Harakatlarining tempi va nutqining tempi sust, ifodasiz. Diqqatini sekinlik bilan to‘playdi. Rigid (qotib qolgan), diqqatini qiyinchilik bilan ko‘chiradi. Yangi sharoitga qiyinchilik bilan moslashadi. Introvert. Yangi odamlarga qiyinchilik bilan qo‘shiladi. Tashqi taassurotlarga qiyinchilik bilan javob qaytaradi.

Melanxolik – yuksak senzitivlik xususiyatiga ega. Sezgirligi yuksak (sezgi chegaralari yuqori). Arzimagan sababga ko‘ra, ko‘zlaridan yosh oqib ketaveradi. Nihoyatda arazchan, sekin yig‘laydi. Samimiy, juda oz kuladi, faolligi sust. O‘ziga ishonmaydi, tortinchoq, ozgina qiyinchilik tug‘iladigan bo‘lsa, qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga urib qo‘ya qoladi. G‘ayratsiz, qat’iy emas. Diqqati tez chalg‘iydi, barqaror emas. Psixik tempi sust. Rigid (qotib qolgan). Introvertlik xususiyatiga ega.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Hissiy holatlarning ifodalanishini qanday izohlaysiz?
2. Hislarni kechirish shakllarini qanday baholaysiz?
3. Iroda tushunchasining mazmunini izohlang.
4. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlari nimalarda ko‘rinadi?
5. Oliy nerv faoliyati tipi va temperament o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsating.
6. Temperament xususiyatlariga ta’rif bering.

# LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARI

## «G. AYZENKNING TEMPERAMENT XUSUSIYATLARINI ANIQLASH» so‘rovnomasi (o‘smirlar uchun mo‘ljallangan variant)

So‘rovnoma-test G. Ayzenk tomonidan individuallikning asosiy ko‘rsatkichlari deb qaralgan 2 xususiyat – «introversiya» – «ekstroversiya» hamda «neytrotizm – emotsinal barqarorlik» kabi xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan.

So‘rovnoma-test bir-biriga o‘xshash bo‘lgan 2 shakl – a va b shakllardan iborat bir shakldagi savollardan har bittasi quyidagi 3 ta shakllardan biriga taalluqli hisoblanadi:

Introversiya – ekstroversiya (24 ta savol).

Neyrotizm – barqarorlik (24 ta savol)

Yolg‘on – ochiqlik (9 ta savol).

Kalit bilan mos tushgan javoblar 1 ball bilan baholanadi. Savollarga «ha» yoki «yo‘q» deb javob berish so‘raladi. 12 balldan ortiq ko‘rsatkich shaxsining ekstrovertligidan dalolat beradi, 12 balldan kam ko‘rsatkich introvertlikni bildiradi. Neyrotizm shkalasi bo‘yicha 12 balldan ortiq ko‘rsatkich hissiy beqarorlikni aks ettiradi. Yolg‘onchilikni shkalasi bo‘yicha 4–5 ball tanqidiy ko‘rsatkich bo‘lib, sinaluvchining savollarigina faqat «yaxshi» javob berishga moyilligidan dalolat beradi. Bu esa neyrotizm, ekstroversiya va introversiya shkalalari bo‘yicha ko‘rsatkichlarning ishonchligiga ta’sir qiladi.

Tipik ekstrovert – boshqa odamlarga tez kirishib ketadigan inson, boshqa odamlar bilan muloqot qilishga, yangi ta’sirotlarga doimo intiluvchi odam. U ulfatlarni yoqtiradi, tanishlari va do‘stlari ko‘p. Tajovuzkor, serjahl, ta’sirchan inson bo‘lib, ko‘pincha daqiqa ta’sirida harakat qiladi. His-tuyg‘ularini qattiq nazorat qila olmaydi, tanishish uchun odatda birinchi so‘z boshlaydi. Yolg‘iz ishlashni va shug‘ullanishni yoqtirmaydi.

Tipik – intravert muloqotga qiyinchilik bilan kirishuvchi, uyatchan, og‘ir, o‘z ichki dunyosiga ko‘milgan, o‘z-o‘zini kuzatadigan odam. Boshqa odamlardan ajralgan. U o‘z harakatlarini oldindan rejalashtirib oladi, kutilmagan istaklarga ishonmaydi. U

tartibni yoqtiradi, hayotda jiddiy, his-tuyg‘ularini qattiq nazorat ostiga olgan, kamdan kam jahli chiqadi, qizishib ketmaydi, muloqotdagi kelishmovchiliklarni jim turib to‘xtatishga intiladi. U diqqatni kuchli bir joyga to‘playdigan va kam harakat talab qiladigan faoliyat turlarini yoqtiradi.

Ayzenk savolnoma-testi bo‘yicha tipik nevrotik qisman Freyd g‘oyalari asosida ishlangan bo‘lib, onglilik va ongsizlik o‘rtasida yorqin nizolarni xarakterlaydi, shuning uchun ham salbiy his-tuyg‘ularni yomon boshqaradi. Hissiy beqarorlik odatda insonning gap ko‘tara olmasligi bilan bog‘langan bo‘lib, u o‘ziga ishonmaydi, boshqa odamlarning yordamiga yoki qo‘llab-quvvatlashiga doimiy muhtoj. Uning kayfiyati o‘zgaruvchan. Ko‘pincha u jiddiy sabab bo‘lmasa ham o‘zini baxtsiz, boshqalardan yomonroq his qiladi, ba’zida o‘zini aybdor deb biladi.

U ko‘p orzu qiladi, har narsadan shubhalanadi, jizzaki, odatda u boshidan kechirgan ko‘ngilsizlikni uzoq vaqt eslab yuradi, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqadi, unga qaror qabul qilish qiyin, vaziyat shuni talab qilsada o‘z niyatlaridan voz kecholmaydi.

Hissiy barqarorlikka ega bo‘lgan inson o‘z hissiy holatini boshqara oladi, odamlar bilan bir xil muloqotga kirishadi, uni muvozanatdan chiqarish qiyin. U boshqalar tomonidan doimiy qo‘llab-quvvatlanishga muhtoj emas, og‘ir-bosiq. Yolg‘onchilik shkalasi bo‘yicha samimiy emaslik bu yolg‘onchilik emas, bu o‘ziga xos da’vogarlik bo‘lib, o‘z ijobiy xislatlarini ortiqcha baholash, o‘zini yaxshi ko‘rishga intilishdir.

Ikkita gorizontal va vertikal chiziqlar o‘tkaziladi. Javoblardagi harflar shkalasi bo‘yicha chiqqan sonlarni chiziqlar bo‘ylab belgilab chiqib, tekshiriluvchini xarakterlovchi temperament xususiyatlarini aniqlash mumkin.

Ko‘rsatma: Senga bir qancha savollar beriladi. Sen ularga «ha» yoki «yo‘q» deb javob berishing kerak. Javob turiga ko‘ra javob varaqasining tegishli katagiga biror belgini qo‘y.

1. Kuchli hayajonni sinash uchun sizda yangilikka intilish seziladimi?

2. Sizni tushunadigan va qo‘llab-quvvatlaydigan do‘st kerakligini his qilasizmi?

3. Siz o‘zingizni tashvishi yo‘q odam deb hisoblaysizmi?

4. O‘ylagan rejalaringizdan qiyinchiliksiz voz kecha olasizmi?

5. Bir ish qilishdan oldin, o‘ylab ish tutasizmi?

6. Hatto, sizga foydasi bo‘lmasa ham, va’dangizda turasizmi?

7. Ruhiyatingiz tez tushib, tez ko‘tariladimi?

8. Ko‘p o‘ylamay, tez ish yurita olasizmi?

9. Ba’zida jiddiy sabab bo‘lmasa ham, o‘zingizni baxtsiz, deb hisoblaysizmi?

10. Birov bilan bahslashsangiz, o‘zingizni ko‘p narsaga qodir ekanligingizga ishonasizmi?

11. Sizga yoqqan qarama-qarshi jinsli kishi bilan tanishsangiz, uyalasizmi?

12. Jahlingiz chiqqanda o‘zingizni yo‘qotasizmi?

13. Ko‘pincha o‘ylamasdan sharoitga qarab ish tutasizmi?

14. Gapirmasam bo‘lar edi, shu ishni qilmasam bo‘lar edi, degan xayol sizni tez-tez bezovta qiladimi?

15. Sizga kitob o‘qishga nisbatan odamlar bilan uchrashuv afzalmi?

16. Hamma narsani o‘zingizga olaverasizmi?

17. Do‘tslar davrasida bo‘lishni yoqtirasizmi?

18. Birovlar bilishini istamagan sirlaringiz bormi?

19. Ba’zan hayratingiz jo‘shib qadamingizdan o‘t chaqnaydi, ba’zan esa hamma ishdan hafsalangiz pir bo‘lib, loqayd bo‘lishingiz rostmi?

20. Do‘stlaringiz davrasini eng yaqin do‘stlaringiz bilan chegaralanishini istaysizmi?

21. Siz ko‘p narsani orzu qilasizmi?

22. Sizga baqirib gapirishsa, siz ham shunday javob qaytara olasizmi?

23. Ba’zan o‘zingizni biron narsada aybdorman, deb his qilasizmi?

24. Siz o‘z odatlaringizni yaxshi ekanligiga ishonasizmi?

25. O‘z hislaringizga erk berib, do‘tslar davrasida o‘zingizni betashvish his qilasizmi?

26. Asabingiz tarang bo‘lgan paytlar ko‘p bo‘ladimi?

27. Sizni xushchaqchaq va ziyrak odam deb hisoblashadimi?

28. Biror ishni bajarib bo‘lgandan keyin, shu ishni bundan ham yaxshiroq bajarishingiz mumkinligi haqida o‘ylaysizmi?

29. Katta davralarda o‘zingizni xotirjam his qilasizmi?

30. Siz g‘iybat qilasizmi?

31. Har xil fikrlar boshingizga o‘ralashganidan uxlay olmagan paytlaringiz bo‘ladimi?

32. Siz biror narsani bilishni istasangiz, do‘stlaringizdan so‘rab-surishtirishga nisbatan tezroq kitobdan qidirib topishni ma’qul ko‘rasizmi?

33. Yuragingiz tez-tez urib turadigan paytlar bo‘ladimi?

34. Diqqat talab qilinadigan ish sizga yoqadimi?

35. Sizda qaltiroq bosish holatlari bo‘ladimi?

36. Siz doim haq gapirasizmi?

37. Bir-birini kamsitadigan davrada o‘zingizni xotirjam his qilasizmi?

38. Siz serjahlmisiz?

39. Tez harakat qiladigan ishlar sizga yoqadimi?

40. Hammasi yaxshilik bilan tugagan, lekin yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan voqealar sizni xayolingizni bezovta qiladimi?

41. Harakatingiz sekin, chaqqon emasligingiz to‘g‘rimi?

42. Biror marta ishga yoki uchrashuvga kechikkanmisiz?

43. Bema’ni tushlar ko‘rasizmi?

44. Siz shunday gapirishni yoqtirasizki, hatto notanish odam bilan ham gaplashish mumkin bo‘lgan paytni hech qachon boy bermaslikka harakat qilasiz.

45. Sizni biror og‘riq bezovta qiladimi?

46. Do‘stlaringiz bilan uzoq uchrashmasangiz xafa bo‘lasizmi?

47. O‘zingizni asabi yomon kishi deb, hisoblaysizmi?

48. Tanishlaringiz orasida sizga yoqmaydiganlari ham bormi?

49. Siz o‘zingizni «o‘ziga ishongan odam» deb hisoblaysizmi?

50. Sizning kamchiliklaringizni yoki ishingizni tanqid qilishsa, shaxsiyatingizga tegadimi?

51. Ko‘pchilik bilan bajarilgan ishdan qoniqishingiz qiyin bo‘ladimi?

52. Sizni boshqalardan nima bilandir yomonman, degan fikr bezovta qiladimi?

53. Zerikarli davrani qiziqtira olasizmi?

54. O‘zingiz tushunmagan narsalar haqida gapirgan vaqtingiz bo‘ladimi?

55. O‘z sog‘lig‘ingiz haqida qayg‘urasizmi?

56. Boshqalar ustidan hazil qilishni yaxshi ko‘rasizmi?

57. Uyqusizlikka duchor bo‘lganmisiz?

**Nevrotizm**

| | |
|---|---|
| G‘amgin, tashvishli, qo‘rqoq, yuvosh, mulohaza yuritishga moyillik, kelajakka ishonchi yo‘q, umidsiz, og‘ir, vazmin, bosiq, muloqotga kirisha olmaydi, indamas<br><br>MELANXOLIK<br><br>INTROVERSIYA | 24 Sezgir, tinib-tinchimas, o‘zgalarga hukm o‘tkazuvchan, ta’sirchan, tashqi ta’sirga beriluvchan, o‘zgaruvchan, umid ishonchli harakatchan<br><br>XOLERIK<br><br>EKSTROVERSIYA |
| 0 Passiv-sust, ehtiyotkor, mulohaza yurituvchan, aqlli, o‘ylab ish qiladi, tinchlikni sevadi, boshqaruvchan, ishonuvchan, nazorat qiluvchan vazmin bir tekisda harakat qiladi, xotirjam<br><br>FLEGMATIK | 12 Muloqotga kirishuvchan, sergap, rahmdil, ko‘ngilchan dadil harakat qiluvchan, xushchaqchaq, lekin ko‘pchilikni yoqtirmaydi, hamma joyda sardor bo‘lishga, o‘zini ko‘rsatishga harakat qiladi.<br><br>SANGVINIK |

**Hissiy barqarorlik**

Melanxolik – g‘amgin, tashvishli, qo‘rqoq, yuvosh, mulohaza yuritishga moyil, kelajakka ishonchi yo‘q. Umidsiz, og‘ir, vazmin, bosiq. Muloqotga kirishimli emas, indamas kishilar bo‘ladi.

Xolerik – sezgir, tinib-tinchimas, agressiv (o‘zgalarga hukm o‘tkazuvchi shaxs). Ta’sirchan, o‘zgaruvchan, umid ishonchli, harakatchan kishilar.

Flegmatik – passiv (sust), ehtiyotkor, mulohaza yurituchan, aqlli, o‘ylab ish qiladi, tinchlikni, osoyishtalikni sevadi. Boshqaruvchan, ishonuvchan, nazorat qiluvchan, vazmin, bir tekisda harakat qiladigan, xotirjam kishilar bo‘ladilar.

Sangvinik – muloqotga kirishuvchan, sergap, rahmdil, ko‘ngilchan, dadil harakat qiladi. Xushchaqchaq, lekin ko‘pchilikni va shovqinni yoqtirmaydi. Hamma joyda sardor (lider) bo‘lishga, o‘zini ko‘rsatishga harakat qiladigan kishilardir.

Yuqorida keltirilgan savollarga «ha» yoki «yo‘q» javobini bering va siz o‘zingizni qanday temperamentga mansub ekanligingizni bilib olasiz.

## TEST KALITI

| № | ha | yo‘q | № | ha | yo‘q | № | ha | yo‘q | № | ha | yo‘q | № | ha | yo‘q | № | ha | yo‘q |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | E | | 2 | N | | 3 | E | | 4 | N | | 5 | | E | 6 | L | |
| 7 | N | | 8 | E | | 9 | N | | 10 | E | | 11 | N | | 12 | | L |
| 13 | E | | 14 | N | | 15 | | E | 16 | N | | 17 | E | | 18 | | L |
| 19 | N | | 20 | | E | 21 | N | | 22 | E | | 23 | N | | 24 | L | |
| 25 | E | | 26 | N | | 27 | E | | 28 | N | | 29 | | E | 30 | | L |
| 31 | N | | 32 | | E | 33 | N | | 34 | | E | 35 | N | | 36 | L | |
| 37 | | E | 38 | N | | 39 | E | | 40 | N | | 41 | | E | 42 | | L |
| 43 | N | | 44 | E | | 45 | N | | 46 | E | | 47 | N | | 48 | | L |
| 49 | E | | 50 | N | | 51 | | E | 52 | N | | 53 | E | | 54 | | L |
| 55 | N | | 56 | E | | 57 | N | | | | | | | | | | |

Test kalitida mos kelgan harflarni qo‘yib chiqiladiyu «E» va «N» harflari bo‘yicha mos tushgan harflar javobi 0 dan 24 gacha, «L» harfi bo‘yicha ballar soni esa 0 dan 6 gacha to‘g‘ri kelishi kerak.

Agar «E» shkalasi bo‘yicha ballar soni 12 dan ortiq chiqsa, bu shaxs «ekstrovert» turiga kiradi: bu tashqi muhitga yo‘nalgan, obyektni magnit kabi tortuvchi, qiziquvchan, impulsiv, xulq-atvori mustahkam, muloqotli, ijtimoiy muhitga moslashgan va unda o‘z o‘rnini topgan kishi.

Agar «E» shkalasi bo‘yicha ballar soni 12 dan kam chiqsa, unda shaxs «Introvert» turiga kiradi: og‘ir vazmin, ehtiyotkor, aqlli, muloqotga birinchi bo‘lib kirisha olmaydigan, o‘z-o‘zini nazorat qilishga va o‘z-o‘zini tahlil qilishga moyil kishilardir.

«N» shkalasi bo‘yicha 12 dan ortiq chiqsa, bu shaxs «nevrotik» (asabiy) hisoblanadi: o‘z-o‘zini tuta bilmaslik, irodaviy bo‘shliq, serjahl, shu bilan birgalikda faol harakatchan, muloqotmand, boshlagan ishini oxiriga yetkazadigan kishi bo‘ladi.

«L» shkalasi bo‘yicha «yolg‘onchilik» shkalasi bo‘lib, bu ichki dunyosini ochmaslik va boshqalardan sir tutish, oddiy qilib aytganda o‘zini «oynada» odilona qilib ko‘rsatish yoki yuksak baholash demakdir.

0–2 ball – o‘z-o‘zini quyi darajada baholash.
3–4 ball – o‘z-o‘zini adekvat (haqqoniy) baholash.
5–6 ball – o‘z-o‘zini yuqori baholash.

## FRAYBURG SAVOLNOMASI YORDAMIDA SHAXS XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH METODIKASI

Frayburgning test savolnomasi /FR1/ 1903-yili Y. Farenberg, X. Zarg, R. Rampi kabi tadqiqotchilar tomonidan amalda qo‘llanildi. Test birinchi marta 1970-yili, ikkinchi marta 1973-yili nashr qilindi, uchinchi nashri esa 1978-yilda chiqdi.

Bu metodika inson shaxsining ba’zi bir xususiyatlarini tashxis qilish uchun yaroqli bo‘lgan ko‘p omilli testdir. Bu amaliy va ilmiy tadqiqot maqsadlari uchun muhim manbadir. Savolnoma shaxs omili to‘g‘risida har tomonlama ma’lumotlar beradi.

Test tadqiq qilinuvchilarning keng ommasiga mo‘ljallangan. Ushbu metodikaning qisqartirilgan varianti ham bor. Testni yakka holda yoki guruhiy shaklda qo‘llash mumkin. Bajarish uchun vaqt savolnomaning shakliga bog‘liq bo‘lib, u 20 daqiqadan 50 daqiqagacha davom etishi mumkin. Tadqiqot uchun yo‘riqnoma, savolnoma va javoblar varaqasi zarur. FHI savolnomasi 12 o‘lchamdan iborat.

Savolnomadagi savollar soni 114 ta. Faqat 1-savol hech bir o‘lchamga (shkalaga) xos emas, chunki u tekshirish xarakteriga ega. 1-XP shkalalar asosiy shkalalar hisoblanadi.

*I shkala* (asabiylashganlik) – shaxsning asabiylashganlik darajasini belgilaydi. Yuqori baholar psixosomatik buzilishlar bilan jismoniy zaif kishilarning asabiylashganlik holatiga mos keladi. Bu omilni, psixologik terminlardan foydalanib, uni quyidagicha yanada aniqroq tavsiflash mumkin: asabiylashganlik, asabiy, kasalmand, biror-bir holatdan chiqib ketolmaydigan, o‘z hissiyotlariga berilgan.

*II shkala* (spontan tajovuzkorlik) – introtensiv turdagi psixopatik holatni aniqlash va baholashga imkon beradi. Yuqori baholar g‘ayriixtiyoriy xulqqa ega bo‘lgan kishilarga xos xususiyatlarni bildiradi. O‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan (spontan) tajovuzkorlik – bu tajovuzkor, beixtiyor, soddadil, chiqisha olmaydigan, murosasiz deganidir.

*III shkala* (ruhiy siqilganlik) – psixopatologik, ruhiy siqilganlik holatlari uchun xos bo‘lgan belgilarga tashxis qo‘yish uchun imkon beradi. Yuqori baholar mana shu belgilarning emotsional holatda, o‘ziga va ijtimoiy muhitga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘lishini bildiradi. Depressivlik – bu ta’bixiralik, tortinchoqlik, ishonchsiz, g‘amgin, ichki azoblanish xususiyatlari yig‘indisidir.

*IV shkala* (jizzakilik) – emotsional turg‘unlikni baholashga imkon beradi. Yuqori baholar emotsionol holatlarning noturg‘unligidan darak beradi. Jizzakilik bu chidamsizlik, beixtiyor asabiylashgan, jiddiy tarang soddadil, injiq demakdir.

*V shkala* (dilkashlik) – ijtimoiy faollikning imkoniyatlarini va bu xususiyatlarning haqiqiy ko‘rinishini ifodalaydi. Yuqori baholar ehtiyojni ta’minlashda doimiy tayyorlikni va muomala ehtiyojining borligidan dalolat beradi. Do‘stonalik – xushmuomalalilik, dilkashlik, uddaburonlik xususiyatlaridir.

*VI shkala* (og‘ir, vazminlik ruhiy zarbaga chidamlilikni) anglatadi. Yuqori baholar kelajakka ishonch va faollikni; o‘ziga ishonchi odatdagi hayotiy holatlarda ruhiy zarba omillari ta’siridan yaxshi himoyalanganligini anglatadi. Mo‘tadillik – bu yaxshi kayfiyat, barqarorlik, matonatlilik, xotirjamlilik, o‘z kuchiga ishonch, ishonuvchanlik, faollik demakdir.

*VII shkala* (reaktiv tajovuzkorlik) ekstratensiv tipdagi psixopatik belgilarni namoyon bo‘lishini aniqlaydi. Yuqori baholar ustunlikka intilishni va ijtimoiy muhitga tajovuzkorona munosabatni ifodalaydi. Reaktiv tajovuzkorlik bu tajovuzkorona o‘z qarashlarini himoya qilish, o‘z fikrini himoya qilish, xudbinlik, manmanlik, obro‘ga, yuqoriga, ustunlikka intilish demakdir.

*VIII shkala* (uyaluvchanlik, tortinchoqlik) insonning hayotiy vaziyatlarda o‘zini passiv himoya qilish xususiyatiga moyillikni aniqlaydi. Bu kuchsiz himoyalangan turda o‘tadi. Yuqori baholar shkalada xavotirlilik, ishonchsizlik, tortinchoqlik xususiyatlari mavjudligini ifodalab bular esa o‘z navbatida ijtimoiy munosabatlarga kirishishni qiyinlashtiradi. O‘zini tuta bilish – vazmin, ishonchsiz, uyatchan, jonlanuvchi, taxlikaga tushuvchi.

*IX shkala* (oshkoralik) – o‘z-o‘zini tanqid darajasini ijtimoiy muhitga munosabatini tavsiflashga imkon yaratadi. Yuqori baholar o‘z-o‘ziga tanqidning yuqori darajasidan atrofdagi kishi-

lar bilan ishonarli oshkora birgalikda katta intilishdan darak beradi. Ushbu shkala bo‘yicha baholar sinalayotganning berilgan savolnoma bilan ishlayotganda u yoki bu darajada javoblarning samimiyligini tahlil qilishga imkon yaratadi, bu esa boshqa savolnomalarning yolg‘on shkalalariga to‘g‘ri keladi. Samimiylik xususiyati o‘z-o‘zini tanqid, oshkoralik, shaxsiy kamchiliklarni va xatolarni tan oladi.

*X shkala* (ekstravertlik va introvertlik) yuqori baholar shaxsning ekstravertlik, quyi baholar esa introvertlik xususiyatlariga mos keladi.

Ekstraversiya – so‘zamollik, jamoat ishlarida faollik yoki aksi, introversiya – odamlar bilan aloqadan qochish, passivlik, emotsional beqarorlik.

XI shkalada (emotsional labillik, o‘zgaruvchanlik) yuqori baholar yetarli o‘zini idrok qilmaslik, serjahllik, yuqori qo‘zg‘aluvchanlik, kayfiyatning tez-tez o‘zgaruvchanligida ko‘rinadigan emotsional holatning noto‘g‘riligini ko‘rsatadi. Quyi baholar faqatgina emotsional holatning yuqori barqarorligini tavsiflamasdan, balki o‘z-o‘zini idrok qila olishni ham ko‘rsatadi. Emotsional o‘zgaruvchanlik-barqarorlik-emotsional turg‘unlik yoki noturg‘unlik, kayfiyatning o‘zgaruvchanligi, serjahllik, jo‘shqinlik, g‘am yoki kelajakka ishonch, xursandchilik.

XII shkala (maskulinizm-feminizm) yuqori baholar ruhiy faoliyatning, xususan, erkaklarga xosligidan guvohlik bersa, quyi baholar ayollarga xosligidan darak beradi.

Mardlik-nazokatlilik-faollik, hammadan bilimdon, fahmlash, topqirlikdir.

Sinov yakka holda yoki sinaluvchilar guruhi bilan o‘tkazilishi mumkin. Sinalayotganlar bir-biriga xalaqit bermaydigan holatda joylashtirilishi lozim. Tadqiqotchi tadqiqot maqsadini va savolnoma bilan ishlash qoidasini qisqacha bayon qiladi. Sinalayotganlarning topshiriqlarini bajarishiga ijobiy va qiziqish bilan munosabatda bo‘lishlariga erishish muhimdir. Ularning e’tibori ish paytida javoblar bo‘yicha maslahatlashishning va o‘zaro muhokamaning mumkin emasligiga qaratilmog‘i darkor.

Shundan keyin psixolog sinaluvchilarga diqqat bilan yo‘riqnomani o‘rganib chiqishni tavsiya qiladi, so‘ng savollar pay-

do bo‘lgan bo‘lsa, ularga javob beradi, savolnoma bilan mustaqil ishlashni taklif etadi.

Natijalar tahlilini tekshiruvchilar to‘ldirgan barcha javob varaqalarini birinchi savolga qanday javob berganligini aniqlagan holda qarab chiqishdan boshlash kerak.

Tekshirilayotgan kishi qo‘yilgan savollarga ochiqchasiga javob berishni istamasa, tadqiqot amalga oshmagan deb hisoblash kerak. Birinchi savolga ijobiy javob olingan taqdirda tadqiqotning natijalari ishlab chiqilgandan keyin yuqori va quyi baholar ajratiladi.

**Sinaluvchiga yo‘riqnoma:**

Sizning xulqingizga, alohida qilmishlaringizga, odamlarga bo‘lgan munosabatingizga, hayotga qarashlaringizga va shunga o‘xshash qandaydir xususiyatlaringizga berilgan tasdiq mos keladimi-yo‘qmi? Agar shunday moslik bor deb hisoblasangiz «ha» javobini bering, aks holda esa «yo‘q» javobini bering. Javoblarni hamma savolga berish zarur.

Tadqiqotning muvaffaqiyati topshiriqning qanchalik e’tibor bilan bajarilganligiga bog‘liq. Javoblar berishda, biror kishida yaxshi taassurot qoldirishga intilmaslik kerak, chunki hech bir javob yaxshi yoki yomon deb hisoblanmaydi.

Siz har bir savol ustida uzoq o‘ylab o‘tirmasdan ikkala javobning qaysi biri sizningcha, har holda nisbiy bo‘lsa ham haqiqatga yaqin kelishini hal qilmog‘ingiz lozim bo‘ladi. Ba’zi bir savollarning o‘ta shaxsiyligi sizni tashvishlantirmasligi kerak, chunki tadqiqot har bir savolni, javobni tahlil qilishni nazarda tutmaydi, balki u yoki bu javobning soniga tayanadi.

Bundan tashqari Siz yakka psixologik tadqiqotning natijalari xuddi tibbiyotdagidek keng muhokama qilinmasligini bilishingiz kerak bo‘ladi.

## SIZGA MUVAFFAQIYAT TILAYMIZ!

1. Men diqqat bilan yo‘riqnomani o‘qib chiqdim va hamma savollarga ochiqchasiga javob berishga tayyorman.

2. Kechqurunlari quvnoq, davra safida – mehmonda, qahvaxonada vaqtimni chog‘ qilishni yoqtiraman.

3. Biror kishi bilan tanishmog‘imga har doim suhbat uchun xos bo‘lgan mavzuni topishim qiyinligi xalaqit beradi.

4. Tez-tez boshim og‘rib turadi.

5. Ba’zida chakkamda duqullashni va bo‘ynim atrofida tomir urishini his qilaman.

6. Men o‘zimni, xushimni tez yo‘qotaman, shuningdek, tez o‘zimni qo‘lga olaman.

7. Ba’zida bema’ni latifalardan kulaman.

8. Men bir narsa haqida so‘rashdan tortinaman, bilishim kerak bo‘lgan narsani boshqa yo‘l bilan bilishni ma’qul ko‘raman.

9. Mening kelganim sezilmasa, xonaga kirmaslikni ma’qul ko‘raman.

10. Shunday injiq bo‘lishim ham mumkinki, qo‘limga tushgan hamma narsani sindirib tashlashga tayyorman.

11. Atrofdagilar menga e’tiborini qarata boshlashsa, o‘zimni noqulay sezaman.

12. Men ba’zida yuragimni xuddi o‘lda-jo‘lda ishlayotgandek yoki ko‘kragimdan chiqib ketgudek bo‘lib ura boshlashini his qilaman.

13. Xafa qilganni kechirish mumkin deb o‘ylayman.

14. Jahlga jahl bilan javob berish kerak deb hisoblamayman va har doim shunga amal qilaman.

15. Agar men o‘tirgan bo‘lsam va birdan o‘rnimdan tursam ko‘z oldim qorong‘ulashib, boshim aylanib ketadi.

16. Agar meni deyarli har kuni muvaffaqiyatsizliklar ta’qib qilmaganda, hayotim naqadar yaxshi bo‘lishi mumkinligi haqida o‘ylayman.

17. O‘z qilayotgan harakatlarimda odamlarga to‘liq ishonish kerak, degan xulosaga amal qilmayman.

18. O‘z manfaatlarimni himoya qilish zarurati tug‘ilib qolsa, jismoniy kuch ishlatishdan ham qaytmayman.

19. Eng zerikarli guruhni ham osongina xushchaqchaq qila olaman.

20. Men osongina dovdirab qolaman.

21. Agar mening ishimga ogohlantirish berilsa, bu meni hech qachon xafa qilmaydi.

22. Qo‘llarim va oyoqlarim sovuq qotib ketayotganini yoki uvishib qolayotganini tez-tez his qilaman.

23. Boshqa kishilar bilan munosabatda bo‘lganimda o‘ng‘aysizlanaman.

24. Ba’zida hech bir sababsiz o‘zimni baxtsiz his qilaman.

25. Ba’zida biror ish bilan shug‘ullanishga hech ham xohish bo‘lmaydi.

26. Xuddi juda og‘ir ishni bajargandek, gohida menga havo yetmayotgandek tuyuladi.

27. Menga shunday tuyuladiki, o‘z hayotimda juda ko‘p narsalarni noto‘g‘ri qilganga o‘xshayman.

28. Mening nazarimda boshqalar ko‘pincha ustimdan kulishayotgandek tuyuladi.

29. Uzoq o‘ylab o‘tirmay bajariladigan topshiriqlarni yaxshi ko‘raman.

30. O‘z taqdirimdan norozi bo‘lishga yetarli asoslarim bor deb hisoblamayman.

31. Ko‘pincha ishtaham bo‘lmaydi.

32. Bolaligimda ota-onam yoki o‘qituvchilarim boshqa bolalarni jazolashganlarida quvonganman.

33. Odatda qarorim qat’iy va tez harakat qilaman.

34. Har doim ham rost gapirmayman.

35. Kimdir yoqimsiz holatdan chiqish uchun intilayotganini qiziqish bilan kuzataman.

36. O‘tib ketgan voqealar meni kam tashvishlantiradi.

37. O‘z fikrimda turmoqchi bo‘lsam barcha vositalar yaxshi deb hisoblayman.

38. Musht orqali biror narsani isbotlashdan bir arziydigan narsa chiqishini tasavvur qila olmayman.

39. Men bilan janjallashish yo‘llarini qidirayotgan odam bilan uchrashishdan qochmayman.

40. Ba’zida hech narsaga yaroqsizdekman.

41. Men har doim qandaydir toliqqan, zo‘riqqan holda yurgandekman, mening bo‘shashim qiyin.

42. Ko‘pincha ko‘kragim ostida og‘riq, qornimda har xil yoqimsiz sezgilar paydo bo‘ladi.

43. Do‘stimni xafa qilganlardan o‘ch olishga harakat qilaman.

44. Belgilangan vaqtga kech qolgan paytlarim bo‘lgan.

45. Mening hayotimda shunaqa ham bo‘lganki nimagadir hayvonlarga azob berishni o‘zimga lozim topganman.

46. Eski tanishim bilan uchrashganda xursandligimdan uning bo‘yniga osilib olishga tayyorman.

47. Men biror narsadan qo‘rqsam og‘zim quruqshaydi, qo‘l-oyog‘im qaltiraydi.

48. Menda tez-tez shunday kayfiyat bo‘ladiki, hech narsani ko‘rmasam, eshitmasam deyman.

49. Uyquga yotsam odatda bir necha daqiqadan so‘ng uxlab, qolaman.

50. Boshqalarning xato-kamchiliklarini ko‘rsatish menga orom bag‘ishlaydi.

51. Ba’zida maqtanib turaman.

52. Jamoat tadbirlarida faol qatnashaman.

53. Ko‘pincha shunday bo‘ladiki, xohlamagan uchrashuvdan qutulish uchun boshqa tomonga qarashimga to‘g‘ri keladi.

54. O‘zimni oqlash uchun ba’zida biror narsani o‘ylab topaman.

55. Men deyarli har doim harakatdaman va faolman.

56. Men gapirayotgan narsalar ko‘p hollarda suhbatdoshlarimga haqiqatdan ham qiziqarli ekanligidan shubhalanib qolaman.

57. Ba’zida birdan ter qoplaganini his qilaman.

58. Agar biror kishidan qattiq jahlim chiqsa, uni urib yuborishim ham mumkin.

59. Kimnidir menga yomon munosabatda bo‘lishi, meni kam tashvishlantiradi.

60. Tanishlarimga odatda e’tiroz bildirishim qiyin.

61. Bo‘lishi mumkin bo‘lgan muvaffaqiyatsizlik haqidagi fikrdan hayajonlanaman va tashvishlanaman.

62. Tanishlarimning hammasini ham yaxshi ko‘rmayman.

63. Menda shunday fikr ham bo‘lib turadiki, ulardan faqat uyalish kerak.

64. Bilmadim, nima uchundir ba’zida hamma biror narsadan ilhom olayotgan bo‘lsa o‘sha narsani buzgim keladi.

65. Har qanday odamdan menga kerakli narsani iltimos qilishdan ko‘ra, unga majburlab qildirishni afzal ko‘raman.

66. Men ko‘p hollarda qo‘l va oyoqlarimni noqulay harakatlantiraman.

67. Quvnoq davrada bo‘lishdan ko‘ra, o‘zimning sevimli ishim bilan shug‘ullanib erkin kecha o‘tkazishni afzal ko‘raman.

68. Davrada o‘zimni uyda tutgandek tutolmayman.

69. Ba’zida o‘ylamasdan shunday narsani gapirib qo‘yamanki, u haqida yaxshisi jim turgan afzalroq.

70. Hatto tanishlar davrasida ham diqqat markazda bo‘lishdan qo‘rqaman.

71. Yaxshi tanishlarim juda ko‘p emas.

72. Gohida menda shunday taassurot paydo bo‘ladiki, erkin rang, erkin bo‘yoq, kuchli shovqin menda yoqimsiz hissiyotlarni uyg‘otadi.

73. Menda ko‘p hollarda davrada kimnidir xafa qilish yoki jahlini chiqarish istagi paydo bo‘ladi.

74. Hayotda turli yoqimsiz narsalarning uchrashi mumkinligini o‘ylasam, bundan tug‘ilmaganim yaxshi edi, deb qolaman.

75. Agar meni kimdir jiddiy xafa qilsa, o‘ziga tegishlisini to‘liq oladi.

76. Jahlimni chiqarishsa, aytadigan gaplarimdan uyalmayman.

77. Suhbatdoshimga mening shunday savol berishim yoki shunday javob berishim yoqadiki, o‘sha vaqtda u o‘zini yo‘qotib qo‘ysin.

78. Zarur bo‘lgan ishlarni ham orqaga surgan vaqtlarim bo‘lgan.

79. Latifalarni yoki kulguli voqealarni hikoya qilishni yoqtirmayman.

80. Kundalik qiyinchiliklar va tashvishlar o‘z muvozanatimni yo‘qotishga olib keladi.

81. O‘zimni noqulay tutgan davradagi odam bilan uchrashib qolsam, o‘zimni qo‘yarga joy topa olmayman.

82. Hayotdagi mayda-chuydalarga ham jiddiy e’tibor qaratadigan odam bilan ham afsuski munosabatda bo‘la olaman.

83. Katta auditoriya oldida so‘zga chiqishdan tortinaman.

84. Mening kayfiyatim o‘zgarib turadi.

85. Atrofdagilarning ko‘pchiligidan ko‘ra men tezroq charchayman.

86. Agar men biror narsadan kuchli hayajonlangan yoki achchiqlangan bo‘lsam, uni butun tanim bilan his qilaman.

87. Kallamga keladigan yoqimsiz fikrlardan bezor bo‘lib ketaman.

88. Afsuski, meni oilada ham, o‘z tanishlarim davrasida ham tushunishmaydi.

89. Agar men bugun odatdagidan kamroq uxlagan bo‘lsam, ertasiga o‘zimni dam olgandek his qila olmayman.

90. O‘zimni shunday tutamanki, atrofdagilar mening noroziligimni paydo qilishdan cho‘chisin.

91. Kelajagimga ishonaman.

92. Atrofdagilardan birining yomon kayfiyatini sababchisi bo‘lganman.

93. Boshqalarning ustidan kulishdan ham qaytmayman.

94. O‘ta sergap odamlar bilan ham muomala qila olaman.

95. Men hamma narsaga oson munosabatda bo‘ladigan kishilar toifasidanman.

96. O‘smirligimda taqiqlangan mavzularga qiziqqanman.

97. Gohida yaxshi ko‘rgan kishilarimning dilini og‘ritganman.

98. Atrofdagilarning qaysarliklari tufayli ular bilan ko‘pincha kelisha olmayman.

99. O‘z qilmishlarimdan ko‘pincha vijdonim qiynaladi.

100. Men ko‘p hollarda parishonxotir bo‘laman.

101. Yomon ko‘rgan odamimning omadsizligi, meni bezovta qilganligini eslay olmayman.

102. Ko‘p hollarda boshqalardan tez ranjiyman.

103. Ba’zida kutilmaganda, o‘zim tushunmagan narsalar haqida ishonch bilan gapira boshlayman.

104. Ko‘pincha shunday qayfiyatda bo‘lamanki, har qanday bahona bilan portlab ketishga tayyor turaman.

105. Ko‘pincha o‘zimni charchagan va lanj sezaman.

106. Men odamlar bilan suhbatlashishni yaxshi ko‘raman va har doim bunga tayyorman.

107. Afsuski, ko‘p vaziyatlarda men odamlarga shoshib baho beraman.

108. Ertalab odatda men yaxshi turaman, ko‘pincha xushtak chala boshlayman yoki xirgoyi qilaman

109. Muhim muammolarni hal qilishda hatto uzoq mulohazadan so‘ng ham o‘zimga to‘liq ishonchni his qilmayman.

110. Bahsda nimagadir o‘zimning tarafdorimdan balandroq ovozda gapirishga intilaman.

111. Umidsizlik menda kuchli tashvish uyg‘otmaydi.

112. Birdan lablarimni, tirnoqlarimni tishlaydigan hollarim ham bo‘ladi.

113. Yolg‘iz qolgan hollarda o‘zimni nihoyatda baxtiyor his qilaman.

114. Ba’zida shunday bo‘ladiki, hamma bir-biri bilan urushib qolishini xohlab qolaman.

*Iltimos hamma javoblarga javob berganligingizni tekshirib chiqing.*

**KALIT**

I shkala. Asabiylashganlik (hammasi bo‘lib 17 savol)
«Ha» – 4,5,12,15,22,26,31,41,42,57,66,72,85,86,89,105
«Yo‘q» – 49
II shkala. O‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan tajovuzkorlik (13 savol)
«Ha» – 32,35,45,50,64,73,77,93,97,99,103,12,114
«Yo‘q» – 99
III shkala. Ruhiy siqilish (14 ta savol).
«Ha» – 16,24,27,28,30,40,48,56,61,74,84,87,88,100
«Yo‘q» –
VI shkala. Serjahllik, serzardalik, jizzakilik (11 savol)
«Ha» – 6,10,58,69,76,80,102,104,107,110
«Yo‘q» –
V shakala. Muloqotchanlik (16 savol)
«Ha» – 2,19,46,52,55,94,106
«Yo‘q» – 3,8,23,53,67,71,79,113
VI shkala. Og‘irlik, vazminlik (10 ta savol)
«Ha» – 14,21,29,37,38,59,91,95,108,111
«Yo‘q» –
VII shkala. O‘ta tajovuzkorlik (10 ta savol)
«Ha» – 13,17,18,36,39,43,65,75,90,98
«Yo‘q» –

VIII shkala. Tortinchoqlik (10 savol)
«Ha» – 9,11,20,47,60,70,81,83,109
IX shkala. Ochiqlik, oshkoralik (13 savol)
«Ha» – 7,25,34,44,51,54,62,63,68,78,92,98,101
«Yo‘q» –
X shkala. Ekstraversiya-introversiya (12 ta savol)
«Ha» – 2,29,46,51,56,76,93,95,106,110
«Yo‘q» – 20,87
XI shkala. Ta’sirchanlik, o‘zgaruvchanlik (14 ta savol)
«Ha» - 24,25,40,48,80,83,85,87,88,102,112,113
«Yo‘q» - 59
XI shkala. Mardlik-nazokatlilik (15 ta savol)
«Ha» – 18,29,3,50,52,58,59,65,91,104
«Yo‘q» 0 16,20,31,47,84

Javob varaqasiga savol nomerining qarshisiga «Ha» yoki «Yo‘q» javobi yozib qo‘yiladi.

Metodikaning «kaliti»da har bir shkalaga tegishli bo‘lgan savol nomerlari yozilgan. Har bir shkalaning savol nomeriga sizning javobingiz to‘g‘ri kelsa 1 ball bilan baholanadi.

(«Ha» javobi va «Yo‘q» javobi bo‘yicha ballar qo‘yib hisoblanadi.)

Har bir shkala bo‘yicha birlamchi baholar hisoblab chiqariladi.

*1-jadval*

| Shkala raqami | Birlamchi baholar |
|---|---|
| II | |
| II | |
| III | |
| IY | |
| Y | |
| YI | |
| YII | |
| YIII | |
| IX | |
| X | |
| XI | |
| XII | |

Bundan so‘ng hosil bo‘lgan birlamchi baholarni standart baholarga ko‘chiriladi (2-jadvalga qarang).

2-jadvaldan shaxs xususiyatlarining darajalari aniqlanadi.

**BIRLAMCHI BALLARNI STANDART BAHOLARGA KO‘CHIRISH**

| Birlamchi ballar | Shkalalar bo‘yicha baholar | | | | | | | | | | | | Xusus. daraja |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | I | II | III | IV | V | VI | VII | V–II | IX | X | XI | XII | |
| 0 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | Past |
| 1 | 1 | 3 | 3 | 3 | 1 | 1 | 3 | 3 | 1 | 1 | 2 | 1 | |
| 2 | 4 | 4 | | 4 | 1 | 2 | 4 | 5 | | 1 | 3 | 1 | |
| 3 | 4 | 4 | 4 | 5 | 1 | 3 | 5 | 6 | 2 | 2 | 4 | 1 | |
| 4 | 5 | 5 | 4 | 6 | 2 | 4 | 6 | 6 | 3 | 3 | 4 | 1 | O‘rta |
| 5 | 5 | 6 | 5 | 7 | 2 | 5 | 7 | 7 | 3 | 4 | 5 | 2 | |
| 6 | 6 | 6 | 6 | 7 | 3 | 6 | 8 | 7 | 4 | 4 | 6 | 3 | |
| 7 | 7 | 7 | 6 | 8 | 3 | 7 | 8 | 8 | 5 | 5 | 7 | 4 | Yuqori |
| 8 | 7 | 7 | 7 | 8 | 4 | 8 | 9 | 9 | 5 | 6 | 7 | 5 | |
| 9 | 8 | 8 | 8 | 9 | 5 | 9 | 9 | 9 | 6 | 7 | 8 | 6 | |
| 10 | 8 | 9 | 8 | 9 | 5 | 9 | 9 | 9 | 8 | 8 | 8 | 8 | |
| 11 | 8 | 9 | 8 | 9 | 6 | - | - | - | 8 | 9 | 8 | 8 | |
| 12 | 8 | 9 | 9 | - | 7 | - | - | - | 9 | 9 | 9 | 9 | |
| 13 | 9 | 9 | 9 | - | 8 | - | - | - | 9 | - | 9 | 9 | |
| 14 | 9 | - | 9 | - | 9 | - | - | - | - | - | 9 | 9 | |
| 15 | 9 | - | - | - | - | - | - | - | - | - | - | 9 | |
| 16 | 9 | - | - | - | - | - | - | - | - | - | - | - | |
| 17 | 9 | - | - | - | - | - | - | - | - | - | - | - | |

1 balldan 3 ballgacha bo‘lgan baholar quyi.

4 balldan 6 ballgacha bo‘lgan baholar o‘rta.

7 balldan 9 ballgacha bo‘lgan baholar yuqori baholar turkumiga (xususiyatlar darajasi) kiradi.

## SHAXSNING KOMMUNIKATIV VA TASHKILOTCHILIK QOBILIYATLARI (KTQ) NI O‘RGANISH USULI

Maqsad: o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlari, qobiliyatlarini aniqlashga mo‘ljallangan bo‘lib, maktab psixologiyasining kasbiy proforientatsion yo‘nalishda ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

Mashg‘ulotning borishi:

Shaxsning tashkilotchilik va kommunikativ qobiliyatlarini diagnostika qilish metodikasi psixologik tashxisda va katta sinf o‘quvchilariga kasbga maslahat berishda keng qo‘llaniladi.

Tadqiqotni o‘tkazish uchun KTQ savolnomani va varaqasini tayyorlash kerak. Tadqiqotni individual va guruhda o‘tkazish mumkin.

Tekshiruvchilarga javob varaqalarini tarqatib bo‘lgach, qo‘llanmalarni o‘qib berish kerak.

Quyida keltirilgan tasdiqlarni yaxshilab o‘qib chiqing va bu tasdiqlarga rozi bo‘lsangiz «+» belgisini, agar rozi bo‘lmasangiz «-» belgisini qo‘ying. Noaniq savolni suiiste’mol qilmaslikka harakat qiling. Har bir detal ustida uzoq o‘ylamaslik, aniq holatlarni ko‘z oldingizga keltiring. Javob uchun ko‘p vaqt sarflamang, miyangizga kelgan birinchi tabiiy javobni bering.

Savollarni qoldirmasdan, tartibi bilan javob bering. To‘g‘ri va samimiy javob bering. O‘z javoblaringizni yaxshi tasavvur etishga harakat qilmang, ular haqiqiy bo‘lishi lozim. Har bir savolga berilgan javob umuman ko‘rib chiqilmaydi, bizni faqatgina umumiy ko‘rsatkichlar qiziqtiradi.

**KTQ savolnomasi**

1. Har doim muloqotda bo‘lib turadigan do‘stlaringiz ko‘pmi?
2. Do‘stlaringizni ko‘pchiligini fikringizni qabul qilishga og‘dirib olasizmi?
3. Do‘stlaringizdan biri sizni ranjitsa, uzoq vaqt xafa bo‘lib yurasizmi?
4. Hosil bo‘lgan keskin vaziyatda har doim ham yo‘l topishga qiynalasizmi?
5. Har xil kishilar bilan tanishishga sizda intilish bormi?
6. Jamoat ishlari bilan shug‘ullanish sizga yoqadimi?
7. Sizga odamlar ichida bo‘lishdan ko‘ra kitob yoki boshqa ishlar bilan vaqt o‘tkazish yoqadimi?
8. Ko‘zlagan maqsadlaringizni amalga oshirishda to‘siq bo‘lsa, siz ulardan osongina chekinasizmi?
9. O‘zingizdan katta yoshdagi kishilar bilan osongina muomalaga o‘ta olasizmi?

10. Siz o‘z do‘stlaringiz bilan ko‘ngilochar o‘yinlar o‘ylab topishni yoqtirasizmi?

11. Sizga yangi kompaniyaga kirishib ketish qiyinmi?

12. Bugungi qilinadigan ishlarni boshqa kunlarga tez-tez qoldirib turasizmi?

13. Notanish odamlar bilan muomalaga kirishish sizga oson bo‘ladimi?

14. Do‘stlaringiz sizni fikringiz bilan ish tutishlariga intilasizmi?

15. Yangi jamoaga ko‘nikish sizga qiyinmi?

16. Do‘stlaringiz o‘z majburiyatlarini bajarishmasa, sizda ular bilan kelishmovchilik chiqmasligi rostmi?

17. Qulay vaziyat bo‘lib qolsa, siz yangi kishilar bilan tanishishga va suhbatlashishga intilasizmi?

18. Muhim ishlarni bajarishda tashabbusni ko‘pincha o‘zingizni qo‘lingizga olasizmi?

19. Atrofdagi odamlar sizni bezovta qiladimi va siz yolg‘iz bo‘lishni istaysizmi?

20. Siz notanish sharoitda o‘zingizni noqulay his qilishingiz rostmi?

21. Sizga har doim odamlar orasida bo‘lish yoqadimi?

22. Boshlagan ishingizni bitira olmasangiz, bezovta bo‘lasizmi?

23. Odamlar bilan tanishayotganda tashabbus ko‘rsatish kerak bo‘lsa, o‘zingizda noqulaylik, hayajon, tortinishni his etasizmi?

24. Do‘stlaringiz bilan tez-tez bo‘lgan muloqotdan toliqasizmi?

25. Jamoa o‘yinlarida ishtirok etishni yoqtirasizmi?

26. Do‘stlaringizga tegishli bo‘lgan muammolarni yechish uchun tez-tez o‘z tashabbusingizni ko‘rsata olasizmi?

27. Siz yaxshi tanimagan odamlar ichida o‘zingizni erkin tuta olmasligingiz rostmi?

28. Siz o‘z haqqoniyligingizni isbotlash uchun kamdan kam intilishingiz rostmi?

29. Yaxshi tanimagan guruhga jonlanish kiritish, siz uchun uncha qiyin emas deb hisoblaysizmi?

30. Siz maktab jamoat ishlariga qatnashasizmi?

31. Siz o‘z tanishlaringiz sonini bir necha odamlar bilan cheklatishga intilasizmi?

32. Agar fikringizni do‘stlaringiz birdaniga qabul qilmasa, siz uni himoya qilish uchun intilmasligingiz rostmi?

33. Begona guruhga tushib qolsangiz, o‘zingizni erkin tutasizmi?

34. Siz har xil tadbirlar tashkil qilishga jon deb kirishasizmi?

35. Katta guruh oldida so‘zlaganda o‘zingizni dadil va bosiq tutmasligingiz rostmi?

36. Siz ishga doir uchrashuvlarga tez-tez kech qolib borasizmi?

37. Do‘stlaringiz ko‘pligi rostmi?

38. Do‘stlaringiz ichida diqqat markazida tez-tez bo‘lib turasizmi?

39. Yaxshi tanimagan odamlar bilan muloqotda bo‘lganda siz o‘zingizni noqulay his qilasizmi?

40. Do‘stlaringiz davrasida o‘zingizni uncha dadil his qila olmasligingiz rostmi?

**DESHIFRATOR**
**Kommunikativ qobiliyatlar**

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 + | 11 - | 21 + | 31 - |
| 3 - | 13 + | 23 - | 33 + |
| 5 + | 15 - | 25 + | 35 - |
| 7 - | 17 + | 27 - | 37 + |
| 9 + | 19 - | 29 + | 39 - |

**DESHIFRATOR**
**Tashkilotchilik qobiliyatlar**

| | | | |
|---|---|---|---|
| 2 + | 12 - | 22 + | 32 - |
| 4 - | 14 + | 24 - | 34 + |
| 6 + | 16 - | 26 + | 36 - |
| 8 - | 18 + | 28 - | 38 + |
| 10 + | 20 - | 30 + | 40 - |

**Natijalarni qayta ishlash**

1. Tekshiruvchilarni javoblarini deshifrator bilan solishtirib, kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarga to‘g‘ri kelganini hisoblab chiqing.

2. Kommunikativ (Kk) va tashkilotchilik (Kt) qobiliyatlarini baholash koeffitsientini quyidagi formula orqali hisoblab chiqing.

(Kk)q to‘g‘ri kelgan javoblarning soni X 0,05
(Kt)q to‘g‘ri kelgan javoblarning soni X 0,05

Masalan: tekshiruvchini kommunikativ qobiliyatlari deshifrator bilan to‘g‘ri kelgan javoblar soni 18, tashkilotchilik qobiliyatlari esa deshifrator bilan to‘g‘ri kelgan javoblar soni 15.

Demak, kommunikativ qobiliyatni baholash koeffitsienti quyidagiga teng (Kk)q 18x 0,05 q0,90 tashkilotchilik qobiliyatlarini baholash koeffitsienti (Kt)q 15x0,05q0.75

Shu metodika orqali olingan ko‘rsatkichlar 0—1 o‘zgarishi mumkin. 1 ga yaqin ko‘rsatkichlar kommunikativ yoki tashkilotchilik qobiliyatlarining yuqori darajasini bildiradi.

0 ga yaqin ko‘rsatkichlar past darajasini bildiradi.

Ko‘rsatkichlarni sifatli baholash uchun olingan koeffitsientlarni baholash bilan solishtirib chiqish kerak.

**Kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarni baholash shkalasi**

| Kk | Kt | Baho | Qobiliyatning ifodalanish darajasi |
|---|---|---|---|
| 0,10—0,45 | 0,20—0,55 | 1 | Past |
| 0,46—0,55 | 0,56—0,65 | 2 | O‘rtadan past |
| 0,56—0,65 | 0,66—0,70 | 3 | O‘rtadan |
| 0,66—0,75 | 0,71—0,80 | 4 | yuqori |
| 0,76—1,00 | 0,81—1,00 | 5 | Juda yuqori |

Natijalarni tahlil qilishda parametrlarni ko‘zda tutish kerak:

1 baho olgan tekshiriluvchilar kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari past darajasi bilan ta’riflanadi.

2 baho olgan tekshiriluvchilar kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari o‘rtadan past ta’riflanadi. Ular muloqotga intilishmaydi, ya’ni guruhda (jamoada) o‘zlarini erkin tuta olmaydi, vaqtni yolg‘iz o‘tkazishni afzal ko‘radi, o‘zlarini tanishuvlarini chegaralab qo‘yadi, odamlar bilan muloqot o‘rnatishga va audi-

toriya oldida gapirishga qiynaladi, o‘z fikrini himoya qila olmaydi, ko‘p ishlarda mustaqil qaror qabul qilishda o‘zlarini chetga tortishni afzal ko‘radi.

3 baho olgan tekshiriluvchilar kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari o‘rta darajali deb hisoblanadi. Ular odamlar bilan muloqot o‘rnatishga intiladi, o‘zlarini tanishuvlarini chegaralamaydi, o‘z fikrini himoya qila oladi, ishlarini rejalaydi, lekin qobiliyatlarini yuqori turg‘unlik bilan ta’riflab rivojlantirish uchun katta va jiddiy tarbiyaviy ishlar olib borish kerak.

4 baho olgan tekshiriluvchilar kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari yuqori darajali deb hisoblanadi. Ular yangi vaziyatlarda o‘zini yo‘qotmaydi, do‘stlarni tez topadi, tanishuvlar darajasini har doim kengaytirishga intilishadi, jamoat ishlari bilan shug‘ullanadi, yaqinlari va do‘stlariga yordam beradi, jamoat tadbirlarini tashkil qilishga qatnashadi, og‘ir vaziyatda mustaqil qarorlar qabul qila oladi. Aytib o‘tilganlarni ular majburiy emas, o‘z ichki intilishi bilan qilishadi.

5 baho olgan tekshiriluvchilar kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari juda ham yuqori darajali deb hisoblanadi. Ular muloqot va tashkiliy faoliyatga katta ehtiyoj his etishadi, shunga faol intilishadi, og‘ir vaziyatlarda tez yo‘l topa olishadi. Yangi jamoada o‘zini erkin tutishadi, tashabbuskor, muhim ishda yoki murakkab vaziyatda mustaqil qaror qabul qilishni afzal ko‘radi, o‘z fikrini himoya qila olishadi, do‘stlari ularning fikrlari bilan ish tutishlariga intiladi, notanish kompaniyaga jonlanish kirgiza olishadi, har xil o‘yinlar tashkil qilishni yaxshi ko‘rishadi. O‘zlari kommunikativ va tashkilotchilik faoliyatlarini qoniqtiradigan ishlarni izlab yurishadi.

JAVOB VARAQASI

Familiyasi, ismi _____

Tashxis o‘tkazilgan vaqti_____

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 |
| 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | 16 |
| 17 | 18 | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 |
| 25 | 26 | 27 | 28 | 29 | 30 | 31 | 32 |
| 33 | 34 | 35 | 36 | 37 | 38 | 39 | 40 |

## LYUSHERNING TESTI

Lyusherning testi sinalayotgan odamning ma'lum bir faoliyati, kayfiyatiga, funksional holat va shaxsning eng barqaror tomonlariga yo'nalishi rang tanlashda ifodalanadi, degan taxminga asoslangan.

Chet el psixologlari Lyusher testini kasbga yo'naltirishda, xodimlarni tanlashda, ishlab chiqaruvchi jamoani yig'ganida, etnik va gerontologik tadqiqotlarda, kelin-kuyovlar bir-birlarini tanlashdagi tavsiyalarida va boshqa hollarda ko'p ishlatiladi. Ranglarning ma'nosi ularning psixologik interpretatsiyasida har xil sinalayotganlarning ko'p sonli kontingentini har tomonlama o'rganish davomida tadqiq qilinadi.

Lyusher bo'yicha ranglarni ta'riflash 4 asosiy va 4 qo'shimcha ranglarni o'z ichiga oladi.

## ASOSIY RANGLAR

1. Ko'k – tinchlik, qoniqarli holatni ifodalaydi.
2. Ko'k-yashil – dadillik, qat'iylik gohida qaysarlik hissini ifodalaydi.
3. Sariq-qizil – irodali kuch, agressivlik, jangovarlik va qo'zg'atuvchanlikni ifodalaydi.
4. Och-sariq – aktivlik, muloqotga intiluvchanlik, ekspansivlik, xushchaqchaqlik hissi.

Asosiy ranglar konfliktning yo'qligida optimal holatda ko'proq birinchi 5 pozitsiyani egallashi zarur.

Qo'shimcha ranglar:

1) siyohrang;
2) jigarrang;
3) qora rang;
4) nolga barobar bo'lgan.

Ular salbiy yo'nalishlarni: xavotir, stress, qo'rquv, xafagarchilik hislarini bildiradi. Shu ranglarning (asosiy ranglar kabi) yuqori darajada pastda ko'rsatilganidek ularning o'zaro joylashishi, pozitsiyalariga bo'lib tashlashi aniqlanadi.

*Psixolog uchun ko'rsatma:* rangli kartochkalarni aralashtiring va rangli tomonini tepaga qaratib qo'ying. Sinaluvchiga 8 rang-

dan eng yoqqanini tanlashni taklif qiling. Unga tushuntirish kerakki, u rangni shundayligicha, o‘zining kiyimidagi yoqtirgan rangga, ko‘zlarining rangiga va boshqalariga o‘xshatmasligi kerak. Sinalayotgan 8 rangdan eng yoqimlisini tanlash zarur. Tanlangan kartochkani rangli tomonini pastga qaratilib bir chekkaga olib qo‘yishi zarur. Pratsedurani qaytaring. Kartochkalarning nomerlarini qo‘yilgan tartibda yozib oling. 2–3 daqiqadan so‘ng kartochkalarning rangli tomonini tepaga ko‘tarib qo‘yib chiqing, pratsedurani xuddi shunday qaytaring. Shundan tushunavering: sinalayotgan odam birinchi tanlashdagi tartibni eslamay, ongli ravishda oldingi tartibni o‘zgartirmasligi kerak. U ranglarni xuddi birinchi marta ranglanganidek tanlashi kerak.

Birinchi tanlashni xohlayotgan holatni, ikkinchi haqiqiy holatni ta’riflaydi. Tadqiqotning maqsadiga qarab sinovning natijalarini izohlash mumkin. Sinovning natijasida sakkiz pozitsiyani hosil qilamiz: birinchi va ikkinchi yaqqol afzal ko‘rish (+ + deb belgilanadi).

Uchinchi va to‘rtinchi afzal ko‘rish (XX belgilanadi).

Beshinchi va oltinchi rangga befarqlik (q q belgilanadi).

Yettinchi va sakkizinchi rangga antipatiya ( - q belgilanadi).

Tadqiqotlarning 36,000 dan ziyod natijalarning tahlili asosida M.Lyusher tanlangan pozitsiyalarning taxminiy ta’rifini berdi.

Beshinchi pozitsiya maqsadiga yetish vositalari aks etadi (masalan, ko‘k rangni tanlash xotirjam, ortiqcha zo‘r berishsiz, harakat qilish niyatini bildiradi).

Ikkinchi pozitsiya sinaluvchining intilayotgan maqsadini ko‘rsatadi.

Uchinchi va to‘rtinchi pozitsiyalar rangni afzal qilish sinalayotgan bo‘lgan haqiqiy situatsiyani his etish yoki situatsiyaga qarab harakat qilish tarzini ta’riflaydi.

Beshinchi, oltinchi pozitsiyalar rangga bo‘lgan befarqlikni, unga bo‘lgan betaraf munosabatini bildiradi. Ular sinalayotgan o‘zining holatini, kayfiyatini va motivlarini bu ranglar bilan bog‘lamasligini bildirmasligini bildiradi. Biroq bu pozitsiya ma’lum bir vaziyatda rangning rezerv izohlashiga ega bo‘lishi mumkin, masalan, ko‘k rang (xotirjamlik rangi) shu vaziyatga mos kelmaydigan vaqtinchalik chekkaga olib qo‘yiladi.

Yettinchi va sakkizinchi pozitsiya rangga bo‘lgan salbiy munosabatni, bu rang aks etadigan ehtiyoji, motivi, kayfiyatini bildirmaydi.

+ + x x q q --

3 4 1 0 2 5 6 7

Tanlangan ranglarning yozilishi nomerlarning ro‘yxati afzal ko‘rish tartibida pozitsiyalarni ko‘rsatish orqali amalga oshadi.

Masalan, qizil, sariq, ko‘k, kulrang, yashil, siyohrang. Jigarrang va qora ranglar tartibda tanlanganda quyidagicha yoziladi:

+ + x x q q - -

3 4 1 0 2 5 6 7

(+ +; x x; q q; - -; ) zonalar 4 funksional guruhni tashkil etadi.

### Testdan o‘tkazish natijalarini izohlash

Belgilaganimizdek, tanlanish natijalarini izohlash usullaridan biri asosiy ranglarga baho berishdir. Agar ular beshinchi pozitsiyadan keyingilarni egallasa, demak, ular ta’riflaydigan xossalari, ehtiyojlari qoniqtirilmagan, shunday ekan, xavotir, salbiy holat o‘ringa ega.

Asosiy ranglarning o‘zaro bo‘lgan holati ko‘rib chiqiladi. Masalan, NI va 2 (ko‘k va sariq) yonma-yon joylashsa (funksional guruhni tashkil qilib), ularning asosiy xislati «ichkariga» subyektiv yo‘nalishi ta’kidlanadi.

2 va 3 ranglari yonma-yon (yashil va qizil) joylashsa muxtorlik, masalani yechishda mustaqillik va tashabbuskorlikni ko‘rsatadi. 3 va 4 (qizil va sariq) ranglarning birgaligi, boshqa yo‘nalishlari ta’kidlanadi. 1 va 4 (ko‘k va yashil) ranglarning birikmasi sinalayotganlarning muhitga qaramligining tasavvurlarini kuchaytiradi. 1 va 3 (ko‘k va qizil) ranglarning bitta funksional guruhda birgaligi muhitga qaramlik va subyektiv yo‘nalishining (ko‘k rang) va muxtorlik, «ichiga» yo‘nalish (qizil rang)ning g‘animat balansi ta’kidlanadi. Yashil va sariq (2 va 4) ranglarning birikmasi «ichkariga» subyektiv yo‘nalishi, muxtorlik va qaysarlik «tashqarisiga» yo‘nalishiga, muhitga qaramlikka qarama-qarshiligi sifatida ko‘riladi.

Lyusherning fikricha, asosiy ranglar quyidagi psixologik ehtiyojlarni ifodalaydi:

1. (Ko‘k) qoniqishga, xotirjamlikka, barqaror ijobiy mehribonlikka bo‘lgan ehtiyoj.
2. (Yashil) o‘zini ta’kidlashga bo‘lgan ehtiyoj.
3. (Qizil) faolli harakatga va niyatga erishish ehtiyoji.
4. (Sariq) istiqbolga.

## KASBIY USTANOVKALARNI ANIQLASH METODIKASI SAVOLNOMASI – I.M. KONDAKOV

To‘rtburchak ichida berilgan jumlalarni diqqat bilan (lozim bo‘lsa qayta-qayta) o‘qib chiqing.

Har bir topshiriq kasb tanlayotgan yoshlarning ruhiy holatini tavsif etuvchi 5 ta jumladan iborat. Ularning ba’zilari sizdagi vaziyatga ko‘proq mos kelsa, boshqalari sizdan uzoqroq yoki sizni tavsif etmaydi. Sizdan mazkur jumlalarni o‘zingizga yaqin-uzoqligiga ko‘ra tartiblab chiqish so‘raladi. Ya’ni sizni eng ko‘p xarakterlaydigan jumlaning tartib raqami javob varaqasining 1-katakchasiga, ikkinchi navbatda mos keladigan jumlaning tartib raqami esa 2-katakchaga yozib qo‘yiladi va hokazo. Demak, sizga nisbatan eng «uzoq» fikr ifoda etilgan jumlaning tartib raqami 5-katakchaga kiritiladi.

I topshiriq

| |
|---|
| 1. Kasblar olamini yaxshi bilmayman. |
| 2. Kasb tanlashda o‘tkinchi havaslardan qochishni afzal ko‘raman. |
| 3. O‘zimga mos kasbni to‘g‘ri tanlash uchun ko‘p narsalardan kechishga roziman. |
| 4. Har qanday kasbning uddasidan chiqa olaman. |
| 5. Kasb tanlashim haqida menga berilgan har xil maslahatlarni diqqat bilan tinglayman. |

II topshiriq

| |
|---|
| 1. Kasbni to‘g‘ri tanlash uchun yordamga muhtojman. |
| 2. Har xil o‘y-xayollar bilan vaqtni bekor ketkazmasdan bo‘lajak kasbimga aniq qadamlar qo‘yish zarur deb o‘ylayman. |
| 3. Nasib qilsa tanlagan kasbim o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. |
| 4. Kelajakda yuksak malakali mutaxassis bo‘lishimga shubham yo‘q. |
| 5. Tengdoshlarim qatori biron-bir kasb egasi bo‘lsam shu men uchun kifoya. |

III topshiriq

1. Kasb tanlashda qat'iyatli emasman.
2. Kasbni to‘g‘ri tanlash uchun aniq reja tuzib olishim kerak, deb o‘ylayman.
3. Bo‘lajak kasbimga munosib bo‘lishim uchun ko‘p xislatlarimni o‘zgartirishga tayyorman.
4. Mendagi xislatlar har qanday kasbga mos keladi.
5. Mening bo‘lajak kasbim boshqalarni ham bezovtalantirsa o‘zimni bardamroq his etaman.

IV topshiriq

1. Bo‘lajak kasbni tanlashda nimalarga (o‘z imkoniyatlarim, ota-onam istagi va hokazo) asoslanishimni bilmay ikkilanaman.
2. Turli kasblarga har xil odamlar tomonidan berilgan ijobiy yoki salbiy tavsiflarga ishonaverish maqsadga muvofiq emas.
3. Xudo xohlasa bo‘lajak kasbim mening barcha imkoniyatlarimni ro‘yobga chiqarishimga yordam beradi.
4. Yaxshi mutaxassis bo‘lishim uchun barcha imkoniyatlarim yetarli.
5. Menimcha yoshlarning bo‘lajak kasblarini tanlashlari uchun odatda kattalar yaxshi sharoit yaratib berishmaydi.

V topshiriq

1. Kasbiy hayotimni nimadan, qanday, boshlashimni mutlaqo bilmayman.
2. Bo‘lajak kasb allaqachon tanlangan bo‘lsa ham bu mavzu ustida qayta-qayta o‘ylab ko‘rilsa zarar qilmaydi.
3. Tezroq biror joyda ishlab erkinlikka erishishni juda ham xohlayman.
4. Kasbiy hayotda o‘zimning munosib o‘rnimni topishimga hech qanday shubham yo‘q.
5. Kasb tanlashda odamlarning maslahatlariga har xil hayotiy o‘rnaklarga ko‘p e'tibor beraman.

VI topshiriq

1. Gohida kasb tanlashda o‘ta beqarorligimdan xafa bo‘lib ketaman.
2. Kasb tanlash va kasbiy mahorat sirlarini chuqur o‘rganishni juda muhim deb bilaman.
3. Ba'zan bo‘lajak kasbimning menga ochadigan imkoniyatlarini o‘ylab ko‘nglim yorishib ketadi.
4. O‘zimdan kechib bo‘lsa ham kasbiy hayotimda uchraydigan har qanday to‘siqni albatta yengib o‘taman.
5. Hozircha «katta bo‘lishga» (ya'ni biron kasb egasi bo‘lishga) intilishni unchalik zarur emas deb o‘ylayman.

VII topshiriq

| |
|---|
| 1. Omadsizligim tufayli kasb tanlashda ham baxtim chopmaydi, deb qo‘rqaman. |
| 2. Kasb tanlashda kasblarning tashqi «jilo»siga uchishni noto‘g‘ri deb bilaman. |
| 3. Istiqboli keng bo‘lgan kasbni tanlashda birinchi navbatda qalbim amriga ishonaman. |
| 4. Men tanlagan kasbim qat’iy bo‘ladi, uni hech qachon o‘zgartirmayman. |
| 5. Agar atrofdagilar mening biror-bir kasbni egallashim ustida qattiq turib olishsa ehtimol ularga ko‘nishim mumkin. |

VIII topshiriq

| |
|---|
| 1. Bo‘lajak kasbim to‘g‘risida aniq bir tasavvurga ega emasman. |
| 2. Kasb tanlashda hissiyotlarga emas, fikr-mulohazaga tayanishni ma’qul ko‘raman. |
| 3. Umid qilamanki, bo‘lajak kasbim menga baxt keltiradi. |
| 4. Kelajakda kasbiy hayotimda favqulodda bir yangilik kiritmoqchiman. |
| 5. O‘qishni davom ettirish imkoni bo‘lsa edi, ish topishga hech qachon shoshilmagan bo‘lardim. |

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, kasbiy qarorlarni qabul qilishga tayyorlik shaxsning kasbiy ustanovkalarida o‘z aksini topadi. Umuman olganda, ustanovka deganda shaxsning biron-bir muammoni hal etishga ichki tayyorgarligi, ushbu muammoga nisbatan keng ma’noda ijobiy yoki salbiy munosabati tushuniladi. Demak, kasbiy ustanovkalarning shakllanishiga shaxsning hayot jarayonida turli muammolarini hal etish bo‘yicha to‘plagan tajribalari katta ta’sir ko‘rsatadi. Hayotiy vazifalarni bajarishga, to‘siqlarni yechishga doir to‘plangan barcha ko‘nikma va malakalar umumlashib, shaxs tarkibida qandaydir bir «salohiyatlilik kompleksi»ni vujudga keltiradiki, bu shaxsning yangi-yangi hayotiy muammolarni, jumladan, kasb tanlash masalasini yechishdagi harakatchanligi, tirishqoqligi, erishgan yutuq va kamchiliklarini teranlik bilan idrok etish xususiyatlarini, umumiy bir nazarni o‘zida mujassam etadi.

1997-yilda esa rossiyalik psixolog I.M. Kondakov bir necha bosqichda ilmiy tadqiqotlar olib borib, o‘quvchi yoshlarga xos

bo‘lgan eng muhim kasbiy ustanovkalar ro‘yxatini tuzdi va olingan tadqiqiy natijalarni matematik statistik usulda qayta ishlab faktorli tahlillar asosida besh yo‘nalishdagi ustanovkalarni ajratib berdi.

Birinchi yo‘nalish kasb tanlashda qat’iyatsizlik omili bo‘lib, kasbiy shakllanish nuqtayi nazaridan kelajak haqida aniq tasavvurlar, mezonlarining yo‘qligi, kasblar olami haqida to‘liq axborotga ega emaslik, shuningdek, o‘z imkoniyatlariga nisbatan ishonchsizlik, bir qarorga kela olmaslik ikkilanishlarning ko‘pligi bilan tavsiflanadigan tuyg‘ular hamda shunga mos xulq-atvorlarda o‘z ifodasini topadi.

Ikkinchi yo‘nalish kasb tanlashda ratsionallik teranlik omili bo‘lib, bo‘lajak kasbiy hayotni ongli ravishda, ogohlik bilan belgilash, bilib turib, aniq reja asosida, aql bilan mustaqil ravishda harakat qilish, har bir qadamni obdon o‘ylab, donolik bilan bosish kabi ustanovkasidir.

Uchinchi yo‘nalish – bo‘lajak kasbning istiqboliga nisbatan optimistik munosabat, ya’ni o‘z kasbiy kelajagini ideallashtirish, omad kulib boqishiga umid bog‘lash, hayotdagi har qanday muammoning o‘z-o‘zidan hal bo‘lib ketishi mumkinligiga ba’zan haddan ortiq ishonish bilan bog‘liq bo‘lgan dunyoqarashlarning ustunligi.

To‘rtinchi yo‘nalish – kasb tanlashda o‘z imkoniyatlarini yuqori baholash, ya’ni shaxsning o‘z kuchiga va qobiliyatlariga haddan ortiq baho berishi, har qanday qiyinchiliklarni yengishga o‘zini tayyor deb o‘ylashi, ko‘tarinki ruhda orqa-oldini o‘ylamay, ba’zan yengiltaklik bilan har qanday to‘siqlarga qarshi yurishdan qo‘rqmasligi, o‘ziga haddan ortiq ishonishi kabi xislatlari va barqaror e’tiqodlari ustanovkasi.

Beshinchi yo‘nalish – kasb tanlashda boshqalarga bog‘liqlik. Bu omil shaxsning ijtimoiy yetilmaganligi bilan bog‘liq ravishda erkin va mustaqil bir fikrga ega emasligini, har qanday kishining maslahatlariga osonlik bilan berilishni, ishonuvchanligi tufayli aniq bir kasbiy qarorga kelishda qiyinchilik sezayotganligini ifoda etadi.

I.M. Kondakov ko‘p bosqichli tadqiqiy ma’lumotlarni teranlik bilan tahlil qilgan holda yuqorida keltirilgan besh yo‘nalishdagi

kasbiy ustanovkalarning har biriga oid 8 tadan savolni ko‘plab savollar orasidan ajratib oldi va jami 40 savoldan (5x8x40) iborat kasbiy ustanovkalarni aniqlash savolnomasini tuzdi. Ushbu metodika yo‘riqnomasiga binoan, sinaluvchi har bir jumlani o‘qib, uni o‘ziga mos kelish-kelmasligiga ko‘ra Laykert shkalasi (6 ballik tizim) bo‘yicha baholaydi.

Biz esa bunday subyektiv o‘zini o‘zi baholash usulidan ko‘ra savollarni o‘ziga nisbatan yaqin-uzoqligiga ko‘ra tartiblash usulini afzal ko‘rdik va shunga binoan ma’lumotlarni qayta ishlash jarayoniga o‘zgartirish kiritdik. Bizning modifikatsiyamizga muvofiq savolnomada (8-ilova) 8 ta topshiriq mavjud bo‘lib, har bir topshiriq to‘rtburchak ichiga olingan 5 tadan jumlani o‘z ichiga oladi. Bu yerda sinaluvchidan har bir topshiriqdagi 5 ta jumlaning mazmunan o‘ziga yaqin-uzoqligiga ko‘ra tartiblab chiqish talab qilinadi. Ya’ni beshta savol orasidan o‘ziga eng yaqin, uni xarakterlaydigan savolning tartib raqamini javob varaqasining 1-katakchasiga, ikkinchi navbatda mos keladigan savolning tartib raqamini 2-katakchasiga yozib qo‘yadi va h.k. (9-ilova). Shu tarzda 8x5 hajmli jadvalning barcha kataklarini 1 dan 5 gacha bo‘lgan tartib sonlar bilan to‘ldiradi. Vazifa o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi uchun quyidagicha aniq ko‘rsatma beriladi:

To‘rtburchak ichida berilgan jumlalarni diqqat bilan (lozim bo‘lsa, qayta-qayta) o‘qib chiqing.

Har bir topshiriq kasb tanlayotgan yoshlarning ruhiy holatini tavsif etuvchi 5 ta jumladan iborat. Ularning ba’zilari Sizdagi vaziyatga ko‘proq mos kelsa, boshqalari Sizdan uzoqroq yoki Sizni tavsif etmaydi. Sizdan mazkur jumlalarni o‘zingizga yaqin-uzoqligiga ko‘ra tartiblab chiqish so‘raladi. Ya’ni Sizni eng ko‘p xarakterlaydigan jumlaning tartib raqami javob varaqasida birinchi satrning 1-katakchasiga, ikkinchi navbatda mos keladigan jumlaning tartib raqami esa 2-katakchaga yozib qo‘yiladi va h.k. Demak, Sizga nisbatan eng «uzoq» fikr ifoda etilgan jumlaning tartib raqami birinchi satrning oxirgi 5-katakchasiga kiritiladi. Shu tartibda boshqa topshiriqlarning javoblari ham satrma-satr jadvalga tushiriladi.

Marhamat, boshladik!

O‘quvchi javob varaqasining o‘ziga tegishli qismini to‘ldirib bo‘lgach uni tadqiqotchiga topshiradi.

**Natijalarni qayta ishlash**

Javob varaqasining ikkinchi yarmida maxsus «Natijalarni hisoblash» jadvali keltirilgan bo‘lib, unda tadqiqotchi metodika ma’lumotlarini qayta ishlaydi. Mazkur jadvalda ko‘rsatilganidek, dastlab javob varaqasining har bir ustunidagi 1, 2, 3, 4, 5 raqamlarining soni (miqdori) sanab chiqiladi va pastdagi jadvalning tegishli to‘rtburchak katakchalariga yozib chiqiladi. Javob varaqasidagi har bir ustunning ma’lumotlari bu tarzda ikkinchi jadvalga ko‘chirish jarayoni biroz vaqtni olsa ham olinadigan natijalarning qiymati bu qiyinchilikni qoplaydi. Endi asosiy ish ikkinchi jadvalda kechadi: 1-ustundagi beshala raqam 5 ga ko‘paytirilib, natijalari shu ustundagi tegishli doirachalarning ichiga yozib chiqiladi. Keyin esa 2-, 3-, 4- va 5-ustunlarning katakchalaridagi qiymatlar ham mos ravishda 4 ga, 3 ga, 2 ga, va 1ga ko‘paytirilib, tegishli doirachalarning ichiga yozib chiqiladi va beshala ustunning har bir satridagi doirachalarning qiymatlari satrlar bo‘ylab jamg‘arilib, oxirgi – «Xomaki ball» deb nomlangan ustundagi katta doiralarning ichiga yozib chiqiladi. Mazkur 5 ta qiymatning har biri besh yo‘nalishdagi kasbiy ustanovkalarning asosiy ko‘rsatkichlaridir.

Besh yo‘nalish bo‘yicha olingan ballarning har biri nazariy jihatdan o‘rta hisobda 24 ga teng bo‘lishi kutiladi. Bu miqdor quyidagi matematik mulohazalardan kelib chiqadi: ma’lumki, har bir topshiriqning savollariga berilgan javoblarning yig‘indisi 15 ga teng (1+2+3+4+5=15). Metodikada jami bo‘lib 8 ta topshiriq borligi nazarga olinsa, barcha javoblarning yig‘indisi 120 ga teng bo‘lishini hisoblash qiyin emas (15x8=120). Ushbu qiymatning besh yo‘nalishga taqsimlanishi natijasida har bir ko‘rsatkichga o‘rtacha 24 tadan ball tegishi ehtimoli kelib chiqadi (120−5q24). Demak, biron-bir yo‘nalish bo‘yicha olingan ball 24 dan qanchalik yuqori bo‘lsa, aynan shu yo‘nalishdagi ustanovka sinaluvchida shunchalik ustunlik qilishini anglasa bo‘ladi.

| Topshiriqlar | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
|---|---|---|---|---|---|
| I | | | | | |
| II | | | | | |
| II | | | | | |
| IV | | | | | |
| V | | | | | |
| VI | | | | | |
| VII | | | | | |
| VIII | | | | | |

| Topshiriqlar | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
|---|---|---|---|---|---|
| I | | | | | |
| II | | | | | |
| II | | | | | |
| IV | | | | | |
| V | | | | | |
| VI | | | | | |
| VII | | | | | |
| VIII | | | | | |

| Topshiriqlar | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
|---|---|---|---|---|---|
| I | | | | | |
| II | | | | | |
| II | | | | | |
| IV | | | | | |
| V | | | | | |
| VI | | | | | |
| VII | | | | | |
| VIII | | | | | |

| Topshiriqlar | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
|---|---|---|---|---|---|
| I | | | | | |
| II | | | | | |
| II | | | | | |
| IV | | | | | |
| V | | | | | |
| VI | | | | | |
| VII | | | | | |
| VIII | | | | | |

| Topshiriqlar | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
|---|---|---|---|---|---|
| I | | | | | |
| II | | | | | |
| II | | | | | |
| IV | | | | | |
| V | | | | | |
| VI | | | | | |
| VII | | | | | |
| VIII | | | | | |

| Topshiriqlar | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
|---|---|---|---|---|---|
| I | | | | | |
| II | | | | | |
| II | | | | | |
| IV | | | | | |
| V | | | | | |
| VI | | | | | |
| VII | | | | | |
| VIII | | | | | |

| Topshiriqlar | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
|---|---|---|---|---|---|
| I | | | | | |
| II | | | | | |
| II | | | | | |
| IV | | | | | |
| V | | | | | |
| VI | | | | | |
| VII | | | | | |
| VIII | | | | | |

| Topshiriqlar | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
|---|---|---|---|---|---|
| I | | | | | |
| II | | | | | |
| II | | | | | |
| IV | | | | | |
| V | | | | | |
| VI | | | | | |
| VII | | | | | |
| VIII | | | | | |

| Topshiriqlar | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
|---|---|---|---|---|---|
| I | | | | | |
| II | | | | | |
| II | | | | | |
| IV | | | | | |
| V | | | | | |
| VI | | | | | |
| VII | | | | | |
| VIII | | | | | |

| Topshiriqlar | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
|---|---|---|---|---|---|
| I | | | | | |
| II | | | | | |
| II | | | | | |
| IV | | | | | |
| V | | | | | |
| VI | | | | | |
| VII | | | | | |
| VIII | | | | | |

| Topshiriqlar | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
|---|---|---|---|---|---|
| I | | | | | |
| II | | | | | |
| II | | | | | |
| IV | | | | | |
| V | | | | | |
| VI | | | | | |
| VII | | | | | |
| VIII | | | | | |

## TAJOVUZ HOLATI TASHXISI

### (Bass-Darki testi)

1. Jismoniy tajovuz – boshqa odamga nisbatan jismoniy kuchdan foydalanish.

2. Bilvosita tajovuz – boshqa odamga bilvosita yo‘naltirilgan yoki hech kimga yo‘naltirilmagan tajovuz.

3. Tajanglik – arzimas narsa ta’sirida salbiy hissiyotlarni namoyish etishga tayyorlik.

4. Negativizm – mavjud qonun-qoidalarga shunchaki qarshi chiqishdan tortib, ular bilan kurashishgacha bo‘lgan reaksiyalar.

5. Xafagarchilik – boshqalardan ularning haqiqiy yoki xayoliy harakatlari sababli nafratlanish va ularga hasad qilish.

6. Shubhalanuvchanlik – ehtiyotkorlik va boshqalarga ishonchsizlikdan tortib, boshqalarning yomon niyatda ekanligiga qattiq ishonish.

7. Verbal tajovuz – negativ hissiyotlarning turli tovushlar bilan (qiyqirish, chiyillash) yoki so‘zlar bilan (qarg‘ash, so‘kinish) ifodalanish.

8. Aybdorlik hissi – subyektning o‘zini yomon inson deb o‘ylashi, qilayotgan ishlari yomonlik degan xayolga borishi, vijdon azobidan qiynalishi.

Savolnoma 75 ta hukmdan iborat. Biz so‘rovnomani tahrir qildik, ko‘rsatkichlarni hisoblash jarayonini unifikatsiyaladik, uning validligi va ishonchliligini tekshirdik.

Yo‘riqnoma: Quyidagi hukmlarni o‘qib (yoki eshitib) ularni o‘z xulqatvoringiz bilan solishtiring va unga mos yoki mos emasligini bildirish uchun berilgan javob variantlaridan birini: «ha», «ha, shekilli», yoki «yo‘q, shekilli», «yo‘q» tanlang.

**Metodika so‘rovnomasi**

1. Ayrim paytlarda birovga zarar yetkazmasdan tura olmayman.
2. Ba’zida o‘zimga yoqmagan odamlarni g‘iybat qilishim mumkin.
3. Jahlim tez chiqadi-yu, ammo o‘zimni tezgina tinchlantira olaman.
4. Agar mendan biror narsani bajarish yaxshilikcha so‘ralmasa, iltimosni bajarmayman.
5. Har doim ham o‘zimga tegishli narsalarni qo‘lga kirita olmayman.
6. Boshqalar orqamdan gapirishlarini bilaman.
7. Agar boshqa odamlarning harakatlari menga yoqmasa, buni ularga dangal aytaman.
8. Bordi-yu biror kishini aldasam, vijdonim qiynaladi.
9. Menimcha odamga qo‘l ko‘tara olmasam kerak.
10. Meni hech qachon narsalarni otib yuboradigan darajada jahlim chiqmaydi.
11. Birovning kamchiliklarini doim kechira olaman.
12. O‘rnatilgan tartib-qoida menga yoqmasa, uni buzgim keladi.
13. Boshqalar qulay vaziyatlardan deyarli hamma vaqt foydalanadilar.
14. O‘zini men o‘ylagandan ortiq do‘stona tutayotgan odamlarga biroz shubha bilan qarayman.

15. Ko‘pincha boshqalarning fikriga qo‘shilmayman.
16. Ba’zida xayolimga shunday fikrlar keladiki, ulardan uyalaman.
17. Birov meni birinchi bo‘lib ursa, unga javob qaytarmayman.
18. Jahlim chiqqanda eshikni qarsillatib yopaman.
19. Atrofdagilar o‘ylaganidan ham jahldorroqman.
20. Agar kimdir o‘zini xo‘jayinlardek tutsa, doim unga qarshi bo‘laman.
21. O‘z taqdirimdan biroz o‘ksinaman.
22. Menimcha, ko‘pchilik odamlar meni yoqtirmasa kerak.
23. Agar kimdir mening fikrimga qo‘shilmasa, o‘zimni bahslashishdan to‘xtata olmayman.
24. Menimcha, ishdan bo‘yin tovlagan odamlarning vijdoni qiynalishi kerak.
25. O‘zimni yoki oilamni haqoratlagan odam bilan mushtlashishga tayyorman.
26. Qo‘pol hazil qila olmayman.
27. Ustimdan kulishganda qattiq jahlim chiqib ketadi.
28. Odamlar o‘zini boshliqlarcha tutsa, darrov tanobini tortib qo‘yaman.
29. Deyarli har hafta o‘zimga yoqmaydigan biror kimsani ko‘rib turaman.
30. Ko‘pchilik menga hasad qiladi.
31. Huquqlarimning hurmat qilinishini talab qilaman.
32. Ota-onamga kam yordam berayotganimdan vijdonim qiynaladi.
33. Doim odamlarning asabiga tegib yuradiganlarning dodini berib qo‘yish kerak.
34. Jahlim chiqib ketganda, ba’zida «qovog‘imdan qor yog‘adi».
35. Odamlar menga yomon munosabatda bo‘lsa ham, dilim siyoh bo‘lmaydi.
36. Kimdir jahlimni chiqarsa ham, unga e’tibor bermayman.
37. Tashqaridan qaraganda bilinmasa ham, ba’zida hasad qilaman.
38. Ba’zida menga ustimdan kulishayotganday tuyuladi.
39. Hatto jahlim chiqqanida ham qo‘pol so‘zlarni ishlatmayman.
40. Xatolarimning kechirilishini juda-juda xohlardim.
41. Kimdir meni ursa ham, kamdan kam hollarda javob qaytaraman.
42. Biror narsa xohlaganimdek chiqmasa, ba’zida xafa bo‘laman.
43. Ba’zida oldimda odamlar borligi ham asabimga tegadi.
44. Hech kimdan haddan tashqari nafratlanmayman.
45. Asosiy qoidam: «Hech qachon begonalarga ishonma».

46. Biror kimsa asabimga tegsa, u haqidagi barcha fikrlarimni aytib yuborgim keladi.

47. Juda ko‘p qilmishlarim uchun keyin afsuslanaman.

48. Jahlim chiqsa, birovni urib yuborishim ham mumkin.

49. O‘n yoshligimdan beri haligacha birdan qattiq jahlim chiqqan vaqtlar bo‘lmagan.

50. Ko‘pincha o‘zimni portlay-portlay deb turgan poroxli bochkadek his etaman.

51. Agar odamlar o‘zimni qanday his etayotganimni bilganlarida meni til topishish qiyin bo‘lgan odam deb hisoblardilar.

52. Doim nima sababdan odamlar menga yaxshilik qilishlarini tushunishga intilaman.

53. Menga baqirishganda, baqirib javob qaytaraman.

54. Muvaffaqiyatsizliklar meni ranjitadi.

55. Mushtlashish borasida boshqalardan qolib ham, oshib ham ketmayman.

56. Jahlim chiqib ketganidan duch kelgan narsani sindirib tashlaganimni eslay olaman.

57. Ba’zida mushtlashishni o‘zim boshlashga tayyorligimni sezaman.

58. Ba’zida hayot menga nisbatan adolatsizlik qilayotganini his etaman.

59. Avvallari ko‘pchilik odamlar rost gapiradi, deb o‘ylardim, endi esa bunga ishonmayman.

60. Jahlim chiqqanda so‘kinaman.

61. Biron narsani noto‘g‘ri qilib qo‘ysam, vijdonim qiynaladi.

62. Agar o‘zimni himoya qilish uchun kuch ishlatish lozim bo‘lsa, uni ishlataman.

63. Ba’zida jahlim chiqqanini stolga musht bilan urish orqali ko‘rsataman.

64. O‘zimga yoqmaydigan odamlarga nisbatan qo‘polroq bo‘laman.

65. Menga zarar yetkazish niyati bo‘lgan dushmanlarim yo‘q.

66. Odamni o‘z o‘rniga tushirib qo‘yish talab qilinganda ham, bunday qila olmayman.

67. Tez-tez «noto‘g‘ri yashayapman» degan xayolga borib turaman.

68. Shunday odamlar borki, ular jahlimni chiqarganlaridan mushtlashib ketishim mumkin.

69. Mayda-chuydalar deb mening jahlim chiqavermaydi.

70. Odamlar jahlimni chiqarishga yoki haqoratlashga harakat qiladilar, degan fikr kamdan kam xayolimga keladi.

71. Ko‘pincha odamlarni shunchaki qo‘rqitib, aslida ularni jazolamoqchi bo‘lmayman.
72. Oxirgi paytlarda juda ziqna va ezma bo‘lib qoldim.
73. Bahslashganda ko‘pincha baland ovoz bilan gapiraman.
74. Odatda, odamlarga bo‘lgan yomon munosabatimni yashiraman.
75. Bahslashib-tortishgandan ko‘ra rozi bo‘lib qo‘ya qolaman.

Natijalarni qayta ishlash jarayonida «ha» va «ha, shekilli» javoblari o‘zaro qo‘shilib «ha» javobi sifatida, «yo‘q» va «yo‘q, shekilli» javoblari o‘zaro qo‘shilib «yo‘q» javobi sifatida qaraladi.

**1-KALIT**
**Natijalarni qayta ishlash uchun**

«1» Jismoniy tajovuz (k=11)
1+, 9-, 17-, 25+, 41+, 55+, 62+, 68+.
«2» Verbal tajovuz (k=8)
7+, 15+, 23+, 31+, 39-, 46+, 53+, 60+, 66+, 71+, 73+, 74-, 75-.
«3» Bilvosita tajovuz (k=13)
2+, 10+, 18+, 26-, 34+, 49-, 56+, 63+.
«4» Negativizm (k=20).
4+, 12+, 20+, 28+, 36-.
«5» Tajanglik (k=9)
3+, 11-, 19+, 27+, 35-, 43+, 50+, 57+, 64+, 69-, 72+,
«6» Shubhalanuvchanlik (k=11)
6+, 14+, 22+, 38+, 45+, 52+, 59+, 65-, 70-,
«7» Xafagarchilik (k=18)
5+, 13+, 21+, 29+, 37+, 44+, 51+, 58+.
«8» Aybdorlik hissi (k=11).
8+, 16+, 24+, 32+, 40+, 47+, 54+, 61+, 67+.

**2-KALIT**
**Natijalarni tahlil qilish uchun varaqa**

| | «1» | «3» | «5» | «4» | «7» | «6» | «2» | «8» |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 1+ | 2+ | 3+ | 4+ | 5+ | 6+ | 7+ | 8+ |
| | 9- | 10+ | 11- | 12+ | 13+ | 14+ | 15+ | 16+ |
| | 17- | 18+ | 19+ | 20+ | 21+ | 22+ | 23+ | 24+ |
| | 25+ | 26- | 27+ | 28+ | 29+ | 30o | 31+ | 32+ |
| | 33o | 34+ | 35- | 36- | 37+ | 38+ | 39- | 40+ |
| | 41+ | 42o | 43+ | | 44+ | 45+ | 46+ | 47+ |
| | 48+ | 49- | 50+ | | 51+ | 52+ | 53+ | 54+ |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 55+ | 56+ | 57+ | | 58+ | 59+ | 60+ | 61+ |
| | 62+ | 63+ | 64+ | | | 65- | 66- | 67+ |
| | 68+ | | 69- | | | 70- | 71+ | |
| | | | 72+ | | | | 73+ | |
| | | | | | | | 74- | |
| | | | | | | | 75- | |
| K: | 11 | 13 | 9 | 20 | 13 | 11 | 8 | 11 |

Ballar yig‘indisini har bir reaksiya bo‘yicha kalitda qavslar ichida berilgan koeffitsientga ko‘paytirib, qiyosiy tahlil uchun qulay me’yoriy individual va guruhga tegishli natijalarni aks ettiruvchi ko‘rsatkichlarni aniqlash mumkin («0» ko‘rsatkichli hukmlar hisobga olinmaydi).

Umumiy ko‘rsatkichlar:

(«1» + «2» + №3№): 3 = TI – tajovuzkorlik indeksi.

(«6» + «7») : 2 = DI – dushmanlik indeksi.

Tajovuzkorlikning me’yoriy ko‘rsatkichi: indeksi – 21+/ - 4.

Dushmanlikning me’yoriy ko‘rsatkichi: indeksi – 6,5-7 + 3.

### Shaxs va shaxslararo munosabatlarni o‘rganishda «Uy, Daraxt, Inson» metodikasi

Ushbu metodika kattalar bilan bir qatorda bolalarni ham o‘rganish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, uni individual va guruhiy tarzda o‘tkazish mumkin. Metodikaning mohiyati quyidagicha: tekshiriluvchiga uy, daraxt va inson rasmini chizish taklif qilinadi. So‘ng ishlab chiqilgan reja bo‘yicha suhbat o‘tkaziladi.

R.Berks ushbu testni qo‘llashda bir rasmda daraxt, uy va insonni tasvirlashni taklif qiladi. Bunda uy, daraxt va insonning o‘zaro ta’siri ko‘rish obrazini tashkil qiladi, deb hisoblanadi. Agar rasmni harakatga keltirsak, u haqiqatdan ham bizning hayotimizda sodir bo‘layotganini sezish mumkin.

Uy, daraxt va inson rasmining chizilishi tartibi testni tavsiflash usuli sifatida qaraladi. Agar daraxt rasmi birinchi bo‘lib chizilgan bo‘lsa, bunda inson uchun asosiy bo‘lgan narsa – hayotiy energiya (quvvat), agar uy birinchi navbatda chizilgan bo‘lsa. Birinchi o‘rinda inson uchun xavfsizlik. Muvaffaqiyat yoki bu tushunchalarning rad etilishi turadi.

### TESTDAGI BELGILAR TAVSIFI

**UY RASMI.** *Eski qulab tushayotgan uy* – ba’zida subyekt o‘ziga bo‘lgan munosabatni shu tarzda ifodalashi mumkin.

*Uzoqdagi uy* – rad qilinish tuyg‘usi.

*Yaqindagi uy* – ochiqlik, iliqlik va mehmondo‘stlik hissi.

*Uyning o‘rniga uning plani rasmi chizilgan bo‘lsa* – jiddiy nizo.

*Turli qurilmalar* – uyning haqiqiy sohibiga nisbatan agressiyaning mavjudligi. Devorga ko‘tarilayotgan zina (eshiksiz) – voqelikni to‘g‘ri baholashga zarar yetkazuvchi nizoli vaziyatni aks ettirilishi.

**Devorlar.** Orqa devorni odatdagidek bo‘lmagan tarzda tasvirlanishi o‘z-o‘zini nazorat qilishga moslashish, shu bilan birga kuchli dushmanchilikka moyillik.

*Boshqa detallarga nisbatan orqa devor konturlarining sezilarli tarzda qalinroq, yorqinroq chizilishi* – subyekt voqelik bilan aloqani saqlab qolishga intiladi.

*Gorizontal o‘lchovlari bo‘rttirilgan devor* – vaqtni noto‘g‘ri oriyentirovka qilish (yo o‘tmishning, yo kelajakning ustunligi), subyektning bosimga juda sezuvchanligi.

*Devorning yon konturlari juda ingichka va adekvat emasligi* – falokat xavfini his qilish; chiziq konturlari juda bo‘rttirilgan. Devorning faqat bir tomoni tasvirlansa va agar bu devor yon tarafi bo‘lsa, kelishmovchilik va ajralib qolish kabi jiddiy moyillik mavjud. Devor aniq-ravshan tasvirlansa – imkon boricha vaziyatga ta’sir qilish, ehtiyoji anglanmagan mayllar.

*Vertikal o‘lchamlari bo‘rttirilgan devor* – subyektning voqelik bilan aloqalari unchalik ko‘p emas. Xayolan huzurlanishga intiladi.

**Eshiklar.** Eshik mavjud bo‘lmasa – subyekt boshqalar oldida o‘zini namoyon qilishga qiylanadi (ayniqsa oila davrasida). Yon tarafdagi yoki orqadagi eshik – chetlashish, qochish.

*Bayramona (tantanavor) eshik* – samimiylik. Ochiqlikning birinchi belgisi.

**Ochiq eshik.** Agar turar joy bo‘lsa – bu tashqaridan bo‘ladigan iliqlikka kuchli ehtiyoj yoki ochiqlikka namoyishkorona intilish.

*Yon tarafdagi eshik* – voqelikni qabul qilmaslik. Ajralib qolishlik.

*Eshiklar juda katta bo‘lsa* – boshqalarga haddan tashqari bog‘liqlik yoki o‘zining muloqotchanligi bilan boshqalarni hayratga solishga intilish.

*Eshiklar juda kichkina bo‘lsa* – o‘zining «Men»iga boshqalarni kiritmaslik xohishi, ijtimoiy vaziyatlarga mos kelmaslik. Noadekvatlik hissi. Katta qulfli eshik – dushmanchilik, vahimachilik, pinhoniylik, himoyalanish tendensiyasi.

*Qalin tutun* – sezilarli darajada ichki zo‘riqish.

*Qalin bo‘lmagan tutun oqimi* – uyda emotsionallik yetishmasligi hissi.

**Deraza.** Birinchi qavat oxirida chizilgan bo‘lsa – bu shaxslararo munosabatlardan nafratlanish va voqelikdan ajralib qolishga intilishni

bildiradi. Deraza oxirigacha ochilgan va ko‘p bo‘lsa aloqa o‘rnatishga tayyorlik. Pardalarning bo‘lmasligi o‘z hissiyotlarini namoyish qilishga intilishning mavjud emasligi.

*Deraza qattiq yopiq bo‘lsa* – muhit bilan o‘zaro ta’sir o‘rnatishdan tashvishlanish.

**Oynasi yo‘q deraza dushmanchilik.** Ajralib qolishlik, pastki qavatda oyna yo‘q. Lekin yuqori qavatda mavjud bo‘lsa – haqiqiy hayot bilan xayoliy hayot o‘rtasidagi oraliq.

**Tom.** Xayol sohasi hisoblanadi. Tom va mo‘rini shamol uchirib yuborgan qilib tasvirlansa, subyektning hissiyotlarini ifodalaydi. (O‘zining iroda kuchiga qaramay, ustun turuvchi hissiyotlar.)

Chizilgan rasmga umuman mos tushmagan qalin chizilgan tom odatda tashvishlanish shu bilan birga keladigan lazzatlanish manbai sifatida chiqadigan fantaziya. Chekkalari ingichka chiziqli tom – fantaziyani nazorat qilishning kuchsizligi.

*Chekkalari qalin chizilgan tom* – fantaziyani jilovlash, o‘zini nazorat qilishga haddan tashqari urinish.

**Xona.** Assotsiatsiyalar: xonada yashovchi odam va xonadagi interpersonal munosabatlar tufayli hosil bo‘lishi hamda (pozitiv) ijobiy yoki (negativ) salbiy emotsional tusga ega bo‘lishi mumkin.

*Varaqqa sig‘magan holda tasvirlangan xona* – subyektning xonadagi noxush assotsiatsiyalar yoki unda yashovchilar bilan yaxshi munosabatlar yo‘qligi sababli muayyan xonalar rasmini tasvirlashni istamasligi. Subyektning yaqin xonani tanlashi – badgumonlik.

**Vannaxona.** Sanitarlik vazifasini bajaradi. Agar vannaxona katta tasvirlangan bo‘lsa – bu vazifalarni buzilishi to‘g‘risida gapirish mumkin.

**Quvur.** Quvurning mavjud emasligi – subyekt uyda psixologik iliqlikning yetishmasligini his qiladi. Quvur deyarli ko‘rinmasa, emotsional ta’sirotlarni istamaslik.

*Tomga nisbatan quvur qiyshiq chizilgan bo‘lsa* – bola uchun norma; kattalarda kuzatilsa bu kuchli agressiya, suv oqadigan quvur kuchli himoya va odatda badgumonlik.

*Vodoprovod quvuri* – kuchli himoyalanish ustanovkasi va odatda yuqori darajadagi badgumonlik.

**Qo‘shimchalar.** Tiniq oynali eshik hammani o‘ziga qaratishni bildiradi. O‘zini namoyish qilish istagi, biroq vizual aloqa vositasi bilan cheklangan holda.

**Daraxtlar.** Ko‘pincha turli xil kishilarni anglatadi. Agar ular go‘yoki uyni «bekitib» turgan bo‘lsa, ota-onalar ustun bo‘lganda, kuchli bog‘liqlik ehtiyoji mavjudligidan dalolat beradi.

**Butalar.** Ba'zida odamlarni anglatadi. Agar ular uyni qalin o'rab turgan bo'lsalar, o'zini himoya to'siqlari bilan kuchli o'rab olish istagi mavjud bo'lishi mumkin.

*Butalar yo'lning ikkala yoqasida tartibsiz joylashgan bo'lsa* – voqelik chegarasida biroz tashvishlanish va uni ongli ravishda nazorat qilishga intilish mavjudligini ko'rsatadi.

*Yo'lka* – proporsiyalari yaxshi, yengil chizilgan bo'lsa, individ boshqalar bilan aloqada o'z-o'zini e'tirof etilishiga va o'z-o'zini nazorat qilishga egaligini ko'rsatadi.

*Uzun yo'lka* – ancha adekvat ijtimoiylashuv ehtiyoji bilan birga keladigan kuchsiz ochiqlik.

*Juda keng boshlanib, uyga yetgach, torayib boruvchi yo'lka* – yolg'izlikka bo'lgan xohishni niqoblashga intilish.

*Quyosh* – hurmatga ega bo'lgan timsol bo'lib ko'pincha iliqlik va kuch manbai sifatida idrok qilinadi.

*Ob-havo* – (qanday ob-havo tasvirlanganligi) subyektning muhit bilan bog'liq kechinmalarini aks ettiradi. Qanchalik ob-havo yaxshi tasvirlangan bo'lsa, subyekt shunchalik muhitni dushmanchilik sifatida idrok etadi.

**Rang.** Yashil rang – tom uchun, jigarrang – devor uchun, sariq – agar uy ichidagi yorug'likni aks ettirish uchun qo'llansa, tun yoki uning yaqinlashayotganligi aks ettirilsa subyektning quyidagi hissiyotlarini ifodalaydi:

1) muhitning unga nisbatan agressiv dushmanligi;

2) uning harakatlarining yashiringan holda bo'lishi.

Qo'llanilgan ranglarning miqdori. Yaxshi moslashgan, biroq tortinchoq, emotsional subyekt odatda ikkitadan kam yoki beshtadan ko'p rang ishlatmaydi.

Uyni 7–8 rangga bo'yovchi subyekt juda labil hisoblanadi. Faqat bitta rang qo'llanilsa, bu subyektning emotsional qo'zg'alishdan qo'rqishini bildiradi.

Rangni tanlash. Subyekt rangni qanchalik uzoq, ishonchsizlik va qiyinlik bilan tanlasa, shaxsdagi buzilishlar ehtimoli shunchalik ko'p bo'ladi.

*Qora rang* – tortinchoq, cho'chishlik.

*Yashil rang* – xavfsizlik hissiga ehtiyoj. O'zini xavfdan asrash. Bunda daraxt barglari va uy tomi yashil rangda bo'lishi unchalik ahamiyatga ega emas.

*Qo'ng'ir rang* – sezuvchanlik va dushmanlik kombinatsiyasi.

*Shaffof rang* – hokimiyatga kuchli intilish ehtiyoji.

*Qizil rang* – kuchli sezuvchanlik. Atrofdagilardan iliqlik sezish ehtiyoji.

*Sariq rang* – kuchli dushmanchilikning belgisi.

**Umumiy ko‘rinish.** Rasm varaqning chetiga joylashgan bo‘lsa – xavfsirash, ishonchsizlik hissi. Ko‘pincha bunday joylashish muayyan vaqtni bildiradi:

a) o‘ng tomon – kelajak, chap – o‘tmish;

b) xona yoki uyda doimiy yashovchilarni oldindan belgilab qo‘yilishi bilan bog‘liq;

d) kechinmalar mohiyatini ko‘rsatadi: chap tomon – emotsional, o‘ng tomon – intellektual.

**Manzara.** Pastdan yuqoriga nazar tashlash – subyektning chetga chiqib qolganligi, uyda tan olinmaganlik, rad etilganlik hissi.

Manzara, rasm uzoqdan aks ettirilgan bo‘lsa – konvensional jamiyatdan chetga chiqish istagi. Ajralib qolish, rad etilish hissi.

Agar individ uyning bir uchini to‘g‘ri chizib, boshqa tarafida tom va devorning vertikal chiziqlarini aks ettirsa, kelajakdan cho‘chish (o‘ng taraf) yoki o‘tmishni unutish istagi (chap tomon)ni bildiradi.

*Uch yoqlama manzara (subyekt 4 ta alohida devor rasmini chizsa)* – bu atrofdagilarning o‘zi haqidagi fikrlari to‘g‘risida haddan ortiq qayg‘urishni bildiradi.

**Rasmning joylashishi.** Rasm varaqning markazidan tepada joylashgan bo‘lsa va u markazga nisbatan katta bo‘lsa, u holda:

– subyekt o‘z maqsadiga erishishda qiyinchilik his qiladi;

– subyekt xayolida qoniqish hosil qilishni yoqtiradi (ichki zo‘riqish);

– subyekt chetda turishga moyil.

*Rasmning varaq o‘rtasida joylashishi* – rigidlik va himoyasizlik hamda psixik muvozanatni saqlash uchun nazorat qilish ehtiyoji.

Rasmning varaq markazidan pastda joylashishi:

– subyekt o‘zini noqulay va himoyasiz his qiladi, bu esa unda depressiv kayfiyatni tug‘diradi;

– subyekt o‘zini cheklangandek his qiladi;

Rasm varaqning chap tomonida joylashsa, o‘tmishga urg‘u berish impulsivlik.

*Rasm varaqning chap burchagida joylashsa* – yangi kechinmalardan qochishga moyillik. O‘tmishga qochish yoki xayolotga berilish xohishi.

*Rasm varaqning o‘ng tarafida joylashsa* – subyekt intellektual sohada huzurlanishga moyil. Xulq-atvorni nazorat qilib turiladi. Kelajakka urg‘u berish kuzatiladi.

*Rasm varaqning chap chekka qismidan tashqariga chiqsa* – o‘tmishni mustahkamlash va kelajakdan cho‘chish. Erkin, ochiq emotsional kechinmalar haqida haddan ziyod qayg‘urish.

Rasm varaqning o‘ng chetidan tashqarida joylashsa, o‘tmishdan uzoqlashish uchun kelajakka «qochish» xohishi, ochiq, erkin kechinmalardan qo‘rqish. Qattiq nazoratni saqlashga intilish. Varaqning tepa chekka qismidan tashqariga chiqish – subyekt haqiqiy hayotda boshdan kechirmaydigan, huzurlanish manbai sifatida chiqadigan fantaziya va tafakkurga yo‘nalgan.

**INSON.** *Bosh* – aql (nazorat), xayol sohasi.

*Katta bosh* – inson faoliyatda tafakkurning ahamiyatsiz ravishda ishonishni ta’kidlash.

*Kichik bosh* – aqliy noadekvatlikni boshdan kechirish.

*Noaniq chizilgan bosh* – tortinchoqlik, uyalish.

*Bosh eng oxirida tasvirlansa* – shaxslararo nizo.

*Boshqa jinsli figuradagi katta bosh* – qarama-qarshi jinsning soxta ustunligi va uning yuksak ijtimoiy avtoriteti.

*Bo‘yin* – nazorat (bosh) va mayl sohasi (tana) o‘rtasidagi aloqaning timsoli.

*Bo‘yin ta’kidlansa* – himoyaviy. Aqliy nazoratga bo‘lgan ehtiyoj.

*Bo‘yin haddan ziyod katta bo‘lsa* – tana impulslarini anglash ularni nazorat qilishga intilish.

*Uzun, ingichka bo‘yin* – tormozlanish, regressiya.

*Kalta, qalin bo‘yin* – o‘zining zaifligi va istaklariga yon bosish.

*Yelka, uning o‘lchami* – ilohiy kuch belgisi yoki hokimiyatga bo‘lgan intilish.

*Yelka haddan tashqari katta chizilsa* – katta kuchni his qilish yoki kuch va hokimiyat to‘g‘risida juda kam qayg‘urish.

*Kichkina yelka* – o‘zining arzimas, ahamiyatsiz ekanligini his qilish.

*Yelka juda ham qiyshiq bo‘lsa* – haddan ziyod ehtiyotkorlik, himoya belgisi.

*Keng yelka* – kuchli tana impulslari.

*Gavda* – qiyshiq yoki kvadrat gavda mardlikni ifodalaydi.

*Gavda juda ham katta bo‘lsa* – subyektning qondirilmagan, kuchli anglanadigan ehtiyojlarining mavjudligi.

*Normal bo‘lmagan kichik gavda* – kam ahamiyatlilik. Kamsitilish hissi.

*Yuz* – yuz tuzilishi o‘z ichiga burun, og‘iz, quloq, ko‘zni oladi. Bular tashqi stimul retseptorlari voqelik bilan sensor aloqa qilish.

*Yuz ajratib ko‘rsatilsa* – o‘zining tashqi qiyofasi, boshqalar bilan munosabatlari to‘g‘risida kuchli qayg‘urish.

*Baqbaqa (iyak) juda ham ajratib ko‘rsatilsa* – ustunlik qilish ehtiyoji.

*Baqbaqa juda katta tasvirlansa* – his qilinadigan ojizlik va qat’iyatsizlikni kompensatsiya qilish.

*Quloqlar ham juda ajratib ko‘rsatilsa* – eshitish gallyutsinatsiyalari. Bu tanqidga nisbatan sezgir kishilarda uchraydi.

*Kichkina quloqlar* – tanqidni qabul qilmaslikka intilish.

*Ko‘zlar yumilgan yoki shlyapa ostiga yashiringan* – noxush vizual (ko‘rish) ta’surotdan qochishga intilish.

*Qavariq ko‘zlar* – qo‘pollik, dag‘allik. Kichkina ko‘zlar – og‘irlikni o‘ziga olish.

*Uzun kipriklar* – o‘zini namoyish qilish, boshqalarning havasini keltirishga moyillik.

*Masxaraboz labi* – noadekvat hissiyotlar. Majburiy ochiq ko‘ngillik.

*Keng burun* – jirkanch ustanovkalar. Istehzoli ijtimoiy stereotiplar asosida fikrlash.

*Tishlar aniq chizilsa* – agressivlik.

*Noaniq, xira yuz* – tortinchoqlik, qo‘rqoqlik.

*Niqobga o‘xshash yuz* – ehtiyotkorlik, pinhoniylik.

*Siyrak kalta qosh* – nafrat, jirkanish.

*Soch* – mardlik, kuch, yetuklik va ularga intilish belgisi.

*Qo‘llar* – atrof-muhitga, asosan shaxslararo munosabatlarga moslashish qurolidir.

*Keng quloch yoygan qo‘llar* – harakatlanishga jadal intilish.

*Yelka yoki kaft qism keng tasvirlansa* – impulsivlik, harakatlarni yetarlicha nazorat qilmaslik.

*Gavdaga qo‘shilmagan, o‘zi alohida ikki tarafga qaratib chizilgan qo‘l* – subyekt o‘zini nazoratidan chiqib ketgan xatti-harakatlari va xulq-atvorini ba’zida ko‘ra olish.

*Qo‘llar ko‘krak ustiga qo‘yilgan bo‘lsa* – dushmanlik, badgumonlik ustanovkasi. Qo‘llar orqada – kelishuvga (kompromissga) bormaslik, yon bosishni istamaslik (hatto do‘stlari bilan ham) hamda tajovuzkor, dushmanchilik. Mayillari namoyon bo‘lishini nazorat qilishga moyillik.

*Uzun va muskulli qo‘llar* – subyekt jismoniy kuch, mardlik epchillikka muhtoj.

*Qo‘llar haddan ziyod uzun bo‘lsa* – haddan tashqari ambitsion intilishlar. Qo‘llar kuchsiz va egiluvchan – shaxslararo munosabatlarga yaxshi moslasha olish. Qo‘llar tanaga birlashib ketgan – rigidlik.

*Qo‘llar juda qisqa tasvirlansa* – intilish bilan birga noadekvatlik hissining mavjud emasligi.

*Qo‘llar haddan tashqari katta bo‘lsa* – ijtimoiy munosabatlarga yaxshiroq moslashishga bo‘lgan kuchli ehtiyoj.

*Qo‘llar mavjud bo‘lmasa* – intellekt yuqori bo‘lishi bilan birga bir vaqtda noadekvatlik hissi.

*Qo‘l yoki oyoq chap tarafga og‘sa* – ijtimoiy rolli nizo.

*Erkaklardagi qo‘l va oyoqlarning kattaligi* – qo‘pollik, dag‘allik.

*Uzun qo‘llar* – nimagadir erishish xohishi.

*Uzun va nimjon qo‘llar* – bog‘liqlik, g‘amxo‘rlik, vasiylikka ehtiyoj.

*Ikki tarafga yoyilgan, nimadir olayotgan qo‘l tasvirlansa* – bog‘liqlik, muhabbat istagi.

*Yon tarafga cho‘zilgan qo‘l* – ijtimoiy aloqalardagi qiyinchiliklar.

*Nimjon, kuchsiz qo‘llar* – erishilgan natijadan qoniqmaslik hissi.

*Boksyor qo‘lpoqiga o‘xshash qo‘l* – siqib chiqarilgan tajovuzkorlik.

*Qo‘llar orqada yoki cho‘ntakda tasvirlansa* – aybdorlik hissi, o‘ziga ishonmaslik.

*Qo‘llar noaniq tasvirlansa* – faoliyatga va ijtimoiy munosabatlarda o‘ziga ishonchining yetishmasligi.

*Katta qo‘llar* – his qilinadigan zaiflik va aybdorlikning kompensatsiyalanishi.

*Ayol tasviridagi qo‘lning mavjud emasligi* – ona obrazi xuddi yaxshi ko‘rmaydigan, qo‘llab-quvvatlanmaydigan, rad qilinadigandek idrok qilinadi.

*Barmoqlar uzilib qolsa* – siqib chiqarilgan tajovuzkorlik, odamovilik.

*Katta barmoqlar* – qo‘pollik, dag‘allik, tajovuzkorlik.

*Beshtadan ortiq barmoqlar* – tajovuzkorlik, ambitsiya.

*Kaftsiz barmoq* – qo‘pollik, dag‘allik, tajovuzkorlik.

*Beshtadan kam barmoqlar* – bog‘liqlik, zaiflik.

*Uzun barmoqlar* – ochiq agressiya.

*Mushtga yig‘ilgan barmoqlar* – qo‘zg‘dnchilik, norozilik, qarshilik.

*Yo‘g‘on, mixga o‘xshash barmoqlar* – dushmanchilik.

*Uzun oyoqlar* – mustaqillikka kuchli ehtiyoj va unga intilish.

*Juda katta oyoq* – jismoniy yoki psixologik bo‘shashganlik.

*Rasm oyoq va tovondan boshlansa* – qo‘rqoqlik.

*Tovon aks ettirilmasa* – odamovilik, cho‘chish.

*Oyoqlar keng ochilgan bo‘lsa* – bo‘ysunmaslik, himoyasizlik.

*Oyoqlar har xil o‘lchamda* – mustaqillikka intilishdagi ambivalentlik.

*Oyoqlar mavjud emas* – odamovilik, cho‘chish.

*Oyoqlar bo‘rttirib ko‘rsatilsa* – qo‘pollik, dag‘allik.

*Tovon noproporsional uzun bo‘lsa* – xavfsizlik ehtiyoji.

**Mardlik namoyon qilish ehtiyoji.** Tovon noproporsional kichik bo‘lsa – bog‘liqlik.

**Gavda holati (poza).** Yuz qismi ko‘rsatilib chizilgan bo‘lsa, bu odamovilik tendensiyasini bildiradi.

*Stulning chekkasida o‘tirgan odam* – vaziyatdan chiqib ketishga kuchli intilish, qo‘rquv, yolg‘izlik, gumonsirash.

*Yugurib ketayotgan odam* – qochish, birovdan bekinish xohishi.

Chap va o‘ng tomonga nisbatan proporsiyalari buzilganligi yaqqol ko‘rinib turgan inson shaxsiy muvozanatning yo‘qligini bildiradi.

*Odam rasmida tana qismlari tasvirlanmasa* – insonni yaxlit holda tan olmasligi.

*Yurib ketayongan inson* – yaxshi moslashganlik.

*Muvozanatlashmagan, tik turgan figura* – bosim.

*Qo‘g‘irchoq* – yon berishlik, atrofdagilar ustunligini his qilish.

*Erkak figurasi o‘rniga robot chizilsa* – depersonalizatsiya, tashqi nazorat qiluvchi kuchlarni his qilish.

*Tayoqchalardan iborat figura* – negativizm.

*Yalmog‘iz kampir figurasi* – ayollarga nisbatan ochiqdan ochiq dushmanchilik.

*Masxaraboz, karikatura* – o‘smirlarga xos bo‘lgan to‘laqonli emaslikni boshidan kechirish, dushmanchilik.

*Fon* – yon-atrof tasviri.

*Bulutlar* – qo‘rqinchli tashvish, depressiya.

*Devor, нег konturi* – himoyasizlik.

*Shamolda tasvirlangan inson figurasi* – sevgi-muhabbat, iliqlik, bog‘liqlikka bo‘lgan ehtiyoj.

*Yer chizig‘i* – himoyasizlik. Qurol – agressivlik.

**Qo‘shimcha mezonlar.** Chiziqlarni tuzilishi, o‘chirib tashlangan detallar, bo‘rttirib chizish, shtrixovka – nizo sohasi.

*Tugmachalar, kamar, cho‘ntaklar* – bog‘liqlik.

**Kontur, shtrixovka, rasmning joylashishi.** Bukilgan chiziqlar kam, burchaklar ko‘p bo‘lsa – agressivlik, moslasha olmaslik.

*Dumaloq chiziqlar* – ayollarga xos noziklik.

*Yengil, yorqin, qat’iy chiziqlar kombinatsiyasi* – qo‘pollik, dag‘allik.

*Aniq, ravshan bo‘lmagan kontur chiziq* – qo‘rqoqlik.

*Ishonchli shtrixlar* – qat’iylik, xavfsizlik.

*Nozik uzun chiziq* – bosim.

*Eskizli kontur* – tashvish, qo‘rqish, cho‘chish.

*Uzilgan kontur* – nizolar sohasi.

*Notekis chiziq* – dushmanchilik.

*Aniq, yorqin chiziq* – qo‘pollik.

*Yengil chiziq* – energiya yetishmasligi, kam g‘ayratlilik.

**Shtrixlar uzunligi.** Agar mijoz qo‘zg‘aluvchan bo‘lsa – shtrix chiziqlar kaltalashadi, agar unday bo‘lmasa uzayadi.

*To‘g‘ri shtrixlar* – qaysarlik, tirishqoqlik, qat’iylik.

*Kalta shtrixlar* – impulsiv xatti-harakatlar.

*Bir ritmdagi shtrixlar* – sezuvchanlik, hamdardlik, afsuslanish.

*Qisqa shtrix* – tashvish, ishonchsizlik.

*Gorizontal shtrixlar* – zaiflik, xayolni ta’kidlash.

*Noaniq, turli-tuman, o‘zgaruvchan shtrix* – himoyasizlik, qat’iyatsizlik.

*Vertikal shtrix* – o‘jarlik, qat’iylik, giperaktivlik.

*O‘ngdan chapga shtrixovka* – introversiya, izolatsiya.

*Chapdan o‘ngga shtrix* – motivatsiya mavjud.

*Odamning o‘zidan ketuvchi shtrix* – agressiya, ekstroversiya.

*O‘chirish* – tashvishlanish.

*Tez-tez o‘chirish* – qat’iyatsizlik, o‘zidan qoniqmaslik. Qayta chizish uchun o‘chirish – yaxshi belgi.

*O‘chirish natijasida rasm buzilsa* – kuchli emotsional reaksiya (chizilayotgan obyektga nisbatan).

*Katta rasm* – mag‘rurlik, o‘zini katta tutishga moyillik.

*Kichkina figuralar* – tashvish, emotsional bog‘liqlik, diskomfort hissi.

*Ingichka konturli juda kichik figura* – o‘zining to‘laqonli emasligi hissi.

*Simmetriya yetishmasligi* – himoyasizlik.

*Rasm varaqning eng chetida bo‘lsa* – bog‘liqlik, o‘ziga ishonmaslik.

**Detallar.** Bu yerda tadqiqotchi subyekt shu narsalarga qanchalik qiziqadi, ularni qanday idrok qiladi, ularning ahamiyati subyekt uchun qandayligini bilish juda zarur.

Muhim detallar subyekt chizgan rasmda hozir yoki yaqin o‘tmishda yuksak intellekt bilan xarakterlanuvchi muhim detallarning mavjud emasligi.

Ortiqcha detallar o‘zini cheklay olmaslik, atrof-muhit to‘g‘risida kuchli qayg‘urish, vaziyatni to‘g‘rilash ehtiyoji.

*Detallarning ortiqcha takrorlanishi* – subyekt odatda odamlar bilan to‘g‘ri aloqa o‘rnata olmaydi.

*Detallarning yetishmasligi* – odamovilik.

**Binoda oriyentatsiya qilish.** Rasmda tanqid qilish so‘ralsa, uni tanqidiy baholay olish qobiliyati – voqelik bilan aloqa yo‘qotmaslik ko‘rsatkichi.

*Topshiriqni qarshiliksiz qabul qilish* – ishini yaxshi boshlab turib, so‘ng charchab qolish va rasm chizishni to‘xtatish.

*Rasm tufayli uzr so‘rash* – o‘ziga ishonchining yetishmasligi.

*Rasm chizish davomida tezlik va mahsuldorlikning pasayishi* – tez jonga tegishlik.

*Rasmning nomi* – ekstraversiya. Qo‘llab-quvvatlanish ehtiyoji, mayda gaplik.

*Rasm chap qismini alohida qayd qilinishi* – ayol jinsi bilan identifikatsiyalash.

*Qiyinchiliklarga qaramay, tirishib rasm chizsa* – g‘ayratlilik.

*Rasm chizishga qarshilik qilsa va undan bosh tortsa* – o‘zini ko‘rsatishni xohlamaslik, o‘z muammolarini yashirish.

**DARAXT.** K. Kox interpretatsiyasi (tavsifi) K. Yungning qarashlari (daraxt – tik turgan odam timsoli)dan kelib chiqadi.

*Ildiz* – jamoatchilik, ongsizlik.

*Poya (tana)* – instikt, impuls.

*Shox* – passivlik yoki hayotga qarshi turish.

Daraxt rasmining tavsifi doimo yadro (ildiz, poya, shox) va bezak elementlari (barg, meva, peyzaj) ni o‘z ichiga oladi.

**Ildiz.** Ildiz poyadan kichik bo‘lsa – yashirin narsani ko‘rish istagi.

*Ildiz poya bilan teng* – kuchli qiziquvchanlik.

*Ildiz poyadan katta* – tashvish keltirish mumkin bo‘lgan kuchli qiziquvchanlik.

*Ildiz chiziq orqali tasvirlansa* – sir tutilayotgan narsaga nisbatan bolalarcha munosabat.

*Ikkita chiziq tarzida ildiz* – real narsani baholashda mulohazalilik.

*Simmetriya* – o‘zini tashqi dunyo bilan kelishgandek qilib ko‘rsatishga intilish. Agressivlikni to‘xtatishga bo‘lgan intilish ifodasi. Axloqiy muammolarning tormozlanganligi.

**Barglar shakli.** *Yumaloq barg* – emotsionallik.

*Shoxlar pastga qaratilsa* – mardlikning so‘nishi.

*Shoxlar tepaga qaratilsa* – tashabbus, hokimiyatga intilish.

*Tarvaqaylab ketgan shoxlar* – o‘z-o‘zini tasdiqlash, aloqa o‘rnatish izlanishi, atrofga nisbatan sezuvchanlik, shoshma-shosharlik.

*Qiyshiq chizilgan barglar* – atrofni ochiqchasiga qabul qilish ta’sirchanlik.

*Bir rasmda ham ochiq, ham yopiq barglar* – obyektiv izlanuvchanlik.

*Yopiq yaproqlar* – o‘zining ichki dunyosini bolalarcha himoyalash.

*Yopiq quyuq yaproqlar* – namoyon bo‘lmaydigan agressivlik.

*Yaproqlarning detallari yaxlit qilib birlashtirilmasa* – holatlarni baholashda kam detallardan kelib chiqish.

*Poyaning bitta qismidan chiquvchi shohlar* – 7 yoshli bola uchun norma hisoblanadigan himoyalanishning bolalarga xos usuli.

*Shoxlar bitta yo‘nalishda chizilsa* – voqelikdagi yoqimsiz narsalardan kechish.

*Qalin shoxlar* – voqelikni yaxshi ifodalash.

*Barglarning qing‘ir-qiyshiqligi* – ehtiyotkorlik va pinhoniylik.

*To‘rsimon barg* – yoqimsiz hislardan voz kechish.

*Palma* – joyni o‘zgartirishga intilish.

*Majnuntol* – g‘ayrat va shijoat yetishmasligi.

*Shtrixovka* – tashvish.

*Poya* – onaga o‘xshash xohish yoki otaga o‘xshash intilish.

*Bargni ikkiga ajratib turuvchi chiziq* – passivlik, yumshoqlik.

*Bir chiziqli poya* – narsalarga real qarashni inkor etish.

*Ingichka chiziq bilan chizilgan barg* – ishonuvchanlik, nozik hissiyot.

*Qalin chiziqli poya* – aktivlik, mahsuldorlik, qat’iylik.

*To‘g‘ri chiziqli poya* – epchillik, chaqqonlik.

*Qiyshiq chiziqli poya* – faollik, tashvish va to‘siqlarning aniqmasligi haqida fikrlar bilan tormozlanish.

*Shoxlar poyadan uzilib qolsa* – voqelikdan, haqiqatdan qochish.

*Poya yerdan uzilib qolsa* – tashqi dunyo bilan aloqalarning yetishmasligi, ma’naviy hayot bilan kundalik hayotning kam bog‘langanligi.

*Poya yaproqlar bilan bog‘lansa* – yaxshi rivojlangan intellekt, o‘zining ichki dunyosini saqlab turishga intilish.

*Pastki qismi ingichka poya* – baxtsizlikni his qilish; qo‘llab-quvvatlashga intilish.

*Yaproqning umumiy balandligi* – bog‘liqlik, o‘ziga ishonchning yetishmasligi, tortinchoqlik.

*Bargning uchdan biri* – muhitga yaxshi moslashganlik.

*Butun yaproq* – sezilarli bo‘lish xohishi, boshqalarga ishonish.

Barg uzunligi (varaq 8ta qismga bo‘linadi):

– 1/8 – refleksiya va nazoratning yetishmasligi, 4 yoshli bolaga xos (norma);

– 1/4 – o‘z tajribasini qayta fikrlab ko‘rish qobiliyati, o‘z harakatlarini tormozlash;

– 3/8 – yaxshi nazorat va refleksiya;

– 1/2 – interiorizatsiya, umid, xayol;

– 5/8 – intensiv ma’naviy hayot;

– 6/8 – intellektual taraqqiyot va ma’naviy qiziqishlar;

– 7/8 – barg butun varaqni egallasa – orzu umidlarga berilish.

*Tasvir usuli* – o‘tkir cho‘qqi – xavfdan himoyalanish; boshqalarga ta’sir ko‘rsatish xohishi; aloqalardagi qiyinchiliklar. To‘laqonli emaslik hissi, hokimiyatga intilish kompensatsiyalash istagi; xavfsiz boshpana izlash.

*Bitta varaqda bir necha daraxtlar tasvirlansa* – bolalarga xos xulq-atvor. Tekshiriluvchi qo‘llanmaga amal qilmagan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi. O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – T.: «O‘zbekiston» nashriyoti, 2009.

2. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: «O‘zbekiston», 2011. 440 b.

3. Qodirov B.R., Qodirov I.B. Kasbiy tashxis metodikalari to‘plami. – T.: 2003.

4. G‘oziyev E.G‘, Mamedov K.K. Kasb psixologiyasi. – T.: 2003.

5. Кондаков И.М. «Диагностика профессиональных установок подростков», 1997.

6. Кудряшова А.Ф. Лучшие психологические тесты для профотбора и профориентатора. – М.: 1992.

7. Климов Е.А. Как выбрать профессию. – М.: 1990.

8. Андреева Г.М. Социальная психология: учебник для высших учебных заведений. – М.: Аспект Пресс, 1998.

9. Davletshin M.G., Do‘stmuhamedova Sh.A., Mavlonov M.M., To‘ychiyeva S.M. Yosh va pedagogik psixologiya. – T.: TDPU 2004 .

10. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). – T.: «O‘qituvchi». 1994.

11. Алфимова М.В., Трубников В.И. Генные основы темпераментам личности 11 Вопросы психологии. 2000. №2 стр. 128–139.

12. Sunnatova R.I., Parpiyev U. Kasbga yo‘naltirish maslahatlari: metodlar, muammolar, imkoniyatlar. – T.: 2001.

13. Qodirov K.B. Kasb tanlashga tayyorgarlikning psixologik jihatlari va kasbiy tashxis. – T.: 2001.

14. Rashidov F.X., Xodjaboyev A.R., R.K. Jo‘rayev, X.F. Masudov va boshqalar. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limdagi tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklar tasniflagichi. – T.: 2000.

15. Sog‘inov N., Ubaydullayev F. O‘quvchilar bilan olib boriladigan kasb tanlash, kasbga yo‘llash ishlarini tashkil qilishda psixodiagnostika metodlaridan foydalanish. – T.: 1996.

16. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy Dasturi. – T.: O‘zbekiston, 1997.
17. Axloqshunoslik. Ma’ruzalar matni. – T.: O‘zMU, 2002.
18. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A. Qodiriy nomidagi «Xalq merosi» nashriyoti, 1993.
19. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. – T.: O‘zbekiston, 1995.
20. Shermuhammedov Y. Xulq va muomala madaniyati.
21. Mamanazarov S. «Kasb etikasi» fanidan ma’ruzalar matni. – Jizzax, 2011. 176 bet.
22. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. – T.: TDPU, 2002.
23. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. Yangi asr avlodi, 2008.
24. Ivanov I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. O‘z.FMJ, 2008.
25. Югай А.Х., Мираширова Н.А. Общая психология. – Т.: Фан ва тех. маркази, 2012.
26. Xaydarov F.I., Xalilova N. «Umumiy psixologiya». – T.: 2009.

## MUNDARIJA

**KIRISH . . . . . 3**
**1-mavzu:** Kasb etikasi va kommunikatsiya fanining predmeti. . . . . 5
1.1. Kasb etikasi va kommunikatsiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari . . . . . 5
1.2. Kasb etikasi va kommunikatsiya fanining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni. . . . . 9
1.3. Kasb etikasining va kommunikatsiya fanining tadqiqot metodlari . . . . . 14
**2-mavzu:** Kasb-hunar egallashning ijtimoiy va tarixiy muammolari . . . . . 20
2.1. Buyuk ajdodlarimiz kasb-hunar to‘g‘risida. . . . . 20
2.2. Xorij mutafakkirlarining kasb etikasiga doir qarashlari . . . . . 23
2.3. Yoshlarni kasb tanlashga yo‘naltirish ijtimoiy voqelik sifatida . . . . . 27
**3-mavzu:** Shaxs psixologiyasi va kasb etikasining shakllanishi. . . . . 31
3.1. Shaxs ijtimoiylashuvi muammosi. . . . . 31
3.2. Shaxsning «Men» obrazi va o‘z-o‘ziga baho berishi muammosi . . . . . 35
3.3. Shaxs dunyoqarashini va e’tiqodini o‘zgartiruvchi omillar . . . . . 40
**4-mavzu:** Kommunikatsiya va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi . . . . . 46
4.1. Kommunikatsiya tushunchasining ijtimoiy-psixologik mazmuni . . . . . 46
4.2. Muloqotning kommunikativ darajasi. . . . . 48
4.3. Muloqotning interaktiv darajasi . . . . . 50
4.4. Muloqotning perseptiv darajasi. . . . . 51
**5-mavzu:** Kasb etikasi va o‘smirlik psixologiyasi . . . . . 54
5.1. O‘smirlik davrida shaxs xususiyatlarining shakllanishi. . . . . 54
5.2. O‘smirlik davrida kasb tanlash . . . . . 57
5.3. O‘smirlik davri va kasb etikasi kategoriyalarining ahamiyati 59
5.4. Burch, or-nomus va qadr-qimmat. . . . . 62
**6-mavzu:** Shaxsning kasbiy etika va kommunikatsiyaning rivojlanishida individual xususiyatlarning o‘rni . . . . . 64
6.1. Shaxsning irodaviy xususiyatlarining ahamiyati . . . . . 64
6.2. Kasb tanlashda hissiyotning o‘rni. . . . . 68
6.3. Shaxs va temperament tiplari . . . . . 72
**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR . . . . . 128**

MIRASHIROVA NARGIZA ANVAROVNA,
RAXIMOVA IRODAXON GIYOZJANOVNA,
MUXAMEDJANOVA DILYUPAR KAMALOVNA

# KASB ETIKASI VA KOMMUNIKATSIYA

*O‘quv qo‘llanma*

Muharrir: *M. Akbarov*
Musahhih: *H. Zakirova*
Dizayner sahifalovchi: *D. Ermatova*

«Faylasuflar» nashriyoti.
100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy.
Tel.: 236-55-79; Faks: 239-88-61.

Nashriyot litsenziyasi: AI №255, 16.11.2012.
Bosishga ruxsat etildi 24.02.2014. «Uz-Times» garniturasi. Ofset usulida chop etildi. Qog‘oz bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$. Bosma tabog‘i 8,0. Nashr hisob tabog‘i 8,5. Adadi 293 nusxa. Buyurtma №__.

«START-TRACK PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko‘chasi, 57-uy.